

D.Z.NORKULOVA, G.R.TURSUNOVA, O.Z.QILICOVA



# IXTISOSLASHGAN MEHMONXONA TURLARI



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI**

**D.Z.NORKULOVA, G.R.TURSUNOVA, O.Z.QILICOVA**

**IXTISOSLASHGAN  
MEHMONXONA TURLARI**

**Monografiya**

5610200 - «Mehmonxona xo'jaligini tashkil etish va boshqarish»)  
ta'lim yo'nalishi talabalari uchun mo'ljallangan

**SAMARQAND – 2021**

**UDK. 338.482**

**BBK. 65.433**

**D.Z.Norkulova, G.R.Tursunova, O.Z.Qilichovalar.** Ixtisoslashgan mehmonxona turlari. Monografiya. Samarqand. SamISI. 2021. 328 b.

Ushbu monografiya Samarqand iqtisodiyot va servis institutining «Turizm» kafedrasida ishlab chiqildi. «Ixtisoslashgan mehmonxona turlari» nomli monografiya oliy o‘quv yurtlaridagi 5610200 - «Mehmonxona xo‘jaligini tashkil etish va boshqarish» ta’lim yo‘nalishi talabalari hamda 5A610201 – Mehmonxona xo‘jaligini tashkil etish va boshqarish mutaxassisligidagi magistrantlar, shuningdek, «Sirtqi» bo‘limda tahsil olayotgan talabalarga mo‘ljallangan. Mazkur monografiyadan turizm sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan mutaxassislar, mustaqil izlanuvchi tadqiqotchilar va doktorantlar ham foydalanishlari mumkin.

Ushbu monografiyada talabalar mustaqil o‘rganishlari uchun barcha o‘quv - uslubiy materiallar keltirilgan.

#### **Taqrizchilar:**

**D.X.Asanova** SamISI Ilmiy ishlari va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor, prof., i.f.n.

**B.Sh.Safarov** SamDU «Raqamli iqtisodiyot» kafedrasi mudiri, prof., i.f.d.

*Monografiya Samarqand iqtisodiyot va servis instituti Kengashida  
muhokama etilgan va nashr uchun tavsiya etilgan.  
(2021 yil 26 may. Bayonnomma №10 )*

**©D.Z.Norkulova, G.R.Tursunova, O.Z.Qilichova. 2021.**  
**©SamISI. 2021.**

## KIRISH

Turizm faoliyati paydo bo'lganidan turistlarning tunab qolish uchun joy topishlari, qanday xizmatlardan foydalanishlari, tunab qolgan joylardagi sharoitlar va qo'layliklar diqqat markazida bo'lib kelmoqda. Joylashtirish vositalari va ularda ko'rsatayotgan xizmatlar shunchalik xilma-xilki turistlar uchun tanlov erkinligidan tashqari, tanloving qiyinchiligi ham tug'ilmoqda. Ushbu qiyinchiliklar asosan qaysi joylashtirish vositasini tanlash va qaysi xizmat turlaridan foydalanishda namoyon bo'ladi. Turistlar o'zlarining hohish istaklariga, kayfiyatiga, moliyaviy imkoniyatlari yoki qiziqishlariga qarat joylashtirish vositalarini tanlashga harakat qilishiadi. Ba'zi insonlar kundalik sharoitidan farq qiluvchi, xotirada qoladigan va o'zgacha bo'lgan mehmonxona va xizmatlarni tanlasa, boshqa toifadagi insonlar esa kundalik hayotidan farq qilmaydiogan sharoitlari mavjud mehmonxonalarni tanlashga moyillik bildiradi.

Har bir millatning va hududning o'z tarixi va iqlimiga xos bo'lgan milliy uylari va binolarning o'ziga xos arxitekturasi mavjud bo'lib, usha millat yoki hududning ramzi bo'lib xizmat qilishi mumkin. Misol tariqasida tropik hududlarda, ayniqsa dengiz yoki okean sohillarida bungalo, tog' yonbag'irlarida va o'rmonli hududlarda esa ovchilar uychalari yoki shale ko'rinishidagi joylashtirish vositalarini keltirish maqsadga muvofiq. Shuningdek, yoshlarning turistik xizmatlarga katta talab quymasligi va moliyaviy tomonidan qisman cheklanganligi, kam harajat evaziga ko'proq xizmatlardan foydalanish imkoniyatlari e'tibor qaratishi o'ziga xos joylashtirish vositalarga, xostellarga talabni paydo qilishiga sabab bo'lgan. Shuningdek sog'gomlashtirish va reabilitasiya maqsadlarida dam olishni istayotgan turistlarga salomatlikni tiklash va rekreasion maqsadlardagi xizmatlarni taklif qilishga - ixtisoslashgan kurort-mehmonxonalar yoki SPA - mehmonxonalarining paydo bo'lishiga asos bo'lgan. O'zbekistonda turizm sohasini rivojlantirishga, xususan turistik xizmatlarni diversifikasiyalash, xizmatlar sifatini oshirish,

turistlar sonining ortishiga katta e'tibor qaratilib kelinmoqda. Xususan turistlar soni oshirish maqsadida turizm turlarini ko'paytirish, har bir tashkil etiladigan turizm turiga mos ravishda xizmatlar majmuasini hamda ushbu xizmatlarni ko'rsatuvchi tegishli infratuzilmani shakllantirishga qaratilgan bir qator amaliy ishlar amalga oshirildi. Misol uchun Amirsoy tog'-chang'i dam olish maskanining tashkil etilishi orqali mamlakatimizda tog' turizmining bir nechta turlarini shakllantirishga erishildi.

Hozirgi kunda turizm sohasi juda tez rivojlanayotgan sohalardan biri bo'lib, uning rivojlanishida nafaqat yangi ish o'rinalining ochilishi, balki mamlakat iqtisodiyotiga katta foyda keltirishi bilan ahamiyatlidir. Shuning uchun turizm sohasidagi asosiy va qo'shimcha xizmatlarni xududlarda rivojlanirish hamda turistlarni jalb qilish oldimizdagi eng muhim masalalardan biridir. Shunday ekan biz turismning asosiy xizmatlaridan bo'lган mehmonxona xizmati va uning faoliyati bo'yicha, qolaversa butundunyoda mashxur bo'lган noan'anaviy mehmonxonalar, ulardagи shart - sharoitlar haqida ma'lumotlar to'pladik. Bu kabi mehmonxonalar ixtisoslashganligi va ayrimlari maxsus tashkil etilganligi bizning e'tiborimizni tortdi. Ularning ko'rinishi va taklif etadigan xizmatlari oddiy bo'lsada, lekin san'at, madaniyat, qobiliyat, iqtidor, arxitektura, urf - odat, tarix, geografiya, e'tiqod kabi bilimlar yaxlitlikda namoyon bo'lган joylar insonning butun borlig'i va stresslardan holi bo'lish maqsadida borishda undovchi omillardan biri sifatida xizmat qiladi. Bunda insondagi mavjud bilim va tasavvurlar yanada boyiydi, natijada yangi –yangi energiya va kuch atrof – muhitga bolgan qarashlarini o'zgartiradi. Yangi taassurotlar esa insonning ishchanlik qobiliyatini kuchaytiradi. Bu esa albatta, insonni yana sayoyat qilishga chorlaydi.

Ixtisoslashgan mehmonxona turlarini o'rganish jarayonida ularning faoliyati, jozibali xizmat turlari, xizmat ko'rsatish usullari, geografik joylashgan joyi, qurilishdagi arxitektura-konstrukturli jihatlari, noodatiyligi hamda ajabtovur–antiqaligi kabi sifatlarni

inobatga olib, ularni o‘rganishga harakat qilindi. Tahlil natijasida dunyodagi mashhur va turistlarni o‘ziga jalb qila oladigan eng oddiy mehmonxonalaridan tortib, insonlarni hayratga soladigan maxsus mehmonxonalargacha bo‘lgan joylashtirish vositalarining turlari havola qilindi.

Ilmiy tadqiqotlarning **asosiy maqsadi** – turli xil faoliyat turlariga moslashtirilgan hamda ko‘rsatiladigan xizmatlar majmuasining o‘ziga xosligi bilan ajralib turadigan ixtisoslashgan mehmonxona turlari va ko‘rsatiladigan xizmatlarni o‘rganishdan iborat.

Ilmiy tadqiqotning maqsadidan kelib chiqib quyidagi **vazifalarni** bajarish rejalashtirilgan bo‘lib, bajarilgan ishlar ushbu monografiyada bayon etilgan:

1. O‘zbekiston Respublikasida joylashtirish vositalari bo‘yicha qabul qilingan davlat standartlari ahamiyatini ochib berish.
2. O‘zbekiston Respublikasida joylashtirish vositalarining klassifikatsiyasi va ularga qo‘yiladigan umumiy talablarni o‘rganish.
3. Turistlar va mahalliy aholiga xizmat ko‘rsatadigan maxsus va ixtisoslashgan mehmonxonalar turlari hamda ularda mavjud xonalar turlari tasnifini tahlil qilish.
4. Turistlar va mahalliy aholiga xizmat ko‘rsatadigan maxsus va ixtisoslashgan mehmonxonalarning sanitariya sharoitlari va jihozlari, ularning xizmatlari hamda mehmonlar uchun yaratilgan qulayliklarni o‘rganish.

# **I-BOB. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA BARCHA JOYLASHTIRISH VOSITALARI TURLARI BO'YICHA QABUL QILINGAN DAVLAT STANDARTLARI**

## **1.1. O'zbekiston Respublikasida joylashtirish vositalari bo'yicha qabul qilingan davlat standartlarining ahamiyati**

O'zbekistonda turizm sohasi rivojlangani sari turizm xizmatlari va ularning sifatiga doir masalalar mohiyati ortib borayotgani kuzatilmoqda. Sifatni ta'minlash va uni jahon talablariga javob beradigan darajaga etkazish maqsadida turli darajadagi standartlar qabul qilish amaliyoti qo'llanilib kelinmoqda.

**Standart** belgilangan obyektga qo'yiladigan va vakolatli organlar tomonidan tasdiqlanadigan me'yorlar, qoidalar, talablarni belgilovchi me'yoriy hujjat hisoblanadi. U inson faoliyatining barcha sohalari - xizmat ko'rsatish, fan texnika, ishlab chiqarish, sanoat, qishloq xo'jaligi, qurilish, transport va boshqalarga taalluqli.

**Turizm sohasida standartlashtirish** O'zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi qoshidagi «Turizm sohasida standartlashtirish bo'yicha Texnik qo'mita» tomonidan ishlab chiqiladi. Texnik qo'mita kotibiyati «Turizm xizmatlarini sertifikatlashtirish markazi» DUK tomonidan yuritiladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 2-dekabrdagi «O'zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoni asosida O'zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi tashkil etilgandan so'ng standartlashtirish sohasida ham katta ishlar amalgalashirildi va yangi standartlar ishlab chiqish, mavjudlarini takomillashtirish bo'yicha ishlar muntazam ravishda olib borilmoqda. Turizm sohasiga oid standartlar Bugungi kunga qadar turizm sohasida standartlashtirish bo'yicha Texnik qo'mita tomonidan 11 davlat standarti ishlab chiqildi va o'rnatilgan tartibda «O'zstandart» Agentligi tomonidan ro'yxatga olindi. Bular:

O‘z DSt ISO 18513 - «Turizm xizmatlari. Mehmonxona va turistlarni joylashtirish vositalarining boshqa turlari. Atamashunoslik»;

O‘z DSt 3220 - «Turizm xizmatlari. Joylashtirish vositalari. Umumiyl talablar»;

O‘z DSt 3296 - «Turizm xizmatlari. Mehmonxonalar va o‘xshash joylashtirish vositalari. Tasniflash tizimi»;

O‘z DSt ISO 14785 - «Turizm axborot byurolari. Turizm axboroti va qabul qilish xizmatlari. Talablar»;

O‘z DSt 3331 - «Turizm xizmatlari. Turizm sohasida navigatsiya tizimining axborot belgilari. Umumiyl talablar»;

O‘z DSt 3334 - «Turizm xizmatlari. Musulmon mehmondo’sligi. Talablar»; O‘z DSt 3336 - «Turizm xizmatlari. Tourist-friendly. Talablar»;

O‘z DSt ISO 13009 - «Turizm xizmatlari. Plyaj faoliyatiga doir talablar va tavsiyalar»;

O‘z DSt ISO18065 - «Turizm xizmatlari. Qo‘riqlanadigan tabiiy hududlarning ma’muriyati tomonidan taqdim etiladigan, umumiyl foydalanish uchun turizm xizmatlari. Talablar»;

O‘z DSt 3417 - «Turizm xizmatlari. Joylashtirish vositalarida xizmat ko‘rsatadigan xodimlarga doir umumiyl talablar»;

O‘z DSt 3418 - «Turizm xizmatlari. Turoperator va turagentlar xodimlariga doir umumiyl talablar».<sup>1</sup>

O‘zbekiston Respublikasining O‘z DSt ISO 18513 - «Turizm xizmatlari. Mehmonxona va turistlarni joylashtirish vositalarining boshqa turlari. Atamashunoslik» Davlat Standarti joylashtirish vositalari va ularda taqdim etiladigan xizmatlarga doir umumiyl talablarni belgilaydi.<sup>2</sup> Ushbu standartda mehmonxonalar, jumladan ixtisoslashgan mehmonxonalarga oid quyidagi atamalar ta’riflari qo‘llanilgan:

---

<sup>1</sup> <https://uzbektourism.uz/uz/newnews/view?id=875>

<sup>2</sup> O‘z DSt 3220:2017. Turizm xizmatlari. Joylashtirish vositalari. Umumiyl talablar. «O‘zstandart» agentligi. Toshkent 2017

**1. Vaqtinchalik yashash:** Tashrif buyuruvchilarning 12 oydan ko‘p bo‘lmagan ketma-ket muddatda yashashi.

**2. Joylashtirish vositalari xizmatlarini bajaruvchi:** Shaxsiy yoki ijaraga olingan moddiy bazada (bino, inshoot, inventar) joylashtirish vositalari xizmatlarini taqdim qiluvchi shaxs.

**3. Iste’molchi (tashrif buyuruvchi):** Joylashtirish vositalari xizmatlarini olish maqsadiga ega bo‘lgan yoki ulardan foydalanadigan yashovchi va xizmatlarning boshqa iste’molchilar.

**4. Ixtisoslashtirilgan joylashtirish vositalari:** Belgilangan vazifasi, ixtisosligi, ish profili va/ yoki faoliyat yo‘nalishiga muvofiq, xususan turistik, sog‘lomlashtirish, sport, jismoniy - sog‘lomlashtirish, ta’lim va boshqa qo‘srimcha xizmatlarni taqdim qiluvchi joylashtirish vositalari.

**5. Nomer fondi:** Joylashtirish vositasida yashash uchun turar - joy xonalarining (nomerlarning) umumiy soni.

**6. Joylashtirish vositasidagi nomer:** Vaqtinchalik yashash uchun zarur bo‘lgan mebel, jihozlar va inventarli bir yoki bir necha turar - joy xonalari/uylar.

**7. Butik - otel:** Har bir nomeri noyob tarzda bezatilgan kichikroq mehmonxona.

**8. Rekreatsion xizmatlar:** Sog‘lomlashtirish, dam olish, joylashtirish, ovqatlanish, jismoniy - sog‘lomlashtirish xizmatlarini tashkillashtirish bo‘yicha xizmatlar va bo‘sh vaqtni tashkillashtirish xizmatlari majmui.

**9. Dam olish uyi, dam olish zonası:** Joylashtirish, ovqatlanish, bo‘sh vaqtni tashkillashtirish va o‘yin - kulgu xizmatlarini taqdim qiluvchi, rekreatsion zonada joylashgan ixtisoslashgan joylashtirish vositasi.

**10. Kvartira:** Belgilangan sanitariya, yong‘inga qarshi, texnik talablarga javob beradigan, tashrif buyuruvchilar yashashi uchun mo‘ljallangan, ijaraga beriladigan, bir yoki bir necha yashash xonalaridan, shuningdek iste’molchilarining yashash bilan bog‘liq bo‘lgan maishiy va boshqa ehtiyojlarini qondirish uchun

mo‘ljallangan yordamchi xonalardan tashkil topadigan, ko‘p kvartirali uydagi yashash xonasi.

**11.Yashash uchun uy:** Belgilangan sanitariya, yong‘inga qarshi, texnik talablarga javob beradigan, tashrif buyuruvchilar yashashi uchun mo‘ljallangan, ijaraga beriladigan, bir yoki bir necha yashash xonalaridan, shuningdek iste’molchilarning yashash bilan bog‘liq bo‘lgan maishiy va boshqa ehtiyojlarini qondirish uchun mo‘ljallangan yordamchi xonalardan tashkil topadigan, alohida yashash joyi.

**12.Kapsulali xostel:** Bir - birining ustida joylashgan, uncha katta bo‘lmagan yotoq katakchalarini o‘zida ifodalaydigan arzon joylashtirish vositasi.

## **1.2. O‘zbekiston Respublikasida joylashtirish vositalarining klassifikatsiyasi**

O‘zbekiston Respublikasining O‘zDSt 3296 - «Turizm xizmatlari. Mehmonxonalar va o‘xhash joylashtirish vositalari. Tasniflash tizimi» davlat standartida mamlakatimizda faoliyat ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan joylashtirish vositalari turlari va tasnifi, hamda ularga bekgilangan talablar keltirilgan.

Mamlakatimizda joylashtirish vositalari klassifikatsiyasi O‘zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasining «Turistik xizmatlarni sertifikatlashtirish markazi» Davlat unitar korxonasi tomonidan ishlab chiqilgan va O‘zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligi («O‘zstandart» agentligi)ning 21.09.2017 yil 05-881 - sonli qarori bilan tasdiqlangan O‘z DSt 3220:2017 davlat standarti asosida amalga oshiriladi.

O‘zDSt 3296 standartiga asosan har xil turdag'i va xildagi joylashtirish vositalari quyidagilarga bo‘linadi:

Joylashtirish vositalarining klassifikatsiyasi bir necha sabablarga ko‘ra amalga oshiriladi va turistik dasturlarni shakllantirishda muhim omil ko‘rsatkich hisoblanadi. Ular:

- haridorlarga malumot berish uchun: bu orqali turist o‘zining yashash joyidan uzoqda bo‘lgan va yaqin kelajakda foydalanadigan tunash oyi haqida malumotga ega bo‘lishi lozim.
- tur operatorlar va turistik agentliklar faoliyati uchun: ular o‘z mahsulotlarini (tur paketni) shakllantirayotganlarida o‘z kataloglarida taqdim etadilar.
- marketing va reklama vositalarini yaratish uchun: bu, birinchi navbatda, ularning yulduzlar tomonidan taqdim etiladigan «sertifikatlash platformasi» ga asosan, ular qancha yulduzlarga ega bo‘lishlari bilan o‘ziga xos xususiyatlarini va qo‘srimcha xizmatlarini ilgari surishi mumkin bo‘lgan mehmonxonalar uchun foydalidir. bu mamlakat miqyosida ham foydali bo‘lib, o‘z tasniflash tizimini isloh qiladigan deyarli barcha mamlakatlar milliy turizm sifatini yuqori darajaga yetkazish istagi borligini namoyon qiladilar. shunday qilib, tasniflash tizimining o‘zi ham reklama qilish elementi bo‘lishi mumkin.
- mehmonxona mutaxassisligini kasbiy jihatdan ta’minlash uchun. tasniflash tizimi sifatni o‘lchash vositasidan foydalanish. bu esa turar joy birliklarining juda xilma - xilligi bilan ajralib turadigan bir sektorni izchil ravishda baholash imkonini beradi.
- ayrim mamlakatlarda tasniflash subsidiyalar berish yoki ayrim soliq imtiyozlari berish kabi davlat siyosatini amalga oshirish uchun havola sifatida xizmat qiladi.

Joylashtirish vositalari har xil turlari va xillari bo‘yicha farqlanadi. Unga ko‘ra joylashtirish vositalarining turlari va xillari quyidagicha belgilangan (1-jadvalda keltirilgan):

### 1.1.1-jadval

#### Har xil turdag'i va xildagi joylashtirish vositalari

Joylashtirish vositalarining turlari	Joylashtirish vositalarining xillari
<b>Mehmonxona lar va shunga o'xshash joylashtirish vositalari</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>✓ Mehmonxonalar</li> <li>✓ Apartotellar</li> <li>✓ Apartamentlar majmui (qarorgoh)</li> <li>✓ Lyuks nomerli mehmonxonalar</li> <li>✓ Spa - mehmonxonalar</li> <li>✓ Butik - otellar</li> <li>✓ Motellar va b.</li> </ul>
<b>Ixtisoslash- tirilgan joylashtirish vositalari</b>	<p><i>Sanatoriy - kurort joylashtirish vositalari:</i></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>✓ sanatoriylar,</li> <li>✓ pansionatlar,</li> <li>✓ yashab davolanadigan shifoxonalar va b.</li> </ul> <p><i>Dam olish va bo'sh vaqtini tashkillashtirish uchun ixtisoslashtirilgan joylashtirish vositalari:</i></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>✓ dam olish uylari/ markazlari/ zonalari,</li> <li>✓ sport bazalari,</li> <li>✓ ovchilar uyi,</li> <li>✓ baliqchi uylari va b.</li> </ul> <p><i>Bolalar va o'smirlarning dam olishi, sog'lig'ini tiklashi va bo'sh vaqtini tashkillashtirish uchun joylashtirish vositalari:</i></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>✓ bolalar sanatoriylari, davolovchi pansionatlar, bolalar uchun sanatoriy - sog'lomlashtirish va davolanish - sog'lomlashtirish oromgohlari;</li> <li>✓ bolalar oromgohlari/ dam olish markazlari;</li> <li>✓ ixtisoslashtirilgan yoki muayyan xususiyatli bolalar oromgohlari/ dam olish markazlari (turistik, sog'lomlashtirish, sport,</li> </ul>

	<p>o‘lkashunoslik, til o‘rganish, raqs, kompyuter, ilm olish, ekologik, jismoniy-sog‘lomlashtirish va b.);</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>✓ turistik bazalar (bolalar va o‘smirlar turizmi, o‘lkashunoslik va ekskursiyalar, bolalar turistik bazalari, oromgohlar va b.).</li> </ul> <p><i>Turistik ixtisoslashtirilgan joylashtirish vositalari:</i></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>✓ turistik bazalar;</li> <li>✓ turistik oromgohlar;</li> <li>✓ chodirli/ kemping oromgohi;</li> <li>✓ o‘tovli oromgohlar;</li> <li>✓ dam olish uylari/ markazlari/ zonalar;</li> <li>✓ turistik qishloq;</li> <li>✓ kemping va b.</li> </ul>
<b>Individual joylashtirish vositalari</b>	<p><i>Turar-joy uylari, shu jumladan:</i></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>✓ shahar tashqarisidagi uy;</li> <li>✓ dala hovli;</li> <li>✓ xususiy uy;</li> <li>✓ fermer uyi;</li> <li>✓ eko-ferma;</li> <li>✓ tog‘dagi uy;</li> <li>✓ mehmonlar uchun uy;</li> <li>✓ mehmonlar uchun shahardagi uy;</li> <li>✓ qishloqdagi uy;</li> <li>✓ o‘tov;</li> <li>✓ shale;</li> <li>✓ bungalo;</li> <li>✓ kvartira;</li> <li>✓ apartament va b.</li> </ul>
<b>Boshqa joylashtirish vositalari</b>	Xostellar (yoshlar mehmonxonalari) va yotoqxonalar

Ushbu jadvalga qo'shimcha izohlar tariqasida qo'yidagilarni keltirish mumkin:

1. Individual joylashtirish vositalarida 10 tagacha tashrif buyuruvchini joylashtirish imkoniyati bo'lgan 5 tagacha nomerga ega bo'lishiga ruxsat etiladi.
2. Yotoqxonalar ishchilar, xizmatchilar, talabalar, o'quvchilar, hamda ish, xizmat yoki o'qish davrida boshqa tashrif buyuruvchilar yashashi uchun mo'ljallangan.

Standartda joylashtirish vositalari quyidagi belgilarni bo'yicha turlar va toifalarga bo'linadi:

- belgilangan vazifasi bo'yicha;
- turgan joyi/joylashishi bo'yicha;
- ishslash vaqtini bo'yicha;
- texnik jihatdan jihozlanish darajasi bo'yicha;
- moddiy baza va nomer fondining holati bo'yicha;
- sig'imi bo'yicha;
- servis va ko'rsatilayotgan xizmatlar sifati darajasi bo'yicha;
- tashrif buyuruvchilar kontingenti bo'yicha;
- joylashtirish vositalari xizmatlarini ko'rsatish uchun ahamiyatga ega bo'lgan boshqa parametrlar va/yoki joylashtirish vositalari xizmatlari iste'molchilarining axborotga egaligi bo'yicha.

Joylashtirish vositalarining toifalari «yulduzcha» belgisi (toifaga muvofiqlik belgisi) bilan belgilanadi. Joylashtirish vositalariga - bir, ikki, uch, to'rt va besh yulduz toifalari berilishi mumkin.

Standartda belgilangan vazifasiga ko'ra joylashtirish vositalari tranzit va maqsadliga bo'linadi. Tranzit joylashtirish vositalari qisqa muddatli to'xtash sharoitlarida tashrif buyuruvchilarga xizmat ko'rsatish uchun mo'ljallangan. Maqsadli joylashtirish vositalariga ixtisoslashtirilgan joylashtirish vositalari va ishga aloqador bo'lgan joylashtirish vositalari kiradi.

Standartda turgan joyi/ joylashishi bo'yicha joylashtirish vositalari shahar, shahardan tashqari, qishloq, tog', o'rmon, daryodagi va boshqalarga bo'lingan.

Ishlash vaqtি bo'yicha joylashtirish vositalari quyidagilarga bo'lingan:

- yil bo'yi ishlaydigan;
- mavsumiy ishlaydigan;
- dam olish kunlaridagi;

- turish kunining vaqtি bo'yicha tunu-kun, kunduz kuni yoki cheklangan tarzda ishlaydigan.

Standartga asosan nomer fondiga bog'liq holda joylashtirish vositalari quyidagilarga bo'lingan:

- katta (200 ta nomerdan ko'p);
- o'rta (51 tadan 200 tagacha nomer);
- kichik (16 tadan 50 tagacha nomer);
- mini (15 tagacha nomer).

Standartga asosan tashrif buyuruvchilar kontingenti va ixtisoslik bo'yicha joylashtirish vositalari quyidagilarga bo'lingan:

- turistik,
- sport;
- jismoniy-sog'lomlashtirish;
- bolalar;
- yoshlar;
- talabalar;
- oilaviy;
- yoshi katta insonlar uchun;
- jismoniy imkoniyati cheklangan tashrif buyuruvchilar uchun;
- bolalar uchun;
- xizmat safari uchun va boshqalarga bo'linadi.

Standartga asosan foydalilaniladigan binolar (imoratlar) turi bo'yicha joylashtirish vositalari quyidagilarga bo'lingan:

- alohida turgan binolarda (individual yashash uylaridan tashqari) joylashganga;

- individual yashash uylarida joylashganga;
- ko‘p kvartirali yashash uylaridagi kvartiralarda joylashganga;
- boshqa binolar, bino va imoratlarning qismlarida joylashganga bo‘linadi.

Yashash uylarida joylashtirish vositalarining joylashishi O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi bilan tartibga solinadi.

Standartda joylashtirish vositasining ishi/ faoliyatini tashkillashtirish usuli va shakliga binoan quyidagilarga bo‘lingan:

- mustaqil;
- tarmoqli (mehmonxonalar, birlashmalar tarmog‘i) va boshqalar.

### **1.3. O‘zbekiston Respublikasida joylashtirish vositalariga qo‘yiladigan umumiy talablar**

Qabul qilingan standartlarga asosan joylashtirish vositalari taqdim etilayotgan xizmatlarning xavfsizligi va sifatini ta’minlashlari, O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi va normativ-huquqiy hujjatlari talablariga muvofiq bo‘lishi, ularining arxitektura-rejalashtirish, qurilish elementlari va konstruktiv qarorlari O‘zbekiston Respublikasida belgilangan talablarga muvofiq bo‘lishi kerak.

Joylashtirish vositalarida tashrif buyuruvchilarning hayoti va sog‘lig‘i uchun xavfsiz sharoitlar, ularning mulki butligi ta’minlashini va O‘zbekiston Respublikasida belgilangan qoidalar va talablarga rioya qilinishi, shuningdek individual joylashtirish vositalari, kempinglar, turistik oromgohlar, chodirli/ kemping oromgohlari, o‘tov va o‘tovli oromgohlari yong‘inga qarshi xavfsizlikni mustaqil xabar qiluvchilar va o‘t o‘chirgichlar mavjudligi bilan, hamda yong‘in o‘chirishning tashqi vositalari, ya’ni yong‘in asboblari o‘rnatilgan taxta bilan ta’minlanishlari kerak deb belgilangan.

Yangi joylashtirish vositalarini loyihalashtirish, qurish va avval ekspluatatsiyaga topshirilgan binolarni rekonstruksiya qilish vaqtida O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligining talablariga muvofiq jismoniy imkoniyati cheklangan tashrif buyuruvchilarni yashashi va ularga xizmat ko‘rsatish uchun sharoitlar nazarda tutilgan bo‘lishi, joylashtirish vositasida ekspluatatsiya qilinadigan gaz va lift jihozlari, shu jumladan bosim ostida ishlaydigan qozonlar va idishlar xavfizlikning belgilangan talablariga muvofiq bo‘lishi, O‘zbekiston Respublikasining sanitariya-epidemiologiya qonunchiligi, me’yorlari va qoidalariга rivoя qilinishi, suv ta’minoti, isitish, suv chiqarish, vetilyatsiya, yoritish va havo haroratini bir xilda saqlash tizimlari yashash nomerlarida va jamoat joylarida sanitariya me’yorlari va qoidalari talablariga muvofiq suv sifati, yoritish parametrlari va mikroiqlimni ta’minlashi, hududdagi va yashash xonalaridagi shovqin darajasi O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi belgilangan me’yorlardan oshmasligi kerak.

Mamlakatning qo‘riqlanadigan tabiat hududlarida joylashgan joylashtirish vositalarida (davolash-sog‘lomlashtirish joylari va kurortlarda, tabiat bog‘larida, qo‘riqxonalarda, tabiat yodgorliklarida, botanika bog‘larida va h.k.) qo‘riqlanadigan tabiiy hududlar to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasining qonunchiligiga rivoя qilinishi hamda qo‘riqlanadigan tabiat hududlari va madaniy merosning moddiy ob’ektlarida joylashgan joylashtirish vositalarida O‘zbekiston Respublikasining madaniy meros ob’ektlarini muhofaza qilish va foydalanish to‘g‘risidagi qonunchiligiga rivoя qilish zarur.

Barcha insonlar biror xizmatlarni iste’mol qilishidan oldin shu xizmatlar xaqida qandaydir ma’lumotlarga ega bo‘lishni istashadi. Joylashtirish xizmatlari iste’molchilari uchun axborotlar, shu jumladan joylashtirish vositalari xizmatlarini bajaruvchi, ish rejimi va ko‘rsatiladigan xizmatlar to‘g‘risidagi axborotlar belgilangan tartibda va O‘z DSt 5.8 talablarga muvofiq bo‘lishi hamda xizmatlar

iste'molchilariga tushunarli va ko'rgazmali usullarda yetkazilishi kerak.


Taqdim etilayotgan qo'shimcha xizmatlarning ro'yxati faoliyat ixtisosligi, joylashtirish vositasining joylashishi, iqlimiylar sharoitlar, kontingenit va tashrif buyuruvchilarning talablari va h.k. ga bog'liq holda joylashtirish vositalari xizmatlarini bajaruvchi (egasi, ma'muriyat) tomonidan mustaqil ravishda belgilanadi. Joylashtirish vositasi binolari va xonalarining jihozlari, inshootlari, asbob-uskunalarini va inventari belgilangan funksional talablarga muvofiq bo'lishi kerak. Joylashtirish vositalarida qattiq va suyuq maishiy chiqindilarni toplash va chiqarib tashlash O'zbekiston Respublikasi chiqindi va komunal xizmatlar to'g'risidagi qonunchiligidagi belgilangan talablarga muvofiq bo'lishi kerak.

Xalqaro, milliy, mintaqaviy birlashmalar, tarmoqlarga kiradigan joylashtirish vositalari ushbu tashkilotlarda qabul qilingan standartlarning, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga zid bo'lmagan talablariga qo'shimcha ravishda muvofiq bo'lishi mumkin.

Tutash hudud, binolar, xonalar, nomerlar, texnik jihozlar va asbob -uskunalar, xodimlar, axborot ta'minoti, joylashtirish vositalarining xizmatlariga doir talablar 1- ilovada keltirilgan.

#### **1.4. Turistlar va mahalliy aholiga xizmat ko'rsatadigan maxsus va ixtisoslashgan mehmonxonalar turlari va ularda ko'rsatiladigan xizmatlar**

Turistlar va mahalliy aholiga xizmat ko'rsatadigan maxsus va ixtisoslashgan mehmonxonalar turlarini o'rganish natijasida ishlab chiqilgan quyidagi tasnifni hamda ularning qisqacha ta'riflarini keltirish maqsadga muvofiq:



- **Mehmonxona** - joylashtirishni va ovqatlanishni ta'minlovchi, xizmat ko'rsatish va mijozlar ehtiyojini qondirishga qaratilgan qo'shimcha qulayliklarga, ruyxatga olish bo'limiga (reception) ega bo'lgan korxona.
- **Apartotel, apartamentlar majmui, qarorgoh** - studiyalar yoki apartamentlarda joylashtirishni taqdim qiluvchi mehmonxona.
- **Avto uy** - uqlash va o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish uchun qulayliklari bo'lgan o'zi yuruvchi avtotransport vositasi.
- **Avtotirkamali furgon yotog'i; karvon** - gildirakli, avtotirkamali, yashash uchun kerak bo'ladigan, birlamchi ehtiyojlarni qondirishga mo'ljallangan sharoitga ega bo'lgan ko'chma turar joy.
- **Barja; sayohat qayig'i** - daryo/ kanalda sayohat qilish uchun mo'ljallangan, joylashtirish va o'z - o'ziga xizmat ko'rsatish uchun sharoitlar ko'zda tutilgan qayiq.
- **Bolalar oromgohi** - ta'til vaqtida yoki sog'likni mustahkamlash uchun bolalarni joylashtirishni taklif qiluvchi korxona
- **Botel** – sayohat qiluvchilarga bir vaqtning o'zida ham joylashtirish, ham transport, ham ovqatlantirish xizmatlarini taqdim qiluvchi, kema shaklidagi, sohilda turadigan mexmonxona.
- **Chodir** - transportda tashishni yengillashtirish maqsadida qismlarga ajratilishi va yig'ilishi mumkin bo'lgan matoli bospana.
- **Dala hovli** - joylashtirish ta'minlanadigan shahar tashqarisidagi xususiy uy.
- **Eko-fermerlik uyi** - taomlari asosan fermerlik mahsulotlaridan tayyorlanadigan, ishlab turgan (amaldagi) fermer xo'jaligida joylashtirishni taqdim etish. Fermer uylaridan farqli o'laroq, eko-fermerlik uylarida dam olish tabiiy muhitda taklif etilib, joylashtirish va ovqatlanish O'zbekistonga xos an'analarga ko'ra taqdim etiladi.

- **Fermerlik uyi (rancho)** – ishlab turgan (amaldagi) fermer xo‘jaligida joylashtirish
- **Flaytel** – sayohat qiluvchilarga bir vaqtning o‘zida ham joylashtirish, ham transport, ham ovqatlantirish xizmatlarini taqdim qiluvchi, samolyot yoki vertolyot shaklidagi, uchib yuradigan mexmonxona.
- **Flotel (kruiz layneri)** – sayohat qiluvchilarga bir vaqtning o‘zida ham joylashtirish, ham transport, ham ovqatlantirish xizmatlarini taqdim qiluvchi, kema shaklidagi, suzib yuradigan mexmonxona.
- **Furgon-uy; turistik karvon; sobit furgon; ko‘chma uy** - asosan sobit turadigan lekin ko‘chirilishi mumkin bo‘lgan furgon uy, ma’lum joyga o‘rnatilgan, ikkinchi uy sifatida sotiladi yoki odatda turistik parkda ta’tilga/ bayramlarga ijaraga beriladi, bunday furgonda joylashtirish va o‘z - o‘ziga xizmat ko‘rsatish uchun sharoitlar ko‘zda tutiladi.
- **Kemping uchun hudud; avtofurgonlar parki; dam olish oromgohi; turistik oromgoh; turistik bog‘** - chodir, turistik furgonlar, ko‘chma avtouylar, ko‘chmas furgonlar, o‘tov, kulba (tog‘ uyi) va bungalolar kabijoylashtirish vositalarining turlarini yoki ular uchun maydonlarni taqdim qiluvchi, markazlashtirilgan ko‘ngilochar va sport uchun sharoitlar, do‘konlar va restoranlarga ega yoki ega bo‘lman, sanitariya - gigiyena qulayliklari mavjud aniq belgilangan hudud.
- **Kulba (tog‘ uyi); bungalo** - o‘z - o‘ziga xizmat ko‘rsatish uchun sharoitlari bo‘lgan alohida turar joy.
- **Lyuks xonali mehmonxona** - faqat lyuks xonalarda joylashtirishni taqdim qiluvchi mehmonxona.
- **Mehmon uyi** – chet mamlakatlarda ko‘pincha qishloq joyda joylashgan, kichik hajmdagi (10ta yotoqga ega bo‘lgan), joylashtirish, ovqatlantirish xizmatlarini taklif etuvchi korxona.
- **Motel** – katta magistral yo‘llar chetlarida joylashgan,

avtoulov haydovchilarini jalb etishga mo‘ljallangan, yaqinida avtoturargohi mavjud hamda avtomobilarga xizmat ko‘rsatish tashkil etilgan mehmonxona.

- **O‘tov** - gumbaz (kubba) shaklidagi, odatda kigiz (namat) bilan qoplangan, vaqtinchalik yashash uchun mo‘ljallangan ko‘chma turar joy.
- **Ovchilar uyi; baliqchi uyi** - ov qilish va/ yoki baliq ovlash xizmatlarini taqdim qilish bilan birga joylashtirish
- **Pansionat** - chet mamlakatlarda ko‘pincha shahardan tashqarida, qishloq joyda joylashgan, odatda ko‘proq vaqtga joylashtirishni taklif qiladigan, xususiy turar joydagi kabi sharoitlarni taklif qiladigan va asosan joylashtirilgan mehmonlarga ovqat taqdim qiladigan korxona. Ba’zi mamlakatlarda «pansion» so‘zi tarif turini anglatish uchun ham ishlatiladi.
- **Qishloq uyi** - odatda shaharcha, qishloq yoki ularning tashqarisida joylashgan, mustaqil, o‘z-o‘ziga xizmat qilish uchun qulayliklari bo‘lgan, mebel bilan jihozlangan joylashtirish vositasi bo‘lib, kop hollarda shu uyda istiqomad qiluvchi oilada joylashtirish xizmatlarini taklif qiladi.
- **Rotel** – sayohat qiluvchilarga bir vaqtning o‘zida ham joylashtirish, ham transport, ham ovqatlantirish xizmatlarini taqdim qiluvchi, avtobus shaklidagi, g‘ildirakli mexmonxona.
- **Sanatoriy** - sog‘lomlashtirishni, asosan tabiiy (iqlim, mineral manbalar, loy - balchiq) va fizioterapevtik vositalar orqali reabilitatsiya qilishni, parhez, rejim va rekreatsiya hamda joylashtirishni taqdim etuvchi korxona.
- **Shahardagi mehmon uyi** - uzoq vaqtga joylashtirishni taqdim qiluvchi shahardagi kichik hajmdagi mehmonxona.
- **SPA - mehmonxona** - SPA-kurortda joylashgan, shaxsiy davolash - sog‘lomlashtirish muolajalariga ega bo‘lgan mehmonxona.

- **Sport bazasi** - sport bilan shug‘ullanish, ko‘ngilochar va jismoniy tarbiya - sog‘lomlashtirish tadbirlari uchun jihozlarni hamda joylashtirish va ovqatlanishni taklif qiluvchi korxona.
- **Tog‘dagi uy (shale)** - tog‘li hududda joylashgan, nazorat qilinadigan yoki qilinmaydigan, turli xildagi anjomlar taklif qilinadigan alohida turar joy.
- **Turistik baza** - shahar tashqarisida joylashgan, odatda maxsus sharoitli joylashtirishni nazarda tutuvchi, joylashgan marshrutni bosib o‘tish uchun zarur bo‘ladigan barcha xizmatlarni ko‘rsatishga ixtisoslashgan turistik korxona.
- **Turistik qishloq** - shahar tashqarisida joylashgan, odatda mahalliy odatlar asosida qurilgan uylarda joylashtirishni nazarda tutuvchi, o‘zining ko‘ngilochar tadbirlari, do‘konlari va ovqatlanish shaxobchalariga ega bo‘lgan qishloq.
- **Kemping** – shahar tashqarisida joylashgan, odatda o‘tov, kulba (tog‘ uyi), bungalo yoki furgonli G‘ildirakli uylarda joylashtirishni nazarda tutuvchi, o‘zining ko‘ngilochar tadbirlari, do‘konlari va restoranlariga ega bo‘lgan turistik korxona.
- **Xususiy uy** - mehmonlarga joylashtirish va ko‘pgina hollarda nonushta taqdim qiladigan xususiy uy.
- **Yig‘ma furgon** - transportda tashishni yengillashtirish uchun qismlarga ajratilishi va yig‘ilishi mumkin bo‘lgan va avtotransport vositasiga tirkab qo‘yiladigan furgon; bunday furgonda joylashtirish va o‘z -o‘ziga xizmat ko‘rsatish uchun sharoitlar ko‘zda tutiladi.
- **Yoshlar mehmonxonasi; xostel** – talabalar yotoqxonasiga o‘xhash bo‘lgan, odatda notijorat tashkilotiga tegishli bo‘lgan, joylashtirish, yoshlarbop taomlanishga va/ yoki o‘z-o‘ziga xizmat qilish qulayliklarini taqdim qiluvchi korxona. Ba’zi mamlakatlarda «yoshlar mehmonxonasi» atamasi yoshlar xosteli xalqaro federatsiyasi (IYHG‘) a’zosi bo‘lgan assotsiatsiyalarga tegishli korxonalarining himoyalangan savdo belgisi hisoblanadi. Odatda

yoshlar mehmonxonalarini (xostellari) ko‘p o‘rinli xonalarda yoki yotoqxonalarda joylashishni taklif qiladilar va ba’zan Yoshlar xostellari xalqaro federatsiyasi tomonidan tan olinadigan milliy assotsiatsiya a’zolariga (alohida shaxslarga, yoki a’zo-tashkilotning guruhlariga), yoki xalqaro xostellar tarmog‘ining qismi bo‘lgan yoshlar xostelida a’zolikni sotib olganlarga ikki o‘rinli yoki oila xonalarini taqdim qiladilar.

- **Yotoqxona** - o‘z - o‘ziga xizmat qilish qulayliklariga ega ko‘p o‘rinli xonalarda joylashtirishni taqdim etuvchi korxona.

Yuqorida keltirilgan ixtisoslashgan joylashtirish vositalari joylashgan joyi, ixtisosligi va ko‘rsatiladigan xizmat turlari bilan bir-biridan farqlanishi yaqqol namoyon bo‘ladi. Mehmonxonalar turlicha bo‘lgani kabi ularagini xonalar ham bir-biridan farqlanadi. Turistlar va mahalliy aholiga xizmat ko‘rsatadigan maxsus va ixtisoslashgan mehmonxonalarining xonalar turlariga quyidagilarni keltirish mumkin:

✓ **Apartament** - uslash va dam olish uchun alohida sharoitlarni, hamda kichik oshxonani taqdim qiluvchi joylashtirishga mo‘ljallangan xona.

✓ **Bir kishilik xona** - bir kishi uxlashi uchun sharoitlari mavjud bo‘lgan xona.

✓ **Bog‘langan xonalar** - ichki eshik bilan bog‘langan, uslash uchun sharoitlari mavjud bo‘lgan xonalar.

✓ **Dupleks** - o‘zaro bog‘langan turli qavatda joylashtirishga mo‘ljallangan xona.

✓ **Ikki o‘rinli xona** - bitta ikki o‘rinli yoki yonma-yon joylashgan ikkita bir o‘rinli yotog‘i bo‘lgan, ikki kishi uxlashi uchun sharoitlari mavjud xona.

✓ **Ikkita alohida o‘rinli xona** - ikkita alohida yotoqda ikki kishi uxlashi uchun sharoitlari mavjud bo‘lgan xona.

✓ **Ko‘p o‘rinli xona** - uch yoki undan ko‘p kishi uxlashi uchun sharoitlari mavjud bo‘lgan xona.

✓ **Ko‘p o‘rinli xona; «dormitori»** - ma’lum bir guruhning tarkibida bo‘lishi yoki bo‘lmasligi mumkin bo‘lgan bir necha kishi uxlashi uchun sharoitlarni taqdim qiluvchi ko‘p o‘rinli xona. Kop hollarda xostellarda va turistik bazalarda mavjud bo‘ladi.

✓ **Lyuks** - uxmlash va dam olish uchun alohida sharoitlarni taqdim qilish bilan joylashtirishga mo‘ljallangan xona.

✓ **Oilaviy xona** - kattalar uchun hech bo‘lmaganda ikkita uxmlash joyi bo‘lgan, uch yoki undan ko‘p kishi uxlashi uchun sharoitlari mavjud bo‘lgan xona yoki bir nechta xonalar majmui.

✓ **Studiya** - bitta xonada kichik oshxonasi ham mavjud bo‘lgan joylashtirishga mo‘ljallangan xona.

✓ **Yarimlyuks** - bir xonada dam olish uchun qo‘srimcha joyi bo‘lgan joylashtirish.

Turistlar va mahalliy aholiga xizmat ko‘rsatadigan maxsus va ixtisoslashgan mehmonxonalarning korsatuvchi xizmatlar majmui tanlangan tariflarga mos tashkil etiladi. Tarif, bir kishiga, ko‘p o‘rinli xonada bir kishiga yoki to‘liq xonaning o‘ziga bo‘lishi mumkinligini mijozlar e’tiborga olishlari kerak. Ovqat turlari va tarkibi farqlanishi mumkin. Quyida joylashtirish vositalaridagi qo‘llaniladigan tariflarni keltirildi:

➤ **Barchasini kamrab olgan** – ovqatlanish hamda ba’zi ichimliklar va ma’lum xizmatlarni o‘z ichiga oluvchi joylashtirish tarifi.

➤ **Faqat joylashtirish** - joylashtirish narxiga ovqatlanish va ichimliklarni o‘z ichiga olmaydigan tarif.

➤ **To‘liq pansion** - nonushta, tushlik va kechki ovqat narxini o‘z ichiga oluvchi joylashtirish tarifi

➤ **Yarim pansion** - nonushta va tushlik yoki kechki ovqat narxini o‘z ichiga oluvchi joylashtirish tarifi.

➤ **Yotoq va nonushta** - nonushta narxini o‘z ichiga oluvchi joylashtirish tarifi.

Turistlar va mahalliy aholiga xizmat ko'rsatadigan maxsus va ixtisoslashgan mehmonxonalarning sanitariya sharoitlari va jihozlarining mavjudligi va holatini aks ettiriladigan tushunchalar ham mavjud:

**«Issiq va sovuq suv bilan ta'minlangan xona»** - xonada sovuq va issiq suvli yuvinish rakovinasi joylashgan xona.

○ **«Hojatxonali xona»** - hojatxonasi mavjud xona.

○ **«Dush yoki vannali xona»** - odatda yuvinish rakovinasiga ega, dush va/ yoki vannasi mavjud xona.

Dush vannaning tarkibiga kirishi mumkin, yani dushni alohida xonada joylashtirish shart emas.

Turistlar va mahalliy aholiga xizmat ko'rsatadigan maxsus va ixtisoslashgan mehmonxonalarning xizmatlariga bir necha turdagilarini keltirish mumkin. Ular asisan mijozlarga ovqatlantirish, dam olishni tashkil etish va shu kabilarni qamrab oladi, jumladan:

**Kontinental nonushta** - kamida non, sariyog‘, mevali qiyom va/yoki murabbo hamda issiq ichimlikdan tashkil topgan nonushta.

**Xilma - xil taomlardan iborat nonushta** - non, mevali qiyom va/ yoki murabbo, salqin ichimliklar, pishloq va/yoki go‘shtli sovuq taomlarning katta xilma - xilligiga ega kontinental nonushta.

**Nonushta - «shved dasturxoni»** - xilma - xil taomlardan iborat nonushtadan kam bo‘lmagan erkin tanlovga ega bo‘lgan holda o‘z - o‘ziga xizmat ko‘rsatish.

**To‘liq nonushta** - issiq va sovuq taomlar bilan to‘ldirilgan xilma- xil taomlardan iborat nonushta. Ba’zi mamlakatlarda bunday nonushta «ingliz nonushtasi» yoki «amerika nonushtasi» deb ataladi.

**Nogironlar uchun vositalar** - imkoniyati cheklangan mehmonlarning maxsus ehtiyojlarini qondirish uchun mo‘ljallangan vositalar.

**Yuk saqlash xonasi** - mehmonlarning yukini saqlash uchun mo‘ljallangan alohida xona.

**Televizorli xona** - mehmonlar televizion dasturlar yoki videofilmlar ko‘rishi uchun mo‘ljallangan umumiy xona yoki joy.

**O‘qish xonasi, qiroatxona** - mehmonlar o‘qishi uchun maxsus mo‘ljallangan alohida ajratilgan xona yoki joy.

**Dam olish xonasi** - mehmonlar dam olishi uchun jihozlangan umumiy xona yoki joy.

**Kutubxona** - mehmonlar ma’lumot olishi uchun yoki vaqtinchalik foydalanishi uchun taqdim qilinadigan kitoblar va/ yoki boshqa axborot vositalari mavjud umumiy xona yoki joy.

**O‘yin xonasi** - mehmonlar uchun o‘yinlar to‘plami bilan jihozlangan umumiy xona yoki joy.

**Bolalar uchun kunduzgi bog‘cha/ yasli** - bolalar mas’ul xodimning kat’iy nazorati ostida bo‘ladigan maxsus xona yoki joy.

**Bolalar o‘yin xonasi** - bolalar o‘yinlari va vaqtichog‘liklari uchun jihozlangan xona yoki joy.

**Hovuz** - suzish uchun maxsus mo‘ljallangan, isitilishi shart bo‘lmagan ochiq yoki yopiq hovuz.

**Jako‘zi** - gidromassaj va isitish uskunasi bor vanna yoki hovuzcha.

**Sauna** – issiq - quruq havoli yog‘och hammom.

**Bug‘li hammom** - issiq bug‘li xona yoki hammom.

**Solyariy** - Tabiiy yoki sun’iy yo‘l bilan toblanish/ qorayish uchun joy. Ba’zi mamlakatlarda «solyariy» atamasi faqat tabiiy quyoshda qorayish uchun mo‘ljallangan joyni anglatadi.

**Fitness xonasi; sportzal** - murabbiy nazorati ostida bo‘lishi shart bo‘lmagan jismoniy mashqlar bilan shug‘ullanish uchun jihozlangan umumiy sport xonasi yoki joy.

**Spa - kurort** - qo‘srimcha ravishda sog‘lomlashtiruvchi muolajalar bilan birga, dengiz yoki iqlimning tabiiy omillarining shifobaxsh xususiyatlarini (masalan mineral chashmalar/ manbalar) qo‘llashga asoslangan tan olingan davolanish kurortlari.

**Avtoturargoh** - avtotransportni qoldirish uchun mo‘ljallangan, quriqlanishi shart bo‘lmagan yopiq yoki ochiq maydon.

**Garaj** - avtomobilarning binodagi turar joyi.

**Havoni haroratini bir xilda saqlash** - markazdan yoki

mustaqil boshqariladigan, havo haroratini nazorat qilishning sun’iy tizimi; havo haroratini bir xilda saqlashning markaziy tizimlarini mehmonlar mustaqil ravishda nazorat qila olmaydilar.

**Kichik oshxona** - oshxonacha yoki o‘z - o‘ziga xizmat ko‘rsatish uchun qulayliklar bilan qisman jihozlangan xonaning qismi.

**Mini – bar** - salqin ichimliklari va ba’zan yengil gazaklari bor bo‘lgan kichkina sovitkich<sup>3</sup>.

Yuqorida tahlildan ko‘rinib turibdiki, mehmonxonaning turidan, unda ko‘rsatiladigan xizmat turlaridan mijozlar va ularning hohishlariga qaratilgan siyosatdan turizm sohasining butun dunyoda juda katta ahamiyatga egaligi to‘g‘risida xulosa chiqarish mumkin. Barcha mamlakatlar, barcha turistik destinasiyalar, turizm sohasida faoliyat ko‘rsatuvchi xodimlar turistlarning diqqatini jalg qilishga va ularning barcha ehtiyojlarini qondirishga bor kuch-g‘ayratini sarflamoqdalar. O‘z uyida yoki turistik firmada o‘tirib sayohat yo‘nalishini, turizm turini va xizmatlar majmuasini tanlayotgan insonlarning barcha istaklariga mos keluvchi turpaketni tanlash hozirgi kunda muammo bo‘lmay qolgan.

## **1.5. O‘zbekiston Respublikasida bolalar va yoshlar oromgohlari bo‘yicha davlat standarti<sup>4</sup> ning mazmuni va mohiyati**

Bolalar va o‘smirlarga turistik xizmatlarni ko‘rsatishda o‘ziga xos yondashuv talab etiladi, chunki ular joylashish, ovqatlanish va transport xizmatlarini iste’mol qilayotganda bir qator cheklov va imtiyozlarga ega bo‘lishadi. Bu cheklov va imtiyozlar qo‘yidagi atamalarda o‘z aksini topadi:

---

<sup>3</sup> O‘z DST ISO 182513:2017. Turizm xizmatlari. Mehmonxona va turistlarni joylashtirish vositalarining boshqa turlari. Atamashunoslik. O‘zbekiston Respubliksi Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi. Toshkent.

<sup>4</sup> Turistik xizmatlar. Joylashtirish vositalari. Bolalar va yoshlar oromgohlari klassifikatsiyasi. Samarqand. O‘zstandart agentligi. 2016

- **Bolalar oromgohi** – bolalarning (7-14 yoshli) dam olish va sog‘lomlashtirish maqsadida, vaqtinchalik joylashuv vositasi.
- **Yoshlar oromgohi** – yoshlarning (15-29 yoshli) dam olish va sog‘lomlashtirish maqsadidagi vaqtinchalik joylashuv vositasi.
- **Bolalar va yoshlar oromgohlari kategoriysi** – ma’lum bir talablar majmuasini ifodalaydigan tasniflangan guruhlash tizimi.
- **Bolalar oromgohlarida dam oluvchi** – 7-14 yoshdagisi, tahsil oladigan, 14-21 kun muddatga oromgohlarda dam olish maqsadida kelgan bolalar.
- **Yoshlar oromgohida dam oluvchi** – 15-29 yoshdagisi, maktab, kasb-hunar kolleji, akademik litsey, oliy o‘quv yurtlari tarbiyalanuvchilari bo‘lgan, 7-21 kun muddatlarga oromgohga turistik maqsadlarda kelgan yoshlar.
- **Bolalar va yoshlar oromgohlari xizmatlari** – mehmonxona (joylashtirish xizmatlari), ixtisoslashgan (sog‘lomlashtirish, sanitar, sport, turistik, ta’lim va boshqa xizmatlar), ovqatlanish va pedagogik xizmatlar.
- **Oromgoh hodimlari** – oromgohda xizmat ko‘rsatish bilan band bo‘lgan boshqaruva apparati, pedagog kadrlar (tarbiyachi va yetakchilar), tibbiyat xodimlari, xavfsizlikni ta’minlovchi xodimlar, ovqatlanish xizmatlarini ko‘rsatuvchi xodimlar, sanitar-texnik xizmat xodimlari.

Bolalar va yoshlar oromgohlarini tasniflash daraja bilan belgilanadi. Belgilar soni xizmat ko‘rsatish darajasining ortishi bilan bog‘liq bo‘ladi. Bolalar oromgohlarining yuqori toifasi 3 daraja bo‘lib, past darajasi 1 darajani ifodalaydi.

Bolalar va yoshlar oromgohlarining tasniflanishi quyidagi talablar majmuasiga asoslanadi: moddiy - texnik ta’minot; ko‘rsatilayotgan xizmatlar nomenklaturasi va sifati; xizmat ko‘rsatish darajasi.

Sig‘imi bo‘yicha bolalar va yoshlar oromgohlari 80 o‘rindan 1200 o‘ringacha turlarga bo‘linadi. Bolalar va yoshlar oromgohlari

mavsumiy yoki yil davomida faoliyat ko'rsatuvchi bo'lishi mumkin. Yil davomida faoliyat ko'rsatuvchi oromgohlar mavsumdan tashqari vaqtida dam olish maskanlari yoki turbazalar ko'rinishiga faoliyat ko'rsatishi mumkinligini hisobga olgan holda loyihalashtirilishi lozim. Bolalar va yoshlar oromgohlari tasnifi ma'lum bir toifaga mansubligini belgilovchi minimal darajadagi talablarni o'zida aks ettiradi.

Bolalar oromgohlarida rekreatsion faoliyat dam oluvchi bolalar yosh va qiziqishlar nuqtai nazaridan ajratilib shakllantirilgan guruhlar ko'rinishida tashkil etiladi: 10-14 yoshdagi bolalarda bitta guruhda 40 kishigacha, 7-9 yoshli bolalarda 30 kishigacha.

Bolalar oromgohlarida dam olish muddatlarining davomiyligi:

a) sog'lomlashtiruvchi oromgohlarda – dam olish, sog'lomlashtirish va chiniqtirish muolajalarini hisobga olgan holda 21 kundan kam bo'lmagan muddatga bolalarni qabul qiluvchi oromgohlar.

b) davolovchi oromgohlarda - dam olish, sog'lomlashtirish, chiniqtirish va davolash - profilaktika muolajalarini hisobga olgan holda 21 kundan kam bo'lmagan muddatga.

c) dam olish oromgohlarda - dam olish va chiniqtirish muolajalarini hisobga olgan holda 21 kundan kam bo'lmagan muddatga bolalarni qabul qiluvchi oromgohlar.

d) mavsumiy oromgohlarda - kuzgi, qishqi, bahorgi ta'tillar vaqtida 7 kundan kam bo'lmagan muddatga bolalarni qabul qiluvchi oromgohlar.

Barcha toifadagi bolalar va yoshlar oromgohlari kerakli yo'1 belgilari mavjud bo'lган qulay transport yo'llariga, yaxshi joylashgan va yoritilgan hududga, korxonalarining nomi va toifasi aniq ko'rsatilgan peshtaxta yozuviga ega bo'lishi, qulay ekologik sharoitlarda joylashishi, o'z yer uchastkasiga ega bo'lishi kerak. Mazkur yer uchastkasi quruq, toza, havo almashib turadigan, o'simliklar bilan qoplangan, turar joylariga yaqin, suv va elektr ta'minoti mavjud bo'lishi kerak.

Bolalar va yoshlar oromgohlari shamollar oqimi, shovqindan va ifloslangan xavo hamda suv anbalaridan uzoqroqdajoylashtirish kerak. Bolalar oromgohlari kattalar dam olishi uchun mo‘ljallangan dam olish maskanlaridan 100 m. kenglikdagi yashil ekinzorlar to‘sig‘i bilan ajratilishi hamda turli toifadagi ob’ektlar hamda bolalar va yoshlar oromgohlari o‘rtasida sanitар-himoya oralig‘i o‘lchami quyidagi talablarga muvofiq bo‘lishi kerak:

- Ommaviy dam olish joyigacha – 500 m.dan kam bo‘lмаган;
- I, II, III va IV toifali avtoulov yo‘llarigacha - 500 m.dan kam bo‘lмаган;
- Poyezdlar serqatnov bo‘lgan temir yo‘llargacha - 1000 m.dan kam bo‘lмаган;
- Kommunal - omborxona hududlarigacha - 500 m.dan kam bo‘lмаган;
- Zararlik darajasiga bog‘liq ravishda sanoat korxonalarigacha – 1000 m.dan 3000 m.dan kam bo‘lмаган.

Bolalar va yoshlar oromgohlarida joylashish vaqtida mehmonlarning hayoti va sog‘lig‘iga hamda ularning mulki xavfsizligi ta‘minlanishi kerak. Oromgohda ham odatiy, ham favqulotda vaziyatlarda mehmonlarning bemalol harakatlanishini ta‘minlaydigan axborotli ko‘rsatkichlar, avariya holatidagi harakatlanish yo‘laklari yaxshi jihozlangan bo‘lishi kerak.

Bolalar va yoshlar oromgohlariga tegishli hudud 1 o‘ringa 150 – 200 m<sup>2</sup> hisobiga shakllantirilishi hamda oromgoh yong‘inga qarshi himoya tizimlari, yong‘in xavfsizligi qoidalarida ko‘rsatilgan himoya qilish va ogohlantirish vositalari bilan jihozlanish kerak.

Oromgoh jismoniy imkoniyatlari ma’lum darajada cheklangan insonlarni qabul qilishga ham moslashtirilishi, oromgoh hududi obodonlashtirilgan va ko‘kalamlashtirilgan bo‘lishi, ekiladigan darxtlar va o‘simliklarning dam oluvchilar sog‘ligiga ziyon etkazmaydigan va xavf - xatar tug‘dirmaydigan turlaridan tanlanishi, qattiq qoplamali yo‘laklarda axlat tashlashga mo‘ljallangan uskunalar mavjud bo‘lishi (har 15-20 m masofada) va ular har kuni

tozalanishini nazorat qilishini ta'minlash, xavfsizlik ta'minlanishi maqsadida quriqlash tizimini (kuzatuv kameralari, darvoza yonida qorovullar navbatchiligi, qo'tqaruvchilar xizmati) tashkil etish, maishiy xizmat ko'rsatish xonalari kamida  $6\text{ m}^2$  dan kam bo'lmasligi, kunduzgi smenada ishlaydigan har bir xodimga kamida  $2\text{m}^2$  hisobidan loyihalashtirilishi shart.

Bolalar va yoshlар oromgohlarining ko'kalamlashtirilgan hududi umumiy hajmining 60%dan kam bo'lmasligi kerak. Oromgoh hududini 1,5 m balandlikdagi devor bilan ajratilishi va xavf-xatardan ximoya qilinishi ta'minlash, joylashuv xonalari oromgoh turi va toifasiga qarab loyihalashtirilishi shart (xonada joylashtirilishi rejaliashtirilayotgan joylar soniga nisbatan  $1\text{m}^2$  hisobidan). Bu yerda 1ta joylashuvchiga  $4\text{ m}^2$  kam bo'lmasligi zarur.

Jismoniy tarbiya va sog'lomlashtirish inshootlari albatta loyihalashtirilishi shart. Ochiq yoki yopiq turdagи inshootlar qo'riliши oromgochlarning xususiyatlaridan kelib chiqqan holda amalgamga oshirilishi, oromgohda xonalar tozaligi, sанtexnik uskunalar ishlashi, axlatlarni chiqarish va xasharotlardan samarali himoya qilish sohasida sanitariya - epidemiologiya nazorat organlari tomonidan belgilangan sanitariya - gigiyena me'yor va qoidalarga rioya qilishi kerak. Joylashuv binolaridagi yo'laklar va xoll qismida qiyin yonadigan va tutun chiqarmaydigan, toksik zaharlanish xavfi kam bo'lган gilamlar ishlatilishi talab etiladi.

Xizmat ko'rsatish va xo'jalik xonalariga hodimlar uchun garderobler, hojatxonalar va dushxonalar, yig'ishtirish asboblarini tekshirish va tozalash xonasi, yig'ishtirish uskunalarining omborxonasi, uslubchilar va trenerlar uchun hamda qutqaruvchilar xizmati uchun xonalar kiritilishi shart. Xodimlar uchun hojatxonalar quyidagi hisobdan loyihalashtirilishi shart: 12ta ayol kishiga 1ta unitaz, 18ta erkakga 1ta pissuar; 15-20 kishiga 1ta dush kabinasi.

Yotoq jildlari sifati, miqdori va zaxirasi oromgohning xizmat ko'rsatish sig'imiga mos kelishi va kamida 3 marta almashtirilishiga mos kelishi shart. Barcha elektrik, gaz, suv va oqova uskunalarini

«Mehmonxonalar va ularning uskunalarini texnik ekspluatatsiya qilish qoidalari»ga muvofiq o‘rnatilishi va ishlatalishi kerak.

Bolalar va yoshlar oromgohlari quyidagi muhandislik tizimlari va uskunalari bilan jihozlanishi shart: sovuq va issiq suv ta’minoti (kun davomida); suv ta’minotida uzilishlar bo‘ladigan hududlarda bir kunga yetadigan minimal darajadagi suv zahirasi uchun idish bo‘lishi kerak; kanalizatsiya (oqova suv chiqish yo‘llari); xonalarda 18.5 S dan past bo‘lmagan haroratni ta’minlovchi isitish vositasi; havoning me’yoriy aylanishini ta’minlaydigan va xonalarga begona xidlarning kirishini oldini oluvchi ventilyatsiya (tabiiy, sun’iy); radio va teleko‘rsatuvsalar ta’minoti; telefon aloqasi (ham ichki, ham tashqi); xonalarda yoritish vositalari: tabiiy (har bir xonada kamida 1ta deraza); notabiiy (yoritish vositalari yordamida – 100 LKdan 200 LKgacha); yo‘laklarda – kun davomida tabiiy va notabiiy yoritish.

Bolalar va yoshlar oromgohlarida faoliyat ko‘rsatuvchi xodimlar belgilangan tartibda tibbiy ko‘rikdan o‘tishlari hamda tibbiy kitobchalarga ega bo‘lishlari shart.

***Barcha turdagи bolalar va yoshlar oromgohlarida ovqatlanish xizmatlari.*** Mavsum ochilishi davrigacha ixtisoslashgan korxonalar bilan oziq-ovqat mahsulotlarini yetkazish bo‘yicha shartnomalar tuzishlari shart. Go‘sht mahsulotlari veterinar xizmatlar tomonidan sifat belgisini bildiruvchi sertifikatga ega bo‘lgan fermerlik xo‘jaliklari yoki ta’minot korxonalari, tuxum va parranda go‘shti mahsulotlarini faqat parranda boquvchi korxonalardan, meva va sabzavotlar kimyoviy tarkibi tekshirilgan mahsulotga ega bo‘lgan fermer xo‘jaliklaridan olib kelinishi kerak.

Bolalar va yoshlarni ovqatlantirishni tashkil etishda sanitariya qoidalarga muvofiqligini tasdiqlovchi sanitariya-epidemiologik xulosaga ega bolalar oromgohlari uchun namunaviy menyuga asoslaniladi.

Menyuni ishlab chiqishda bir nomdagi taomlar 2 kun takrorlanmasligi kerak. Bolalar va yoshlar oromgohlarida 4 marotaba ovqatlanish tartibi amalga oshiriladi. Kunlik ovqatlanish ratsionini

quyidagicha taksimoti amal qilishi maqsadga muvofiq: nonushta – 25%, tushlik – 35%, tushdagi ovqatlanish – 15%, kechki ovqatlanish – 20% va kefir – 5%.

Bolalar va yoshlar ovqatlanayotganda turli *infektion kasalliklarni oldini olish* uchun quyidagilar amalga oshiriladi:

A) ishlatilmaydi: oldingi ovqatlanish vaqtida tayyorlangan ovqat; qaynatilmagan sut; tvorog va qaymoq; ishlov berilmagan baliq; veterinariya nazoratidan o‘tmagan go‘sht; suvda suzuvchi parrandaning tuxumi va go‘shti; qo‘ziqorin; uyda tayyorlangan marinadlangan mahsulotlar; tomatda konservalangan mahsulotlar.

B) tayyorlanmaydi: tvorog; go‘shtli farsh bilan tayyorlangan makaronlar, go‘shtli quymoqlar, pashtetlar, yaxni gazaklar; krem, kreml pishiriqlar; frityulda pishirilgan taomlar.

C) kiritilmaydi: achchiq qaylalar, gorchitsa, qalampir, sirka kislotasi, kofe.

Alyumindan tayyorlangan idishlar faqat taom tayyorlanayotganda ishlatilishi mumkin. Ushbu idishlarni taomni saqlashda ishlatish man etiladi. Fayans, farfor, zanglamaydigan po‘latdan yasalgan oshxona anjomlari ishlatilishi zarur. Chetlari kamtilgan yoki darz ketgan idishlar, shuningdek emal qatlamiga zarar yetkazilgan idishlarni ishlatish mumkin emas. Ovqatlanish xizmati bo‘limining jihozlanishi, ishlatilishi va tarkibiga talablar umumiy ovqatlanish korxonalari uchun sanitariya qoidalarga muvofiq bo‘lishi kerak.

Oshxonada ovqatlanishdan oldin stollarni servirovka qilinayotganda bolalar va yoshlar navbatchilikda turishi barcha shart-sharoitlarni inobatga olish maqsadga muvofiq bo‘lib, bolalar va yoshlarning navbatchilikda turishi ko‘ngilli bo‘lishi shart. Shuningdek, bolalar va yoshlarni «avtomatik xizmatchilar»ga aylantirmasdan menyuni, mahsulotlarni, quvvatini diyetani muhokama qilishga jalb qilish. Ammo bu faoliyat ma’ruza ko‘rinishida bo‘lmasligi va bolalarni qiziqtirishi kerak.

Ovqatlanish vaqtida ovqatlanish xonalarida devorlar tinch ranglarda bo‘lishi kerak. misol uchun, yashil, oq va to‘q sariq ranglar aralashmasi, devorlarda turli chiroyli rasmlar ilinishi, tinch musiqa sadolari jaranglashi, oshxonada yuqori shiftlar va ko‘proq yorug‘likni kirituvchi katta derazalar bo‘lishi maqsadga muvofiq.

*Xonalarning qo‘laylik darajasi* xonadagi joylar soni, bitta o‘ringa to‘g‘ri keluvchi maydon, kerakli sanitariyaiya-texnologik jihozlanishiga bog‘liq: 1 razryad - sanitariyaiya-texnologik jihozlanishining to‘liq to‘plami; 2 razryad – qisqartirilgan to‘plam (dush, umivalnik, unitaz), 2ta yotoq xonasiga bitta umumiy tashkil etish; 3 razryad - qisqartirilgan to‘plam (dush, umivalnik, unitaz), bir nechta yotoq xonasiga bitta umumiy sanitariyaiya bo‘limi; 4 razryad – blokga, bo‘limga yoki qavatga umumiy sanitariyaiya bo‘limi; yotoqxonalar joylashgan binodan 75 metr uzoqlikdan oshmagan masofada joylashtirilgan umumiy sanitariyaiya bo‘limi. Xonadagi jihozlari chang, loy va qum to‘planishiga yordam bermasligi kerak. Barcha jihozlar bolalarga lat yetkazmaydigan, o‘tkir burchaklarsiz bo‘lishi kerak. Xonaga kirishda oyoq kiyimlarni qoldirish, almashtirish va saqlash imkonini beruvchi shkaflar bo‘lishi kerak. Yotoqxonalarda televizor bo‘lishi mumkin emas. Kir yuvish xizmatining bepul tashkil etganligi yoki ichki kiyimlarni yuvishlari va quritishlari uchun shart-sharoitlarning mavjud bo‘lishi kerak.

*Hojatxona va dush xonalarga talablar.* Xonalar ichida hojatxona bo‘lishi, yoki korpusda bir necha xonalarga umumiy hojatxona, dush xonalar xona ichida bo‘lishi, yoki korpusda bir necha xonalarga umumiy dushxona, albatta qizlar va o‘g‘il bolalarga alohida tashkil etish kerak.

Dush xonalar sovuq va issiq suv bilan ta’minlangan bo‘lishi, hojatxona va dushxonalarlardagi barcha buyumlar o‘tkir burchaklarga ega bo‘lmaslii, dush xonalarda suvning yoyilib ketmasligi ta’minlanishi kerak.

Hojatxona va dushxonalar har kuni yig‘ishtirilishi, yetakchilar va xizmat ko‘rsatish xodimlari uchun alohida hojatxona bo‘lishi,

oromgoh chegarasida qo'shimcha hojatxonalarini tashkil etish, yashash binolari bilan orasida kamida 25 metr, qul yuvish uchun jihozlarning mavjud bo'lishini ta'minlash shart hamda oshxona yaqinida bir nechta hojatxona joylashishi maqsadga muvofiq.

*Oromgohlarning infratuzilmasiga talablar.* Bolalar va yoshlar oromgohlariда bitta o'ringa 20 kv. m.dan kam bo'limgan miqdorda jismoniy tarbiya va sog'lomlashtirish inshootlari tashkil etish kerak. Ushbu inshootlarga barcha turdag'i oromgohlarda majburiy hisoblangan inshootlar va maydonchalar, shuningdek oromgohlarning ixtisoslashuviga bog'liq ravishda qo'shimcha inshootlar kiritiladi.

Oromgoh hududida badantarbiya va majlislar uchun maydoncha, voleybol, basketbol, futbol, tennis uchun ochiq sport maydonlari, uzunlikga sakrash uchun maydonchalar, turli sport - ko'ngilochar inventarlar mavjud maydonchalar, fitnes yoki aerobika bilan shug'ullanish maydoni, engil atletika bilan shug'ullanish maydoni, minbar va yechinish xonalar bor bo'lgan stadion bo'lishi kerak.

Sport ob'ektlari atrofida kiyimlarini almashtirish joyi, dush qabul qilish yoki yuvinish uchun joylar, hojatxonalar bo'lishi kerak.

Sport maydonchalari futbol maydonining maxsus yashil maysalar bilan qoplanishi, uzunlikga va balandlikga saqrashga mo'ljallangan maydonchaning qumi har 5 kunda elakdan o'tkazilishi va tozalanishi kerak, uzunlikga va balandlikga saqrashga mo'ljallangan maydonchaning artofi bolalarni shikastlashidan himoya qilishi maqsadida rezina yoki boshqa xavfsiz uskunalar bilan qoplanishi kerak, maydonchalar atrofida texnik xavfsizlik qoidalari ifodllangan stendlar o'rnatilishi kerak.

Suv havzasi atrofida «hojatxona - yechinish xonasi-dushxona-basseyn» tizimining faoliyati mavjudligi, suv havzasi atrofida aylanib o'tish yo'lining mavjudligi (kengligi 0.5-1.5 m., basseyin sathidan pastlash xususiyatiga ega bo'lishi kerak), suv havzasining ichi och ranglarda buyalgan bo'lishi kerak, xavfsizlik nuqtai nazardan

basseyinning ichki qismida uzun o'shlagichlar o'rnatilishi kerak, xavfsizlik ta'minlanishi maqsadida yuza qismi silliq bo'lishi va sirpanchiq bo'lmasligi kerak, yig'ishtirish ishlari har kuni amalgalashiriladi, suvni to'liq almashtirish oromgoh toifasiga bog'liq ravishda 1ta smenada 1 martadan kam bo'limgan holda amalgalashirilishi kerak.

Turizm uchun maxsus maydoncha bo'lishi va quyidagilardan iborat: gulxan uchun joy; palatkalar uchun joy; turistik «to'siq»lar yoki ko'ngilochar joy.

Oromgohda quyidagilar bo'lishi kerak: oromgoh hududining sxematik tasviri; ob-havo, sana va vaqtini ko'rsatuvchi elektron tablo; videokameralar (xavfsizlik va nazorat); qo'riqlash xizmati ob'ektlari.

***Barcha turdag'i bolalar oromgohlarida joylashuv xizmatlariga bo'lgan talablar.*** Bolalar oromgohlarda guruhlar bo'yicha xonalarda yoki koruslarda joylashtiriladi. Qizlar xonasi bilan o'g'il bolalar xonasi alohida bo'lishi, shu bilan birga turli qavatlarda yoki korpuslarda bo'lishi kerak.

- a) har bir xona quyidagilar bilan jihozlanishi shart: ortopedik matrasli krovatlar, 12 yoshdan kichik bolalarga bir yarusli krovatlar bo'lishi;
- b) shahsiy buyumlar turuvchi javonlar bo'lishi;
- c) oina bo'lishi;
- d) kiyimlarni ilish va tahlab quyish mumkin bo'lgan shkaflarning bo'lishi;
- e) xonada joylashadigan bolalar soniga nisbatan teng keluvchi stul va stol bo'lishi;
- f) yuvish mumkin bo'lgan gilamlar bo'lishi;
- g) derazada pashshalarga qarshi to'siqning bo'lishi.

Bitta binoda yoki alohida blokda 4tadan ortiq guruhlar joylashtirilmasligi kerak. Har bir guruhning xonasi tashqariga chiquvchi alohida chiqish eshidigiga ega bo'lishi kerak. Yotoqxonalar joylashgan binolarda 2ta guruh joylashtirilganda ularning o'rtasida izolyatsiya mavjud bo'lishi kerak. Xonalarda 10-14 yoshli bolalar

5stadan ortiq, 7-9 yoshli bolalar 10dan ortiq joylashtirilmasligi kerak. Yozgi pavilonlarda bolalarning 12-20 kishi, yozgi verandalarda 30-40 kishi bo‘lib joylashishi mumkin. Bolalar oromgohlari nam yig‘ishtirish usulida, ochiq derazalar sharoitida yig‘ishtiriladi. Yotoqxona xonalari kuniga 2 marotaba (tungi va kunduzgi uyqudan so‘ng) 10 yoshdan katta bolalar tomonidan, 10 yoshdan kichik guruhlarda texnik hodimlar tomonidan yig‘ishtiriladi. Bolalar dam olishga tashrif buyurguncha va smena ohirida texnik hodimlar tomonidan katta yig‘ishtirish ishlari amalga oshiriladi. Yoshi kichik guruhlar joylashadigan xonalarda elektr uskunalardan foydalanish imkoniyatlarini cheklash. Kichik guruhlarni bir necha xonali xonalarga joylashtirish hamda bitta xonada yetakchining joylashishi maqsadga muvofiq.

**Yoshlar oromgohlariga umumiy talablar.** Yoshlar oromgohlariada dam olish muddatlarining davomiyligi:

- a) sog‘lomlashtiruvchi oromgohlarda – dam olish, sog‘lomlashtirish va chiniqtirish muolajalarini hisobga olgan holda 21 kundan kam bo‘lmagan muddatga yoshlarni qabul qiladigan.
- b) davolovchi oromgohlarda - dam olish, sog‘lomlashtirish, chiniqtirish va davolash - profilaktika muolajalarini hisobga olgan holda 21 kundan kam bo‘lmagan muddatga yoshlarni qabul qiladigan.
- c) dam olish oromgohlarda - dam olish va chiniqtirish muolajalarini hisobga olgan holda 21 kundan kam bo‘lmagan muddatga yoshlarni qabul qiladigan.
- d) mavsumiy oromgohlarda - kuzgi, qishqi, bahorgi ta’tillar vaqtida 7 kundan kam bo‘lmagan muddatga yoshlarni qabul qiladigan.
- e) ixtisoslashgan oromgohlarda - ma’lum bir faoliyat turiga ixtisoslashgan holda 21 kundan kam bo‘lmagan muddatga yoshlarni qabul qiladigan.

## **1.6. O‘zbekiston Respublikasida sanatoriy va dam olish uylari xizmatlari bo‘yicha davlat standarti<sup>5</sup>ning mazmuni va mohiyati**

Tibbiy, davolovchi, rekreatsion turistik xizmatlarni ko‘rsatishda o‘ziga xos yondashuv talab etiladi, chunki ular joylashish, ovqatlanish va transport xizmatlarini iste’mol qilayotganda bir qator cheklov va imtiyozlarga ega bo‘lishadi. Bu cheklov va imtiyozlar qo‘yidagi atamalarda o‘z aksini topadi:

**Sanatoriy:** tabiiy iqlim, mineral suvlar, davolovchi loy, shifobaxsh o‘simliklar hamda fizioterapevtik vositalarni qo‘llagan holda sanator-sog‘lomlashtirish va rekreatsion xizmatlar majmuasini taklif etish bilan birqalikda joylashuv vositasi sifatida foydalanuvchi korxona.

**Sanator-davolovchi xizmatlar:** turli kasalliklarning o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda davolovchi muolajalarni ko‘rsatish xizmatlari.

**Rekreatsion xizmatlar:** dam olish, joylashtirish, ovqatlanish va ko‘ngilochish xizmatlar majmui.

**Dam olish uylari:** insonning jismoniy kuch va sog‘lig‘ini tiklash va rivojlantirishga ko‘maklashuvchi, turistlarning ma’naviy va boshqa ehtiyojlarni qondirishga mo‘ljallangan qulay tabiiy hududda, infratuzilma va turistik ob’ektlarga ega korxona.

***Sanatoriy va dam olish uylari xizmatlariga qo‘yiladigan umumiy talablar.*** Sanatoriy va dam olish uylari kerakli yo‘l belgilari mavjud bo‘lgan qulay transport yo‘llariga, yaxshi joylashgan va yoritilgan hududga, korxonalarining nomi va toifasi aniq ko‘rsatilgan peshtaxta yozuviga ega bo‘lishi kerak. Sanatoriylar tasnifi ma’lum bir toifaga mansubligini belgilovchi minimal darajadagi talablarni o‘zida aks ettiradi. Sanatoriy va dam olish uylari qulay ekologik sharoitlarda

---

<sup>5</sup> Turistik xizmatlar. Joylashuv vositalari. Sanatoriy va dam olish uylari xizmatlariga umumiy talablar. Samarqand. “o‘zstandart” mk. 2016

joylashishi kerak. Sanatoriy va dam olish uylari o‘z yer uchastkasiga ega bo‘lishi kerak. Mazkur yer uchastkasi quruq, toza, havo almashib turadigan, o‘simliklar bilan qoplangan, turar joylariga yaqin, suv va elektr ta’minoti mavjud bo‘lishi kerak. Sanatoriy va dam olish uylari shamollar oqimi, shovqindan va ifloslangan xavo hamda suv anbalaridan uzoqroqdajoylashtirish kerak. Sanatoriy va dam olish uylari kattalar dam olishi uchun mo‘ljallangan dam olish maskanlaridan 100 m kenglikdagi yashil ekinzorlar to‘sig‘i bilan ajratilishi kerak.

Turli toifadagi ob’ektlar hamda sanatoriy va dam olish uylari o‘rtasida sanitariya-himoya oralig‘i o‘lchami quyidagi talablariga muvofiq bo‘lishi kerak:

- Ommaviy dam olish joyigacha – 500 m.dan kam bo‘lmagan;
- I, II, III va IV toifali avtoulov yo‘llarigcha - 500 m.dan kam bo‘lmagan;
- Poyezdlar serqatnov bo‘lgan temir yo‘llargacha - 1000 m.dan kam bo‘lmagan;
- Kommunal-omborxona hududlarigacha - 500 m.dan kam bo‘lmagan;
- Zararlik darajasiga bog‘liq ravishda sanoat korxonalarigacha – 1000 m.dan 3000 m.dan kam bo‘lmagan.

Sanatoriy va dam olish uylarida joylashish vaqtida mehmonlarning hayoti va sog‘lig‘iga hamda ularning mulki xavfsizligi ta’milanishi kerak. Sanatoriy va dam olish uylarida ham odatiy, ham favqulotda vaziyatlarda mehmonlarning bemalol harakatlanishini ta’minlaydigan axborotli ko‘rsatkichlar, avariya holatidagi harakatlanish yo‘laklari yaxshi jihozlangan bo‘lishi kerak. Sanatoriy va dam olish uylari yong‘inga qarshi himoya tizimlari, yong‘in xavfsizligi qoidalarida ko‘rsatilgan himoya qilish va ogohlantirish vositalari bilan jihozlanish kerak.

Sanatoriy va dam olish uylari jismoniy imkoniyatlari ma’lum darajada cheklangan insonlarni qabul qilishga ham moslashtirilishi

shart. Sanatoriy va dam olish uylarida xonalar tozaligi, santexnik uskunalar ishlashi, axlatlarni chiqarish va xasharotlardan samarali himoya qilish sohasida sanitariya-epidemiologik nazorat organlari tomonidan belgilangan sanitariya-gigiyenik me'yor va qoidalarga rioya qilishi kerak. Sanatoriy va dam olish uylarining ko'kalamlashtirilgan hududi umumiy hajmining 60%dan kam bo'lmasligi kerak.

Barcha elektrik, gaz, suv va oqova uskunalarini «Mehmonxonalar va ularning uskunalarini texnik ekspluatatsiya qilish qoidalari»ga muvofiq o'rnatilishi va ishlatilishi kerak. Sanatoriy va dam olish uylarilari quyidagi muhandislik tizimlari va uskunalarini bilan jihozlanishi shart:

- sovuq va issiq suv ta'minoti (kun davomida);
- suv ta'minotida uzilishlar bo'ladigan hududlarda bir kunga yetadigan minimal darajadagi suv zahirasi uchun idish bo'lishi kerak;
- kanalizatsiya (oqova suv chiqish yo'llari);
- xonalarda 18.5 s dan past bo'limgan haroratni ta'minlovchi isitish vositasi;
- havoning me'yoriy aylanishini ta'minlaydigan va xonalarga begona xidlarning kirishini oldini oluvchi ventilyatsiya (tabiiy, sun'iy);
- radio va teleko'rsatuvsalar ta'minoti;
- telefon aloqasi (ham ichki, ham tashqi);
- xonalarda yoritish vositalari: tabiiy (har bir xonada kamida 1ta deraza); notabiiy (yoritish vositalari yordamida – 100 LKdan 200 LKgacha); yo'laklarda – kun davomida tabiiy va notabiiy yoritish.

Yangi sanatoriy va dam olish uylarilarni loyihalaganda va eski sanatoriy va dam olish uylarni rekonstruksiya qilganda nogironlarni qabul qilish va joylashtirish sharoitlarni inobatga olish kerak. Sanatoriy va dam olish uylari hududida qattiq qoplamlali yo'laklarda axlat tashlashga mo'ljallangan uskunalar mavjud bo'lishi (har 15-20 m masofada) va ular har kuni tozalanishini nazorat qilishini ta'minlash shart. Sanatoriy va dam olish uylari hududini 1.5 m

balandlikdagi devor bilan ajratilishi va xavf - xatardan ximoya qilinishi ta'minlash zarur.

Sanatoriy va dam olish uylari hududida xavfsizlik ta'minlanishi maqsadida quriqlash tizimini (kuzatuv kameralari, darvoza yonida qorovullar navbatchiligi, qo'tqaruvchilar xizmati) tashkil etish shart. Joylashuv xonalari sanatoriy va dam olish uylari turi va toifasiga qarab loyihalashtirilishi shart (xonada joylashtirilishi rejallashtirilayotgan joylar soniga nisbatan 1m<sup>2</sup> hisobidan). Bu yerda 1ta joylashuvchiga 4 m<sup>2</sup> kam bo'lmasligi kerak.

Jismoniy tarbiya va sog'lomlashtirish inshootlari albatta loyihalashtirilishi shart. Ochiq yoki yopiq turdag'i inshootlar qo'riliishi sanatoriy va dam olish uylarilarning xususiyatlaridan kelib chiqqan holda amalga oshirilishi kerak. Sanatoriy va dam olish uylarida xonalar tozaligi, santexnik uskunalar ishlashi, axlatlarni chiqarish va xasharotlardan samarali himoya qilish sohasida sanitariya-epidemiologik nazorat organlari tomonidan belgilangan sanitariya-gigiyenik me'yor va qoidalarga rioya qilishi kerak. Joylashuv binolaridagi yo'laklar va xoll qismida qiyin yonadigan va tutun chiqarmaydigan, toksik zaharlanish xavfi kam bo'lgan gilamlar ishlatilishi talab etiladi.

Maishiy xizmat ko'rsatish xonalari kamida 6m<sup>2</sup>dan kam bo'lmasligi, kunduzgi smenada ishlaydigan har bir xodimga kamida 2m<sup>2</sup> hisobidan loyihalashtirilishi shart. Xizmat ko'rsatish va xo'jalik xonalariga xodimlar uchun garderoblar, hojatxonalar va dushxonalar, yig'ishtirish asboblarini tekshirish va tozalash xonasi, yig'ishtirish uskunalarining omborxonasi, uslubchilar va trenerlar uchun hamda qutqaruvchilar xizmati uchun xonalar kiritilishi shart.

Xodimlar uchun hojatxonalar quyidagi hisobdan loyihalashtirilishi shart: 12ta ayol kishiga 1ta unitaz, 18ta erkakga 1ta pissuar; 15 - 20 kishiga 1ta dush kabinasi. Yotoq jildlari sifati, miqdori va zaxirasi oromgohning xizmat ko'rsatish sig'imiga mos kelishi va kamida 3 marta almashtirilishiga mos kelishi shart.

Administrativ binolar, maishiy xizmat ko'rsatish binolari joylashuv hududida joylashtirish maqsadga muvofiq. Qabul qilish bo'limini joylashtirish xizmati bo'limi yonida joylashtirish maqsadga muvofiq. Jismoniy tarbiya - sog'lomlashtirish hududini joylashuv vositalaridan 50 m.dan kam bo'limgan joyda joylashtirish tavsiya etiladi. Xo'jalik bo'limi joylashuv, dam olish va sog'lomlashtirish hududlaridan 25 m.dan kam bo'limgan masofada joylashtirilishi kerak. Sanatoriy va dam olish uylarinig faoliyat doirasi bo'limgan korxonalar ularning hududlarida bo'lishi man etilgan. Sanatoriy va dam olish uylariga kirish joylari zarur bo'lgan yo'l belgilari, axborotli belgilar va yo'lovchilar yo'laklari bilan jihozlanishi kerak. Joylashuv vositalarga yo'llar qattiq qoplamlari bo'lishi va pandumlar bilan jihozlanishi shart.

***Ovqatlanish vaqtida*** qulay shart-sharoitlar yaratish:

- ovqatlanish xonalarida devorlar tinch ranglarda bo'lishi kerak. misol uchun, yashil, oq va to'q sariq ranglar aralashmasi, devorlarda turli chiroyli rasmlar ilinishi;
- tinch musiqa sadolari jaranglashi;
- menyuni ishlab chiqishda bir nomdagi taomlar 2 kun takrorlanmasligi kerak
- 3 marotaba ovqatlanish tartibi amalga oshiriladi. kunlik ovqatlanish ratsionini quyidagicha taksimoti amal qilishi maqsadga muvofiq: nonushta – 30%, tushlik – 40%, kechki ovqatlanish – 30%
- oshxonada yuqori shiftlar va ko'proq yorug'likni kirituvchi katta derazalar bo'lishi maqsadga muvofiq.

Sanatoriy va dam olish uylarida dam oluvchilar ovqatlanayotganda turli infekzion kasalliklarni oldini olish uchun quyidagilar amalga oshiriladi:

A) ishlatilmaydi: oldingi ovqatlanish vaqtida tayyorlangan ovqat; qaynatilmagan sut; tvorog va qaymoq; ishlov berilmagan baliq; veterinariya nazoratidan o'tmagan go'sht; suvda suzuvchi parrandaning tuxumi va go'shti; qo'ziqorin; uyda tayyorlangan marinadlangan mahsulotlar; tomatda konservalangan mahsulotlar.

B) tayyorlanmaydi: tvorog; go'shtli farsh bilan tayyorlangan makaronlar, go'shtli quymoqlar, pashtetlar, yaxni gazaklar; krem, kremlı pishiriqlar; frityulda pishirilgan taomlar.

C) kiritilmaydi: achchiq qaylalar, gorchitsa, qalampir, sirka kislotasi, kofe.

Alyumindan tayyorlangan idishlar faqat taom tayyorlanayotganda ishlatalishi mumkin. Ushbu idishlarni taomni saqlashda ishlatalish man etiladi. Fayans, farfor, zanglamaydigan po'latdan yasalgan oshxona anjomlari ishlatalishi zarur. Chetlari kamtilgan yoki darz ketgan idishlar, shuningdek emal qatlamiga zarar yetkazilgan idishlarni ishlatalish mumkin emas. Ovqatlanish xizmati bo'limining jihozlanishi, ishlatalishi va tarkibiga talablar umumiy ovqatlanish korxonalari uchun sanitariya qoidalarga muvofiq bo'lishi kerak.

***Binolar, texnik jihozlar va xonalar jihozlanishiga talablar.***  
Sanatoriy va dam olish uylarining arxitektura-rejalashtirish va qurilish elementlari va konustrukтив yechimlar belgilangan qonunchilik asosida bo'lishi kerak. Sanatoriy va dam olish uylari binolariga, xonalarning texnik jihozlanishiga bo'lgan umumiy talablar ilovada keltirilgan. Sanatoriy va dam olish uylari qurilishida jismoniy imkoniyatlari cheklangan insonlarni qabul qilish va ularga xizmat ko'rsatish xususiyatlari inobatga olinishi shart (panduslar, turli balandlikdagi ushlagichlar, aravachalarning hajmiga mos eshiklar, mahsus krovatlar, liftlar, mahsus dush va hojatxonalar). Isitish, ventilyatsiya va havo tozalagichlar yashash xonalari va jamoat joylarida sanitariya me'yorlari va qoidalarga muvofiq mikroiqlim sharoitini ta'minlanishi kerak. Har bir yashash xonasi to'liq sanitariyaiya nuqtasi (hojatxona va yuvinish xonasi majmui) bilan jihozlanishi shart. Xizmat ko'rsatuvchi xodimlarning sanitariyaiya-gigiyena ob'ektlari alohida xonalarda joylashtirilishi shart. Sanatoriy va dam olish uylarda yerto'lalar mijozlar yashashi va jismoniy tarbiya va sog'lomlashtirish xizmatlari ko'rsatishga ruhsat berilmaydi. Yerto'lalarda yengil avtoulovlar uchun to'htash joyini

joylashtirish mumkin, agar yashash qavatlari bilan orasida xizmat ko'rsatish xonalari joylashtirilgan bo'lsa.

Bolalar sanatoriyalarida yoki bolalar bilan dam oluvchilarni ikkinchi qavatdan yuqori joylashtirish mumkin emas.

Sanatoriy va dam olish uylarning joylashuv vositasining har bir qavatida yig'ishtirish xizmati asbob-uskunalarini va vositalari hamda xodimlari uchun alohida honalar bo'lishi shart. Sanatoriy va dam olish uylardagi yashash xonalariga umumiylab 3-ilovada keltirilgan.

Xonalarni bezashda ishlataladigan bezaklarning xom ashyosi O'zbekiston Republikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan ruhsat berilgan materiallardan foydalanish kerak. Xonalarda mavjud mebellar silliq sirtli, jarohat yetkazmaydigan, o'tkir burchaklarsiz bo'lishi, dizenfeksiya va tozalash vositalariga ta'sirchan bo'lishi kerak. Xonalar devorlari, eshik va derazalari yuzi silliq bo'lishi, yengil tozalanishi kerak. Xonalarda pollar tekis, silliq, jips joylashgan, tirqish va kamchiliklarsiz bo'lishi kerak. Sanitariyaiyagigiyena xonalarining (hojatxona, dush, vannaxona), kirxonalar devorlari suvga va dezinfeksiya vositasiga turg'un materiallar bilan qoplanish kerak. Yashash xonalari derazalarida kunduz kuni 80-100% qorong'ulikni ta'minlaydigan yorug'likni tuzuvchi vositalar bilan ta'minlanishi kerak.

Har bir xona quyidagilar bilan jihozlanishi shart:

- ortopedik matrasli krovatlar bo'lishi shart;
- shahsiy buyumlar turuvchi javonlar bo'lishi;
- oina;
- kiyimlarni ilish va tahlab quyish mumkin bo'lgan shkaflarning bo'lishi;
- xonada joylashadigan bolalar soniga nisbatan teng keluvchi stul va stol bo'lishi;
- yuvish mumkin bo'lgan gilamlar bo'lishi;
- derazada pashshalarga qarshi to'siqning bo'lishi.

Xonadagi jihozlari chang, loy va qum to‘planishiga yordam bermasligi kerak. Barcha jihozlar bolalarga lat yetkazmaydigan, o‘tkir burchaklarsiz bo‘lishi kerak. Xonaga kirishda oyoq kiyimlarni qoldirish, almashtirish va saqlash imkonini beruvchi shkaflar bo‘lishi kerak. Yotoqxonalarda televizor bo‘lishi mumkin emas. Kir yuvish xizmatining bepul tashkil etganligi yoki ichki kiyimlarni yuvishlari va quritishlari uchun shart-sharoitlarning mavjud bo‘lishi kerak.

Xonalarning qo‘laylik darajasi xonadagi joylar soni, bitta o‘ringa to‘g‘ri keluvchi maydon, kerakli sanitariyaiya-texnologik jihozlanishiga bog‘liq: 1 razryad - sanitariyaiya-texnologik jihozlanishining to‘liq to‘plami; 2 razryad – qisqartirilgan to‘plam (dush, umivalnik, unitaz), 2ta yotoq xonasiga bitta umumiylashkil etish; 3 razryad - qisqartirilgan to‘plam (dush, umivalnik, unitaz), bir nechta yotoq xonasiga bitta umumiylashkil etish; 4 razryad – blokga, bo‘limga yoki qavatga umumiylashkil etish; yotoqxonalar joylashgan binodan 75 metr uzoqlikdan oshmagan masofada joylashtirilgan umumiylashkil etish.

Kir yuvish xizmatining bepul tashkil etganligi yoki ichki kiyimlarni yuvishlari va quritishlari uchun shart - sharoitlarning mavjud bo‘lishi kerak. Barcha jihozlar bolalarga lat yetkazmaydigan, o‘tkir burchaklarsiz bo‘lishi kerak. Xonaga kirishda oyoq kiyimlarni qoldirish, almashtirish va saqlash imkonini beruvchi shkaflar bo‘lishi kerak.

Sanatoriylar va dam olish uylari xonalari quyidagilar bilan jihozlanishi tavsiya etiladi:

- a) har bir krovat yonida yoritqich bo‘lishi;
- b) ustki kiyimlar uchun shkaf bo‘lishi;
- c) oyoq kiyimlar uchun shkaf bo‘lishi;
- d) ikki yarusli krovatlar bo‘lishi;
- e) yoyiladigan kiyim quritgich bo‘lishi;
- f) derazada jalyuzi bo‘lishi;
- g) eshikda guruhning nomi yozilgan peshtaxta ilinishi;
- h) xavo tozalagich va xavo namlantirgichning bo‘lishi;

i) mavzuli choyshablar va suratlar bo‘lishi

**Hojatxona va dush xonalarga talablar.** Xonalar ichida hojatxona va dush xonalar bo‘lishi kerak. Dush xonalar sovuq va issiq suv bilan ta’minlangan bo‘lishi kerak. Hojatxona va dushxonalardagi barcha buyumlar o‘tkir burchaklarga ega bo‘lmashli kerak. Dush xonalarda suvning yoyilib ketmasligi ta’minlanishi kerak.

Hojatxonalar va dushxonalar quyidagilar bilan jihozlanishi kerak:

- hojatxonada zaruriy idish va uskunalar (oina, sovun joylashtirish uchun idish, qullarni quritish uchun moslama, xavo tozalagich va boshqalar);
- dushxonada zaruriy idish va uskunalar (oina, sovun joylashtirish uchun idish, sochoq ilish uchun moslama, fen, xavo tozalagich va boshqalar);
- turli vositalar uchun turli hajmdagi tokchalar;
- dushxonalarda kiyimlarni ilish uchun javonlar.

Hojatxona va dushxonalar har kuni yig‘ishtirilishi shart. Xizmat ko‘rsatish xodimlari uchun alohida hojatxona bo‘lishi shart. Sanatoriy va dam olish uylari chegarasida qo‘srimcha hojatxonalarini tashkil etish, yashash binolari bilan orasida kamida 25 metr, qul yuvish uchun jihozlarning mavjud bo‘lishini ta’minlash shart. Oshxona yaqinida bir nechta hojatxona joylashishi maqsadga muvofiq.

#### **Sanatoriylarda ko‘rsatiladigan xizmatlarga talablar.**

Sanatoriy va dam olish uylarda ko‘rsatiladigan xizmatlarda umumiyligi talablar ILOVAda keltirilgan. Sanatoriy va dam olish uylarda sog‘lomlashtirish, ovqatlanish, davolash-profilaktika, parvez, bolalar ovqatlanishi va boshqa qo‘srimcha xizmatlar ko‘rsatiladi.

**Ovqatlanish xizmatlariga talablar:** oshxonada parhezli ovqatlarni tayyorlash; mijozlarga parhez turiga qarab o‘rindiqlarni ajratish; mijozlar tomonidan vrachlarning roziligi asosida ovqatlarga o‘z talablarini belgilashi mumkin; harakatlanishda muammolari

mavjud mijozlarga ovqatlarni xonalariga yetkazish xizmatlarini tashkil etish maqsadga muvofiq.

Sanatoriy va dam olish uylarda ko‘rsatiladigan qo‘shimcha xizmatlarga jismoniy tarbiya-sog‘lomlashtirish, turistik, maishiy, ko‘ngilochar, savdo va boshqa xizmatlar kiritiladi.

## **II – BOB. TURISTLAR VA MAHALLIY AHOLIGA XIZMAT KO‘RSATADIGAN IXTISOSLASHGAN MEHMONXONALAR TURLARINING NAZARIY ASOSLARI**

Hozirgi kunda turizm sohasi juda tez rivojlanayotgan sohalardan biri bo‘lib, uning rivojlanishida nafaqat yangi ish o‘rinlarining ochilishi, balki mamlakat iqtisodiyotiga katta foyda keltirishi bilan ahamiyatlidir. Shuning uchun turizm sohasidagi asosiy va qo‘srimcha xizmatlarni xududlarda rivojlantirish hamda mahalliy va xorijiy turistlarni jalb qilish oldimizdagi eng muhim masalalardan biridir. Shunday ekan, biz turismning asosiy xizmatlaridan bo‘lgan mehmonxona xizmati va uning faoliyatini o‘rganish, qolaversa butun dunyoda mashhur bo‘lgan noan’anaviy mehmonxonalar, ulardagi shart – sharoitlar haqida ma’lumotlarini to‘plab tahlil qilish hamda ularni talabalarga etkazish oldimizdagi eng asosiy vazifalardan biridir.

Bu kabi mehmonxonalar ixtisoslashganligi va ayrimlari maxsus tashkil etilganligi bizning e’tiborimizni tortdi. Ularning ko‘rinishi va taklif etadigan xizmatlari oddiy bo‘lsada, lekin san’at, madaniyat, qobiliyat, iqtidor, arxitektura, urf-odat, tarix, geografiya, e’tiqod kabi bilimlar yaxlitlikda namoyon bo‘lgan joylar insonning butun borlig‘i va stresslardan holi bo‘lish maqsadida borishga undovchi omillardan biri sifatida xizmat qiladi. Bunda insondagi mavjud bilim va tasavvurlar yanada boyiydi, natijada yangi –yangi energiya va kuch atrof – muhitga bolgan qarashlarini o‘zgartiradi. Yangi taassurotlar esa insonning ishchanlik qobiliyatini kuchaytiradi. Bu esa albatta, insonni yana sayoyat qilishga chorlaydi.

Shunday ekan yuqoridagi tasniflardan kelib chiqib, biz sizlarga turistlar va mahalliy aholiga xizmat ko‘rsatadigan maxsus va ixtisoslashgan mehmonxonalar turlarining ayrimlari haqida ma’lumot berib o‘tamiz.

## **2.1. Motellarining paydo bo‘lish tarixi va rivojlanishi**

Motel - bu mehmonxona dizaynida qurilgan bo‘lib, yil davomida avtoulov haydovchilarini jalb etishga va vaqtincha turishi uchun mo‘ljallangan, yaqinida avtoturargohi mavjud mehmonxona turidagi korxonadir.

Mehmonxonalar odatda shahar markazida, aeroport yoki vokzal yaqinida joylashadi. Motellar, aksincha, magistral bo‘ylab yoki shaharning chekkasida joylashgan bo‘ladi. Motel sayyoohlarga xizmat ko‘rsatish bilan birga avtoulov saqlash sharoitlari (to‘xtab turish joylari, gaz shaxobchalar, avtoulov xizmatlari va b.)ga ham ega bo‘ladi.



**2.1.1-rasm. San Luis Obisponing Milestone MoTeli**

1920 - yillarda uzun va keng, ravon yo‘llar rivojlanishi bilan uzoq muddatli sayohatlar ham avj olgan va natijada birinchi motellar o‘sha yillardan boshlab katta yo‘l yoqalarida qurila boshlangan, chunki uzoq yo‘lga chiqqan yo‘lovchilar shu yerlarda to‘xtab dam olganlar. Ushbu holatda sayohatchilar yo‘l ustidagi arzon va bir kechani qulay o‘tkazish imkoniyati bo‘lgan mehmonxonalarga

ehtiyoj sezishi natijasida bu narsa motellar tashkil topishiga olib keldi.

Birinchi ushbu turdag'i mehmonxona San Luis Obisponing Milestone Mo-Tel nomi bilan Kaliforniyada 1925 - yilda qad rostlagan (Hozirgi Motel Inn). Artur Heinemannning ixtirosi bo'lgan Milestone Mo - Tel muassasasini tashkil etishi bebahon - xau bo'lgan, ayniqsa, u ushbu nomni yanada qisqa va kuchli nomga qisqartirgan - Motel Inn.

Keyinchalik 1991 - yilda bu mehmonxona yopilib, hozirda faoliyatini o'zgartirgan.



**2.1.2-rasm. San Luis Obisponing Milestone Moteli**

2000 - yil 12 - dekabrda birinchi motel ochilishining 75 yilligi nishonlandi. Kaliforniya shtatining San Luis Obispo shahrida joylashgan yo'l bo'yidagi kichik mehmonxona tarixga o'z nomi bilan kirdi. Bu muassasaga kirish eshigi tepasida va yo'l bo'yi reklama taxtasida majburiy so'z «mehmonxona» so'zi yo'q edi. Hatto tarixda muhrlanib qolgan va amerikaliklar o'z mehmonxonalarini eski inglizcha usulda chaqirishni yaxshi

ko‘radigan Inn (yo‘l bo‘yi vaqtinchalik tunash joyi yoki karvonsaroy) belgisi ham yo‘q edi. Buning o‘rniga, o‘sha kungacha noma’lum bo‘lgan Mo-Tel nomi turgan edi. «Motor» va «hotel» (avtoturistlar uchun otel) birikmasidan paydo bo‘lgan yangi «MOTEL» so‘zi vaqt o‘tishi bilan butun Amerikani, keyin esa dunyoning katta qismini egallab oldi.

AQSh motellar soni bo‘yicha dunyoda etakchi hisoblanadi. Birinchi motellar XX - asrning 50 - yillarda AQShda paydo bo‘lgan va darhol katta shuhrat qozongan. Birgina 1959 - 1962 yillarda AQShda 36000 motellar qurilgan. Ushbu voqeanning sababi sifatida amerikaliklarning turli xil avtoulovarda oilaviy sayohatlarga bo‘lgan ishtiyoqidan bilih mumkin.

Motellar 1960 - yillardan boshlab AQShning mashhur zanjir mehmonxonalarini uzun yo‘l yoqalarda kechani o‘tkazishga mo‘ljallangan mehmonxonalarini qurishi sababli ommalasha boshladи ya’ni mashinada sayohat boshlagandan keyin, motellarning ishi rivojlanib ketdi. Buning asosiy sababi - qish kunlari ob - havo sovib, yo‘llar muzlay boshlagan payti haydovchilar motellarda dam olishi hamda ular mehmonxonalarga qaraganda ancha arzon va qulay bo‘lganligi edi.

Motellar oddiy mehmonxonalardan yirik yo‘l yoqalarda joylashganligi, kam qavatliligi va darvozasi tashqariga qaraganligi bilan farq qiladi. Motellarning barchasida avtoulovlar turar joyi yoki garaji bo‘lishi zarur. Odatda bunday turdagи mehmonxonalar umumiyl bitta binoda bir qancha kichik xonalarni birlashtirgan hisoblanadi. Shuningdek, ularning eshigi avtoturargoh joyiga qaragan bo‘lishi zarur.

Motellarni rivojlantirish uning atrofida turli infratuzilmani shakllantirish bilan ahamiyatlidir. Masalan, yoqilg‘i qo‘yish shahobchalar, istirohat bog‘lari, restoran va barlar, kinoteatrlar kabilarni tashkil qilish mumkin.

Ushbu motel zamonaviy Amerika sivilizatsiyasining yuragi kabi ahamiyati katta bo‘lgan ob’ektidir. Shu bilan birga zamonaviy

motellar ko‘pincha yo‘l bo‘yidagi arzon «avtoulovlarning tunash joyi» emas, balki kamida to‘rt yulduz darajasidagi mehmonxona xizmatlarini o‘zida aks ettirishi lozim.

Odatda motellar «I», «L» yoki «U» shaklda qurilgan standart kubik - nomerlarning bir qavatli (kamdan - kam ikki qavatli) qatorlardan iborat bo‘ladi. Uning tarkibiga nomerlar, xodimlar xonasi, qabulxona va oshxona, imkon bo‘lsa basseyn ham kiritiladi. Motellarda asosan ikki kishilik xonalar mayjud bo‘lib, unda yakka yoki oila bo‘lib turish mumkin. Har bir xonaga kirish individual bo‘lib, ayvonda joylashtiriladi va kirish eshigi oldida avtoulovlar qo‘yish joylari hamda hovlining o‘rtasida tunda yoritilgan basseyn bo‘ladi. Ularda restoran, konferentsiya xonasi, bar va shunga o‘xhash xizmatlar yo‘q. Hammasi oddiy, ortiqcha bezaksiz va tejamkor haydovchilar uchun odatiy tunab qolish joyidir.



**2.1.3-rasm. America motellaridan biri**

Ammo ma’lum bir darajadagi qulaylik kafolatlangan, xonani oldindan buyurtma qilmasdan va tekshirmsasdan turib xavfsiz tarzda

tunash imkoniyatlari mavjud. Lekin motel mehmonlar unda uzoq vaqt turishi uchun emas, balki qulaylik va uqlash uchun mo'ljallangan bo'ladi.

Moteller asosan katta yo'l yoqalarida qurilganligi sababli tunda uzoqda magistraldan aniq ko'rinishi uchun baland reklama taxtalarida joylashtirilgan «MOTEL» degan yozuv va shakllar neon chiroqlar bilan yorqin bezatiladi. Odatda bu reklamadagi motelning nomi ostida minimal zarur ma'lumotlar ya'ni tunashga qaror qilgan haydovchini shu erda dam olishga qaratilgan so'zlar joylashtiriladi.

Amerika motellarining yana bir o'ziga xos xususiyati shundaki, ularda tunash uchun hech qanday rasmiyatchilik talab qilinmaydi ya'ni shunchaki naqd pul berib, kalitni olish mumkin. Bu shunchaki noma'lum qolishni istaganlar uchun va odatda o'zlariga kamroq e'tibor qaratilishini istaganlar uchun juda qulay joydir.

Amerikada birinchi motellar paydo bo'lishidan oldin Yovvoyi G'arbiy immigrantlarning kempinglari mashhur bo'lган. Motellarning yana boshqa muqobil varianti sifatida - «kottejli lager» (cottage camps) bo'lib, birinchi bor janob Askins tomonidan 1901 - yilda Arizona shtatining Duglas shahrida qurilgan. Bu motel shahar ko'chasiga qaragan 9 ta bir qavatli kottejlardan iborat bo'lган. 1910 - yilda «Askinsning kottejli lageri» o'z nomini «turistik to'xtash joyi» (tourist inn) ga o'zgartirilgan.

Sharqiy sohilda an'anaviy mehmonxonalarga muqobil variant sifatida «sayyohlik uylari» (tourist houses yoki tourist courts) bo'lган - Evropada bunday muassasalar an'anaviy ravishda pansionatlar deb atalgan.

1980 - yillarning boshlariga kelib mashhur franchayzing tizimi tufayli 40,000 Amerika motellarining aksariyati ushbu tarmoqlarga qo'shildi.

Dunyodagi eng mashhur motellar tarmog'i bo'lган »Formula – 1» Frantsiya, Belgiya, Buyuk Britaniya, Gollandiya, Ispaniya, Shvetsiya, Shveytsariya, shuningdek, Janubiy Afrika, Avstraliya, Braziliya va Yaponiyada mavjud.

Hozirgi kunda «Formula – 1» sarmoyadorlari «ikki baravar ko‘proq pul to‘lasang, ikki baravar yaxshi uxmlay olmaysan» tamoyiliga amal qilmoqda, shuning uchun ko‘p tarmoq motellari «ixchamligi» jihatidan standart hisoblanadi.

Bundan tashqari motellarga bir qator talablar ham qo‘yiladi. Ular sig‘imi, qulaylik darajasi, shuningdek, transport vositalariga texnik xizmat ko‘rsatish darajasi bo‘yicha farqlanadi.

Motellarning sig‘imi loyihasiga muvofiq olinadi, ya’ni ular uchun tavsiya etiladigan sig‘im 200 dan 800 gacha bo‘ladi. Shu bilan birga magistral yo‘llar va ko‘chalar bilan motelning yashash joylarigacha bo‘lgan masofasi kamida 50 m bo‘lishi kerak.

Motel kamida 5 tadan 100 tagacha joyni o‘z ichiga olgan avtoulov sayyoohlarini joylashtirish uchun ixtisoslashgan jamoaviy vosita hisoblanib, unda avtoulov turistlari uchun bir kechada turli xil mehmonxona xizmatlari ko‘rsatiladi va mashinalar, avtoulovlargacha texnik xizmat ko‘rsatish, ta’mirlash ishlarini amalga oshiradi.

Motellar har qanday ekologik toza va xavfsiz hududlarda joylashgan bo‘lishi mumkin, tabiiy landshaft muhiti, nostandard me’moriy uslub, o‘ziga xos tashqi ko‘rinish, milliy va zamonaviy dunyo talablariga javob beradigan xizmatlar bilan ajralib turadi. Buning uchun u quyidagi talab va meyyorlarga javob berishi lozim:

- ✓ motellar kerakli yo‘l belgilari, obodonlashtirilgan va yoritilgan maydoni bo‘lgan qulay kirish yo‘llariga ega bo‘lishi va bino ko‘cha, mahalla, mintaqasi va landshaft xususiyatlarini buzmasdan, atrof - muhitga tabiiy ravishda mos kelishi kerak. motelning arxitektura - rejallashtirish va qurilish elementlari, ishlatiladigan texnik jihozlar ishlash samaradorligini ta’minlashi, sayyoohlarni, shu jumladan nogironlarni qabul qilish va ularga xizmat ko‘rsatishni o‘z ichiga olishi kerak. shuningdek, mehmonlarning hayoti, sog‘lig‘i va mulkclarining xavfsizligi ta’minlanishi kerak;

- ✓ binolarda odatdag'i va favqulodda vaziyatlarda favqulotda chiqish joylari, zinapoyalari hamda mehmonlar va xodimlarning chiqish yo'laklari bo'lishi kerak;
- ✓ motellar amaldagi qoidalarga muvofiq jihozlangan bo'lishi, yong'indan himoya qilish va ogohlantirish tizimlari, shuningdek, yong'inga qarshi vositalar bilan ta'minlangan bo'lishi kerak;
- ✓ ularda muhandislik tizimlari va uskunalaridan issiq va sovuq suv ta'minoti, kunlik suv ta'minoti uchun minimal idish, kanalizatsiya tizimi, isitish, shamollatish, radioeshittirish, televiedenie, telefon aloqasi, tabiiy yorug'lik (har bir xonada kamida bitta deraza), koridorlarda - tabiiy va sun'iy yoritish mavjud bo'lishi maqsadga muvofiqdir;
- ✓ barcha elektr, gaz, shamollatish, sanitariya - gigiena, kanalizatsiya uskunalarini va jihozlari texnik foydalanish qoidalariiga muvofiq o'rnatilishi hamda ishlatalishi kerak. binoning sig'imi, qavatlari motelning funktsional maqsadi va ish tartibiga bog'liq bo'lishi lozim;
- ✓ motellar davlat sanitariya - epidemiologiya nazorati organlari tomonidan o'rnatilgan qoidalarga muvofiq bo'lishi, ish jarayonini soddalashtirish uchun o'zlarining amaliy faoliyatlarida «mehmonxona xizmatlari va ishlarning dastlabki hisob varaqlari shakllarini taqdim etishda ish oqimini ta'minlash tartibi to'g'risida»gi yo'riqnomadan foydalanishlari kerak;
- ✓ motel ma'muriyati va uning xodimlari mehmonlarni qabul qilishi, motelning toifasi mos shartnomada ko'rsatilgan shartlarga muvofiq qo'shimcha xizmatlarni ko'rsatishlari shart. Shartnomaga aniq va noma'lum muddatga tuzilishi mumkin. Noma'lum muddatga tuzilgan shartnomaga bir kunlik shartnomasi hisoblanadi va joylashtirish muddati mehmon kelgan kundan keyingi kun soat 12.00 gacha tugaydi.

## 2.1.1-jadval

### Motellarni qurish uchun asosiy qoidalar

	Asoslari	Ta’rif
1.	Joylashgan joyi (yoki binolar majmuasi)	U shahar yoki qishloq relefi xususiyatlarini saqlab, atrof - muhitga mos ravishda qurilishi kerak
2.	Tabiiy va iqlimiylar xususiyatlar	Harorat va namlik, yog‘ingarchilik, izolyatsiya, tezlik, shamol yo‘nalishi va b.
3.	Arxitektura, konstruktiv va rejalashtirish echimlari	Binolarning tartibi uning ishslash samaradorligini kafolatlash uchun talab qilinadi. Dizaynerlarning asosiy harakatlari joriy va bir vaqtning o‘zida harajatlarni oqilona uyg‘unlashtirishga qaratilgan
4.	Xonalar	Juda qimmat bo‘lishi kerak emas
5.	Xizmatlar	U oqilona xizmat ko‘rsatadigan turar joy va yashash uchun qulay sharoitlarni ta’minlashi shart. Motel etarlicha minimal funktsiyaga ega, lekin eng muhimi motelda to‘xtash joyining mavjudligi va avtoulovga xizmat ko‘rsatish rejada hisobga olinishi kerak
6.	Xonaning mosligi	Estetik, texnik, sanitariya - gigiena, ekologik, umum e’tirof etilgan standartlar va b.
7.	Ijro shartlari	Motelni qurish jarayonining samaradorlik shartlarini bajarish kerak.

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, motellarni qurishda asosiy tamoyillar boshqa turar joy binolaridan farq qilmaydi, lekin

motelning eng muhim ajralib turadigan xususiyati bu - binolarni joylashtirishda avtoulov xizmatining mavjudligi, to‘xtash joylari, xizmat ko‘rsatish joylari va qo‘srimcha xizmatlarning mavjudligi inobatga olinishi shart.

### **2.1.2-jadval**

#### **Motel taklif etadigan asosiy va qo‘srimcha xizmatlar**

<b>Asosiy xizmatlar</b>	<b>Qo‘srimcha (pullik) xizmatlar</b>
<ul style="list-style-type: none"> <li>✓ Turar joy bilan ta’mirlash;</li> <li>✓ Ovqatlantirish xizmati;</li> <li>✓ Check in, check out xizmatlari</li> </ul>	<p><b>Avtoulov xizmatlari:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>✓ transport vositalarini ta’mirlash bilan shug‘ullanadigan STO texnik xizmat ko‘rsatish shaxobchasi;</li> <li>✓ Shinalarni o‘rnatish;</li> <li>✓ Yoqilg‘i quyish shoxobchasi;</li> <li>✓ Avtoulovlni yuvish;</li> <li>✓ Mashina ijarasi</li> </ul>
<p><b>Bepul xizmatlari:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>✓ Tez yordam chaqirish;</li> <li>✓ Qaynoq suv, kiyimni tikish uchun igna-ip berish;</li> <li>✓ Idish va idish to‘plamini berish;</li> <li>✓ Mehmonlarni uyg‘otish xizmati.</li> </ul>	<p><b>Sayohat xizmatlari:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>✓ Gid - tarjimon xizmatlaridan foydalanish;</li> <li>✓ Transportning har qanday turiga chipta sotishni tashkil etish;</li> <li>✓ Madaniy joylarga (kino, teatr va boshqalar) chiptalar sotishni tashkil etish;</li> <li>✓ Sayyoohning iltimosiga binoan taksi buyurtmasi;</li> <li>✓ Har qanday restoran va shahar barida stol yoki dam olish joyiga buyurtma berish.</li> </ul> <p><b>Maishiy xizmatlar:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>✓ Tiklash va dazmollash;</li> <li>✓ Kir yuvish, quritish, dazmollsh va tozalash.</li> </ul>

Bu jadvaldan ham ko‘rinib turibdiki, motel taklif etadigan asosiy va qo‘shimcha xizmatlar eng ixcham va xamyonbop bo‘lib, avtosayyohlarning talab va ehtiyojlariga mos tuzilgan. Chunki uzoq xududlarga boradigan har qanday yo‘lovchi yo‘l – yo‘lakay dam olishi, navbatdagi safarga tayyorgarlik ko‘rishi uchun yetarli imkoniyatlardan foydalanishi mumkin. Bunday imkoniyatlarni faqat joylashtirish vositalaridan biri bo‘lgan Motel taklif qila oladi.

Motel ma’muriyati to‘lov tizimini mustaqil ravishda o‘rnatadi va to‘liq yoki qisman oldindan to‘lovnini talab qilish huquqiga ega. Ma’muriyat, motel xodimlari va mijoz mehmonxonaning shartnoma shartlariga rioya qilishlari shart. Aks holda, shartnoma to‘liq yoki qisman amalga oshiriladigan bo‘lsa, aybdorga shartnoma shartlariga muvofiq choralar ko‘rilishi mumkin. Agar motel ma’muriyati shartnoma shartlarini bajara olmasa, u o‘sha mintaqada joylashgan ekvivalent turar joy bilan ta’minlashi va bu bilan bog‘liq barcha harajatlar mehmonxona tomonidan qoplanishi kerak. Agar shartnomani bajarishning iloji bo‘lmasa, mijoz oldindan to‘lovnini amalga oshirgan taqdirda, mehmonxona ma’muriyati to‘langan mablag‘ni qaytarishi lozim. Ushbu shart bajarilmasa, nizo sudda ko‘rib chiqilishi mumkin. Shartnoma tomonlar uning barcha shartlariga to‘liq rioya qilgan taqdirda bajarilgan hisoblanadi.

## **2.2. Xostellarining paydo bo‘lish tarixi va rivojlanishi**

Yosh turistlar (14 - 29 yoshlilar) o‘rtasida xostellardan foydalanish yildan yilga ortib bormoqda. Yoshlarlarning joylashtirish vositalarini tanlashlarida bir qancha omillar ta’sir ko‘rsatadi. Ulardan quyidagilar xostellar uchun muhim ahamiyatga ega (2.2.1-rasm):

- kundalik turmush tarzini ko‘rishga qiziqish;
- boshqa sayohatchilar bilan uchrashish;
- odamlarga yordam berish va mahalliy iqtisodiyotga hissa qo‘shish;

**Yoshlar mehmonxonasi; xostel** - talabalar yotoqxonasiga o‘xshash bo‘lgan, odatda notijorat tashkilotiga tegishli bo‘lgan, joylashtirish, yoshlarbop taomlanishga va/ yoki o‘z - o‘ziga xizmat qilish qulayliklarini taqdim qiluvchi korxona. Ba’zi mamlakatlarda «yoshlar mehmonxonasi» atamasi yoshlar xosteli xalqaro federatsiyasi (IYHG<sup>6</sup>) a’zosi bo‘lgan assotsiatsiyalarga tegishli korxonalarining himoyalangan savdo belgisi hisoblanadi. Odatda yoshlar mehmonxonalari (xostellari) ko‘p o‘rinli xonalarda yoki yotoqxonalarda joylashishni taklif qiladilar va ba’zan yoshlar xostellari xalqaro federatsiyasi tomonidan tan olinadigan milliy assotsiatsiya a’zolariga (alohida shaxslarga, yoki a’zo - tashkilotning guruhlariga), yoki xalqaro xostellar tarmog‘ining qismi bo‘lgan yoshlar xostelida a’zolikni sotib olganlarga ikki o‘rinli yoki oila xonalarini taqdim qiladilar.

Odatda yoshlar mehmonxonalari (xostellari) ko‘p o‘rinli xonalarda yoki yotoqxonalarda joylashishni taklif qiladilar va ba’zan yoshlar xosteli xalqaro federatsiyasi tomonidan tan olinadigan Milliy assotsiatsiya a’zolariga (alohida shaxslarga, yoki a’zo - tashkilotning guruhlariga) yoki xalqaro xostellar tarmog‘ining qismi bo‘lgan yoshlar xostelida a’zolikni sotib olganlarga ikki o‘rinli yoki oila xonalarini taqdim qiladilar.<sup>6</sup>

Xalqaro yoshlar xostellari federatsiyasi (IYHF – International youth hostels federation) Germaniyada iqtisodiy imkoniyati cheklangan yoshlarga shahar tashqarisida (qishloqlarda) va dunyo mamlakatlariga sayohatlarini amalga oshirishga yordam berish maqsadida tashkil etilgan.

Bugungi kunda esa hostellar xalqaro yoshlar turizmining yuragi hisoblanadi. Har yili xostel egalari (xostelchilar)ning turistik daromadlarga qo‘shadigan hissasi 1,4 milliard AQSH dollarigacha bo‘lgan summani tashkil etadi.

---

<sup>6</sup>Turizm xizmatlari. Mehmonxona va turistlarni joylashtirish vositalarining boshqa turlari. Atamashunoslik Rasmiy nashr O‘z DSt ISO18513:2017 (ISO 18513:2003, IDT)

Xostel tajribasi 1909 – yilda Germaniyaning sanoat markazida yashovchi boshlang‘ich maktab o‘qituvchisi Richard Schirrmann tomonidan ilgari surilgn g‘oyasi asosida yuzaga keldi. U o‘quvchilarining sog‘lig‘i va salomatligi borasida industrial revolyutsiyani amalga oshirdi. 1912 - yilda Schirrmann Altena Vestpaliadadagi maktabida birinchi yoshlar xostelini tashkil etdi, keyinchalik Altena qal’asi doimiy hostelga aylantirildi<sup>8</sup>. U xostelni ikkita katta yotoqxanada 3 qavatli yog‘och o‘rindiqlar, oshxona va dush bilan ta’mirladi. 1919 - yilda xostellar g‘oyasi butun Germaniya bo‘ylab keng tarqaldi va Schirrmann Nemis yoshlar xosteli assotsiatsiyasiga asos soldi.

1932 - yilgacha Germaniyada 2000dan ortiq yoshlar xostellari mavjud bo‘lib, yiliga 4,5 million tunashlar bo‘lgan. O‘sha damda Shvesariya, Gollandiya, Niderlandiya, Norvegiya, Daniya, Britaniya orollari, Irlandiya, Fransiya va Belgiya mamlaatlarida 600 atrofida xostellar bo‘lgan va ushbu davlatlarda birin - ketin xostellar assitsiatsiyalari tashkil etila boshlandi: Shvesariyada 1924 - yilda, Gollandiyada 1926 - yilda, Angliya&Uyelsda 1930 - yilda, Yangi Zelandiyada 1932 - yilda, AQShda 1934 - yilda, Kanada 1938 - yilda va Avstraliyada 1939 - yilda. Yoshlar xostellari tez orada butun dunyo bo‘ylab keng tarqaldi.



**2.2.1-rasm. Yoshlar xostellari asoschisi Richard Schirrmann<sup>7</sup>**

<sup>7</sup>[<sup>8</sup>\[https://www.hihostels.com/pagcs/about-hi\\(murojat sanasi 20.05.2018\\)\]\(https://www.hihostels.com/pagcs/about-hi\(murojat sanasi 20.05.2018\)\)](https://www.google.com/search?biw=1093&bih=490&tbm=isch&sa=1&ci=HwzvWoJLcOuswG5x7XQCQ&q=Richard+Schirrmann+hostels&oq=Richard+Schirrmann+hostels&gs_l=img.3...10202.14567.0.14638.8.8.0.0.0.195.1068.0j7.7.0...0...1c.1.64.img..1.1.163...0i30k1j0i5i30k1j0i24k1.0.aKP2NokA-Zw#imgdii=wZbZdQM757n9YM:&imgrc=GZXIA25la93FM: murojat sanasi 20.05.2018</a></p>
</div>
<div data-bbox=)

1932 - yilda Yevropa mintaqasining 11 assotsiatsiyalari vakillari Amsterdamda yig‘ilishdi va Xalqaro yoshlar xostellari federatsiyasi tashkil etildi. Richard Schirman esa federatsiya prezidenti etib tayinlandi. Federatsiya shiori «Foyda uchun emas, yoshlar manfaati uchun» (For good, not for profit) deb nomlandi.

2006 - yilda federatsiya nomi «Hostelling International»ga o‘zgartirildi. Xostel faoliyati nafaqat tunash joyi balki, qiziqarli voqealar guvohi bo‘lish, turli xil madaniyatlar bilan tanishish va yangi odamlar uchrashishi hamdir. Federatsiya o‘z xostellarida quyidagilarni taminlaydi:

- noodatiy, xilma - xil va ilhom baxsh etuvchi joylarda joylashganligi;
- sifat standartlariga javob berishi;
- joylashishda xavfsiz muhitni taminlashi;
- do‘stlik muhitini taqdim etishi.


O‘zining yuz yillik tajribasi bilan federatsiya dunyo bo‘ylab qulay va xavfsiz, yuqori standartlarni ta’milagan joylashishni taqdim etish va tarmoqlarini kengaytirish maqsadida federatsiya mamlakatlar va valantyorlik agentliklari bilan doimiy hamkorlik aloqalarini mustahkamlab, rivojlantirib kelmoqda.

Federatsiya a’zolri Milliy assotsiatsiyalardan iborat bo‘lib, nodavlat notijorat tashkilotlar hisoblanadi. U dunyoning sakkizinchı eng katta joylashtirish vositasi ta’motchisidir.



**2.2.2-rasm. Ilk yoshlar xosteli, Altena<sup>9</sup>**

<sup>9</sup>[https://www.google.com/search?biw=1366&bih=613&tbm=isch&sa=1&ci=a-kLW5jBDuGB6QST7JnQCw&q=1st+hostel+Altena&oq=1st+hostel+Altena&gs\\_l=img.3...34484.39957.0.403.05.9.8.1.0.0.0.438.1455.0j7j4-1.8.0....1c.1.64.img..0.0.0....0.Xy60WtOsYQg#imgrc=5PWs1uj-rQIM3M;](https://www.google.com/search?biw=1366&bih=613&tbm=isch&sa=1&ci=a-kLW5jBDuGB6QST7JnQCw&q=1st+hostel+Altena&oq=1st+hostel+Altena&gs_l=img.3...34484.39957.0.403.05.9.8.1.0.0.0.438.1455.0j7j4-1.8.0....1c.1.64.img..0.0.0....0.Xy60WtOsYQg#imgrc=5PWs1uj-rQIM3M;)  
(murojat sanasi 20.05.2018)



**2.2.3-rasm. Ilk yoshlar xosteli, Altena yoshlar xosteli xonası  
(1932-yil)<sup>10</sup>**

Bugungi kunda 89dan ortiq mamlakatlarda 73 ta yoshlar xostellari Milliy assotsiatsiyalari, 4700 dan ortiq xalqaro yoshlar xostellari, 3,9 million a'zolari va 1 million xalqaro mehmonlariga ega. Ular yosh turistlarga yiliga 32 million tunashlarni ta'minlaydi.

Federatsiyaning maqsadi - yoshlarga o'z sayohatlarini amalga oshirishlarida xavfsiz, toza va qulay darajadagi sharoitlarni taminlash tizimini shakllantirishdan iborat. Assotsiatsiyalardagi xostellarning barchasi «hihostels.com» veb sahifasiga birlashtirilgan bo'lib, shu orqali istalgan xostelga buyurtma berish mumkin.

2016 - yilda 11 million sayohatchilar ushbu veb sahifa orqali buyurtma bergenlar. Veb sahifa orqali buyurtma qilish xavfsiz bo'lib, 4% dan 8% gacha joylashish qiymatlarini o'z ichiga oladi, vaholanki bu qiymat boshqa veb sahifalarda 12% dan 20% gacha qiymatni tashkil etadi. Bu sahifa ishonchli tarmoq vositasi sifatida 2017 - yilning fevral oyi holatiga ko'ra 8,3/10 reytingini qo'lga kiritdi<sup>11</sup>.

<sup>10</sup>[https://upload.wikimedia.org/wikipedia/commons/c/c6/JH\\_Altena.jpg](https://upload.wikimedia.org/wikipedia/commons/c/c6/JH_Altena.jpg) murojat sanasi 15.05.2018

<sup>11</sup><https://www.trustpilot.com/review/hihostels.com> murojat sanasi 20.05.2018

Federatsiya o‘zining tarkibiga bir necha assotsiatsiyalarni qamrab olgan, ya’ni bular federatsiyaning a’zolari hisoblanadi Mana shu a’zo tashkilotlardan eng yiriklari quyidagilardan iborat<sup>12</sup>:

- |  |                                       |
|--|---------------------------------------|
| ✓ Angliya va Uyels – «YHA England & Wales» | ✓ Xitoy – «YHA China»                 |
| ✓ Avstraliya – «YHA Australia»             | ✓ Tailand – «Taiwan YHA»              |
| ✓ Pokiston – «Pakistan YHA»                | ✓ Yangi Zelandiya – «YHA New Zealand» |

Federatsiya nomi ostida 600 dan ortiq shaharlarda 700 atrofida xostellar mayjud. Eng mashhur hostellar London, Oksford, Sidney, Melbrun, Gankong kabi shaharlarda joylashgan.<sup>13</sup>



Yangi Zelandiya



Avstraliya



Tayvan



Angliya&Uyels

#### **2.2.4-rasm. Yoshlar xostellari assotsiatsiyalari logotiplari (Yangi Zelandiya, Avstraliya, Tayvan va Angliya&Uyels)**

**Islandiya xostellar assotsiatsiyasi.** 2016 - yilda Islandiya Xostellar assotsiyatsiasi boshqarmasi tashkilot qo‘mitasini Islandiyada barqaror turizmni rivojlantirishda o‘z hissasini qo‘shishga o‘ndaydigan yangi maqsad, yangi ko‘rinish va yang barqarorlik dasturini qabul qildi. Tashkilotning qabul qilgan maqsadi: «Barqaror va mas’uliyatli turizmning rivojlanishida muhim o‘rinni egallash va tabiatga sayohat qilish istagida bo‘lgan turistlar, shuningdek, tengqur sayohatchilar uchun birinchi tanlovi bo‘lish».

Yana shuni alohida ta’kidlab o‘tish lozimki, Islandiya Xostellar assotsiatsiyasi yoshlar bilan ishlash va mehmondo‘stlik borasida o‘n to‘rt yillik tajribaga ega.

<sup>12</sup><https://www.trustpilot.com/review/hihostels.com> murojat sanasi 20.05.2018

<sup>13</sup><https://www.hihostels.com/pages/yha> (murojat sanasi 20.05.2018)

Islandiya xostellar assotsiatsiyasi notijorat tashkilot bo‘lib, 1939 - yilda tashkil etilgan. Tashkilot xalqaro yoshlari xostellari federatsiyasining a’zosi hisoblanadi. Uning xostellari federatsiya standartlari va talablariga to‘la javob beradi.

Dastlab tashkilotning bosh maqsadi barcha yoshdagilarning sayohatlarini qo‘llab - quvvatlash va ta’minlash hamda ularning tabiiy va madaniy bilimlarini oshirish hisoblangan. Buning natijasida u quyidagi dasturlarni amalga oshirdi:

- ✓ Ichki va xorijiy xostel tipidagi mehmonxonalarining statistikasini olib borish;
- ✓ Islandiya xostellarini bronlashtirishda, avtoulovlar ijarasida va mamlakatning boshqa hududlarida turlar tashkil etishda sayohat agentliklariga yordam berish va boshqarishdir.

2013 - yilda Islandiyaga «hihostels.com» bronlashtirish tizimi orqali 23000 sayohatchilar tashrif buyurishgan. Ular orasida nemislar asosiy o‘rinni egallaydi, keyingi o‘rinlar esa Fransiya, AQSH, Angliya&Uyels, Shveysariya, Niderlandiya, Ispaniya, Kanada, Italiya va Belgiya davlatlariga tegishlidir.

**NI Tizimi** (Network) CO<sub>2</sub> chiqindisini eng kam chiqaradigan xostel hisoblanadi. HIQ&S hostellarning sifat va barqarorlik standartlarini amalda to‘la joriy etgan.

Butun Islandiya mamlakati bo‘ylab 1100 o‘ringa ega bo‘lgan 36 ta xostellari mavjud (2.2.5-rasm).

«Loft Hostel in Reykjavík», «Reykjavík City Hostel» va «Reykjavík Downtown Hostel»lari bevosita assotsiyatsiya tomonidan boshqariladigan xostellar hisoblanadi.

**Reykjavík Loft xostel (Loft Hostel in Reykjavík)**iga to‘xtolib o‘tadigan bo‘lsak, jismoniy imkoniyati cheklangan turistlar uchun zamonaviy va to‘la jihozlangan, dizaynlashtirilgan do‘stona munosabatlarni o‘zida aks ettirgan xosteldir.



**2.2.5-rasm. Islandiyada yoshlar hostellarining joylashuvi<sup>14</sup>**



**2.2.6- rasm. Reykjavik Loft xosteli, Islandiya**

**Avtoulovlar turar joyi va kirish.** Xostelning to‘g‘risida avtoulovlar turar joyi mavjud. Xostelga kirish to‘siksiz bo‘lib, avtomatik ochiladigan eshik bilan ta’minlangan. Kirish qismi eniga

<sup>14</sup>[https://www.google.com/search?biw=1093&bih=530&tbs=isch&sa=1&ci=HgsLW6jsH4Xa6ASl45rgCw&q=hi+iceland+hostels+map&oq=hi+iceland+hostels+map&gs\\_l=img..3...10301.11018.0.11742.4.4.0.0.0.181.615.0j4.4.0...0...1c.1.64.img..0.0.0...0.5vCSIDH4a8A#imgrc=VQKqlhs5KPv9RM;](https://www.google.com/search?biw=1093&bih=530&tbs=isch&sa=1&ci=HgsLW6jsH4Xa6ASl45rgCw&q=hi+iceland+hostels+map&oq=hi+iceland+hostels+map&gs_l=img..3...10301.11018.0.11742.4.4.0.0.0.181.615.0j4.4.0...0...1c.1.64.img..0.0.0...0.5vCSIDH4a8A#imgrc=VQKqlhs5KPv9RM;) (murojat sanasi 20.04.2018)

89 sm, o'ngda eshik qo'ng'irog'i 120 sm balandlikda. Qabul bo'limiga kirish uchun to'rtinchi qavatda lift bilan chiqish mumkin. Liftning o'lchami 80smX110smX140sm. Karidorlaring uzunligi esa 250 sm.

**Xonalar.** Reykjavik Loft xostellarining barcha xonalari ikkinchi va uchinchi qavatlarda joylashgan bo'lib, 19 xonadan iborat. Barcha xonalar elektr kalit kartalarga ega. Oilaviy xonalari ham mavjud.

Xostel jismoniy imkoniyati cheklanganlar uchun alohida xonalarga ega: xonadagi o'rindiqlar soni 6 ta. Har bir yotoq (krovat)ning kengligi 90sm, uzunligi 210 sm va balandligi 45smga teng. Eng yuqori balandligi 100-120 sm. Krovat shunday dizaynlashtirilganki, unda ba'zi bir qulayliklarni ko'rishimiz mumkin. Masalan, krovatning boshida shkaf, o'qish uchun chiroq va elektr razetka. Xonada garderob bo'lmasa ham u yerda kiyimlarni ilgichlarga joylashtirish mumkin. Qimmatbaho narsalarni joylashtirish uchun krovat tagida qulflri jamadon mavjud. Xonadagi eshikning kengligi 83 smni tashkil etib, ochish uchun qulay hisoblanadi.

**Yuvinish xonasi.** Barcha xonalarda hammomlar birgalikda joylashtirilgan. Ikkinci, uchinchi va to'rtinchi qavatlarning karidorlarida jismoniy imkoniyati cheklanganlar uchun 3 ta hammom mavjud. Hammomning o'lchami  $5m^2$ ni tashkil etib, eshiklari tashqi tomondan ochiladi va uning kengligi 83sm. Hammomdagi oyna (ko'zgu) 90sm balandlikda joylashtirilgan<sup>15</sup>.

Hojatxona yerdan 44 sm balandlikda va ikki tomondan suyanchiqlariga ega. Bundan tashqari nogironlar aravachasining qulay harakatlanishi uchun yetarli maydonga ega.

Ushbu xostel 2013 - yilda «Yashil xostel», 2014 - yilda XYXF (IYHF) ning sifat standarti sertifikatiga sazovor bo'lgan. Quyidagi xizmatlar va imkoniyatlarga ega:

---

<sup>15</sup><https://www.hostel.is/files/pdf/travel-agencies/reykjavik-loft-hi-hostel-accessability.pdf>(murojat sanasi 25.04.2018)

- ✓ Barcha joylarda bepul simsiz internet (WI-FI);
- ✓ Bepul yuk saqlash;
- ✓ Qulflar mavjud;
- ✓ Ko‘p tilli jamoa;
- ✓ Kredit kartalar qabul qilinadi;
- ✓ Sayohat/ tur partasi va assistenti;
- ✓ To‘la jihozlangan o‘z - o‘ziga xizmat ko‘rsatadigan oshxona;
- ✓ Televizor xonasi;
- ✓ Rooftop terrace Café/Bar Lounge;
- ✓ BBQ terrace;
- ✓ Lift.

**Angliya va Uyels yoshlar xostellari assotsiatsiyalari.** 1929 - yilda pionerlar guruhi Britaniyada birinchi yoshlar xostelini ochishdi. Bir yil o‘tgandan so‘ng milliy tashkilot ochildi va 1931 - yilda tashkilot tarkibida 11 ta xostellar tashkil etildi.

XX asrning bosHLarida shahar aholisining yuqori darajada o‘sishi katta xavotirga sabab bo‘ldi. Yoshlar xostellari assotsiatsiyasi havoning ifloslanishiga va shahar hayotining og‘ir sharoitlariga qarshi qulay va arzon joylashtirish vositasini taqdim etadi. Bu ishlaydigan yoshlarga dam olish vaqtlarini shahar tashqarisida, toza havoda o‘tkazish imkoniyatini taqdim etadi. Ikkinchi jahon urushi yillarida YOXA (YHA) a’zolari soni ikki martaga ko‘paydi.



**2.2.7-rasm. Angliya va Uyels yoshlar xostellari assotsiatsiyalari**

Bugungi kunda YOXA shaharlar va shaharchalarda, shu bilan birga shahar tashqarisida va qirg‘oqlarda yuqori sifatli joylashtirish vositasini taqdim etib kelmoqda. Vaqt o‘zgargani sari ko‘p narsalar ham o‘zgara boradi. Ammo assotsiyatsiyaning asl maqsadi o‘zgarmadi: Barchani ayniqsa yoshlarni sarguzashtlar va izlanishlar orqali ularning dunyoqarashini kengaytirish, bilimini oshirish va ularga mustaqillikni o‘rgatish<sup>16</sup>.

YHA (England & Wales) assotsiyatsiya Angliya va Uels bo‘ylab arzon narxlardagi 160ta yoshlar xostellari, kempinglar va glempinglarni taqdim etadi. Assotsiatsiya notijorat tashkilot hisoblanadi<sup>17</sup>.

2016 - 2017 yillarda YHA assotsiyasi orqali 1,1 million yoshlar joylashib, volontyorlik va amaliyot orqali sayohat qilishgan. Ularning 256637 nafari joylashgan bo‘lsa, 148720 maktab sayohatlari va dasturlarida ishtiroy etishgan.



**2.2.8-rasm.Brington xosteli. Angliya&UyelsYOXA**

<sup>16</sup><https://www.yha.org.uk/about-yha/history>(murojat sanasi 10.04.2018)

<sup>17</sup><https://www.yha.org.uk/affiliate-programme>(murojat sanasi 20.04.2018)



**2.2.9-rasm. Angliya&Uyels assotsiatsiyasi xosteli (YHI South Downtown)**



**2.2.10-rasm.Angliya&Uyels xostellari assotsiyatsiyasi xodimlari**

**AQSH xostellari assotsiatsiyasi.** AQSH xostellari assotsiatsiyasi har yili yuzdan ortiq mamlakatlardan bir milliondan ortiq mehmonlarni qabul qiladi. Amerikalik Izabel va Monro Smitlar 1933 - yilda ikkinchi xalqaro federatsiya yig‘ilishida qatnashganlaridan so‘ng, 1934 - yilda Amerikaning shimolida Massachus shtatida Amerikadagi birinchi xostelni ochishdi. Amerika xostellari assotsiyatsiyasi shu tariqa dunyoga keldi.

Bir yil mobaynida Amerika yoshlar xostellari zanjirida 30 dan ortiq xostellar mavjud bo‘lgan. Uning rivojlanishi keng jamoatchilik e’tiborini jalb qildi. 1936 - yilda AQSH Prezidenti Franklin De Ruzvelt xostellar haqida «Men bunday turdagи joylashtirish vositasini o‘rgandim va uning zarurligini tushundim, bu men eshitganlarim ichida eng yaxshi ta’lim vositasi va xattoki, maktablardan ham yaxshiroq» - deb ta’kidlagan edi.

Ikkinci jahon urushigacha, 1930 - yillarda Yevropa siyosiy jamiyati ko‘pgina harakatlarni amalga oshirdi va xostellarning ba’zilari harbiy maqsadlarda ishlatildi. Ikkinci jahon urushi yillarida dunyo bo‘yicha qayta qurilish boshlandi. Xalqaro yoshlar sayohati davlatlar tomonidan qo‘llab - quvvatlandi. Buning asosiy sababi millatlar o‘rtasida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan nizolarning oldini olish edi.

AQShda Jon Rokfelli III xostellar ahamiyatini yuqori baholadi va bir necha yillar davomida assotsiatsiya prezidenti sifatida faoliyat olib bordi. Tashkilot 1949 - yilda notijorat tashkilot sifatida tashkil etildi. Milliy tashkilot 1961 - yilda Pensilvaniyada birinchi xostelni sotib oldi. 1980 - yilda San - Fransiskoda Milliy Park (National Park Service) bilan hamkorlikda yirik xostel ochdi. 80 - yillarning oxirida Boston, Mayami, Santa - Monika, Settle va Vashingtonda ko‘pgina xostellar ochildi. 1990 - yillarda esa Chikago, Nyu - York, Orlando, San - Diyego va San - Fransiskoda xostellar ochildi. 1994 - yilda assotsiyatsiya tomonidan xostellarni strategik rivojlantirish dasturi qabul qilindi. 2004 - yil 11 - sentyabrdagi mudhish hodisa nafaqat

AQShni balki butun dunyoni hayratda soldi va yil davomida xalqaro sayohatchilar soni keskin kamaydi.




**2.2.11-rasm. «Errigal» xosteli, AQSH**

AQSH xostellar assotsiyatsiyasi 30dan ortiq barqarorlik sertifikatiga ega. Assotsiatsiya tomonidan turli xil dasturlar amalga oshiriladi.

Bugungi kunda AQShning 19 shtatlarida ellikdan ortiq xostellar yiliga 1 milliondan ortiq sayohatchilarni qabul qilish imkoniyatiga ega. 2016 - yilda 1149563 nafar mehmonlarga xizmat ko'rsatilgan. Shu yili assotsiatsiyada 1651 nafar volontyorlar faoliyat olib borgan. Bundan tashqari u 5729 ta'lim dasturlarini amalga oshirgan.

**Xalqaro yoshlar xostellari federatsiyasining xostellarni standartlashtirish tizimi.** Federatsiya (HI) dunyo bo'ylab o'zining xostellariga xalqaro sifat standartlarini joriy qilgan bo'lib, minimum talablarga javob bergan holda xizmat ko'rsatishi lozim. Bu standartlarning maqsadi dunyoning qaysi burchagidagi xostellarning mehmonlari bo'lishidan qat'iy nazar, xizmatlar va qulayliklar

yaratish davomida mehmonlarning talablarini va istaklarini qondirishdan iboratdir.



**2.2.12-rasm. Xalqaro yoshlar xostellari federatsiyasi sertifikatiga ega xostellar (mamlakatlar bo'yicha, foizlarda)<sup>18</sup>**

### **HI-Q – Xalqaro xostellarning sifatini boshqarish sistemasi –**

Mijozlaring xalqaro miqiyosda qulay sayohat qilishi va xavfsiz joylashtirish vositasidan foydalanishi federatsiyaning bosh maqsadi hisoblanadi. Mana shu maqsadda u joylarda yagona standartni joriy qilgan bolib, bu standartlar xizmatlar va mahsulotlar, yuqori malakali ishchi xodimlar, to'g'ri tashkillashtirilgan strategiya, rivojlanishning turli xil usullaridan iborat. Bular **HI-Q standarti sistemasi deb ataladi**. Bunday sertifikatlashtirishning quyidagi 3 darajalari mavjud:

1. **HI - Q light** – kichik mehmonxonalar uchun joriy qilingan sertifikat;
2. **1 - daraja (Level 1) va 2 - daraja (Level 2)** – o'rta va kattaroq mehmonxonalar uchun joriy qilingan sertifikat;

<sup>18</sup>[https://www.fordamalastofa.is/static/files/fordamalastofa/tolur\\_utgasfur/fundir/sjalsbaerni14/brianda\\_lopez.pdf](https://www.fordamalastofa.is/static/files/fordamalastofa/tolur_utgasfur/fundir/sjalsbaerni14/brianda_lopez.pdf) (murojat sanasi 20.04.2018)

3. **Office module** – to‘la samaradorlik va sifatlilik bilan mijozga xizmat ko‘rsatilishni ta’minlaydi.

HI - Q uzoq muddatga mo‘ljallangan bo‘lib, hozirda 50 ga yaqin assotsiyatsiyalar va 500 dan ortiq mehmonxonalarini qamrab olgan. Faqatgina mana shu xostellar xostellar federatsiyasining sifat standartiga javob beradi va bu har uch yilda qayta sertifikatlashtiriladi. Bundan tashqari HI - Q&S (sifat va barqarorlik) sertifikati ham mavjud.



**HI-Q – HI's Quality Certified Hostel's logo**



**HI-Q&S - HI's Quality & Sustainability Certified Hostel's logo**

#### **2.2.13-rasm. (IYHF) Federatsiyaning sifat va sifat & barqarorlik standartiga ega xostellarning logotiplari**

Bular sifat standartiga javob berish bilan birga mahalliy iqtisodiyotga, jamiyatga va atrof - muhitga ijobjiy ta’sir qilgan holda faoliyat ko‘rsatadi.

Akkreditasiya quyidagi mezonlarga erishgan holda amalga oshiriladi:

- samarali barqaror boshqaruvgaga erishish;
- mahalliy jamiyatga ijtimoiy va iqtisodiy, madaniy meros va atrof - muhitga foydani maksimallashtirish va zararni minimallashtirish;
- bioxilma - xillikni saqlash, ekotizimni va landshaftni saqlab qolish.

Shu bilan birga HI - Q&S sertifikati GSTC (Global Sustainable tourism council) Global barqaror turizm kengashi tomonidan tan olingan.

Sifat standartlari jamoat qoida va talablariga javob bergan holda amalga oshiriladi. Federatsiya xostellari standartlari ikkita kategoriyaga bo‘linadi:

1. **M – talablar** (mandatory requirements) – har bir federatsiya xosteli amal qilishi majburiy bo‘lgan talablar.

2. **S – qo‘sishimcha talablar** (supplemental quality) – xostel xizmatlarini ko‘rsatishda yanada qulayliklar yaratadigan talablar.

1994 - yilda Xalqaro yoshlari xostellari federatsiyasi tomonidan qo‘sishimcha standartlar qabul qilindi. Ular quyidagi 5 qismdan iborat:

1. Qabul qilish va muomila madaniyati (Welcome)
2. Tozalik va tartib (cleaness)
3. Xavfsizlik (Safety)
4. Shaxsiylik (xususiylik) /maxfiylik (Privacy)
5. Qulaylik

Har bir qismda o‘zining minimum talablari mavjud bo‘lib, federatsiya tomonidan xostel sifatida tan olinishiga va xostelga federatsiya logotipi ostida rasmiy faoliyat olib borish huquqini beradi.

Xostellar faoliyati va ko‘rsatadigan xizmatlariga ham ma’lum bir talablar qo‘yiladi. Bu talablar quyidagilardan iborat:

**M1. Mehmonlar diskraminatsiyasi (kamsitish) ta’qiqlanadi.**

Federatsiya xostellari barcha uchun ochiq. Mehmonlarning irqi, millati, jinsi, dini, mazhabi, ijtimoiy darajasi va siyosiy qarashlaridan qat’iy nazar bir xilda qabul qilinadi va xizmat ko‘rsatiladi. Har bir mehmonga sifatli xizmat ko‘rsatish va do‘stona munosabatda bo‘lish lozim.

**M2. Mehmonlar xavfsizligi.** Sodir qilinishi mumkin bo‘lgan og‘ir jinoyatlarga o‘g‘rilik, haddan ortiq alkogol ichimliklar ichish, giyohvand moddalar iste’moli va boshqalar yo‘l qo‘yilmaydi va bunday shaxslar xostelga qolishiga ruxsat berilmaydi.

**M3. Xostel sharoiti va atrof - muhit.** Barcha federatsiya xostellari va uning jamoalari tozalik va ozodalikka rioya qilishlari lozim. Bu barcha ichki va tashqi bo‘limlar jumladan: yo‘llar va atrof-muhit. Barcha mebellar va jihozlar toza va yaxshi sharoitda saqlanishi lozim. Bundan tashqari, ichki va tashqi bo‘yagan yuzalarga, pol va devorlarga alohida e’tibor qaratilishi hamda barchaerezalar yoriqlar yoki darz ketishlardan holi bo‘lishi lozim. Tashqi chiroqlar ayniqsa, talab darajasida bo‘lishi lozim.

**M4. (HI) Federatsiyaga a’zolik.** Federatsiya xostellariga tunab qolish uchun unga a’zo bo‘lish talab etilmaydi. Ammo, a’zolik guvohnomasini ko‘rsatgan mehmonlarga bir qator imtiyozlar taqdim etiladi. Har bir xostel a’zolik kartasini (20-rasm) sotishi va mehmonlarga a’zolikning imkoniyati hamda qulayliklarini tanishtirishi lozim. A’zolik kartasi xostel joylashgan mamlakatning doimiy yashovchi aholisi (rezidentlari) olishlari mumkin.



**2.2.14-rasm. Federatsiya xosteliga a’zolik kartasi**

A’zolik kartasini olish uchun maxsus blanka to‘ldirilishi lozim (uning nusxasi 5-ilovada keltirilgan).

Federatsiya xosteliga 4 yoshgacha bo‘lgan bolalar bepul qabul qilinadi va xizmat ko‘rsatiladi. Ular bolalar uchun maxsus krovatda yoki ota - onalari bilan birga tunashlari mumkin. 4 – 12 yoshgacha bolalarga esa maxsus chegirmalar taqdim etiladi.

**M5. Xostelda qolish muddati.** Mehmonlar xostelda xohlagan muddatlarigacha tunashlari mumkin.

**M6. Propaganda.** Federatsiya xostellarida hech qanday diniy va siyosiy targ‘ibotlarga ruxsat berilmaydi. Xostellar turli xil dunyoqarashga, e’tiqodga va fikrga ega barcha mehmonlar uchun ochiq. Mehmonlarga zarar yetkazishi mumkin bo‘lgan materiallar va ashyolarga ruxsat berilmaydi.

**M7. Ma’lumotlar berish va buyurtmalar.** Barcha buyurtmalar va buyurtma qabul qilingan joylar o‘z vaqtida va sifatli bajarilishi lozim. Tizim buyurtmadagi qabul qilingan joy va xizmatga mosligini nazorat qilishi mumkin.

**M8. Targ‘ibot materiallari.** Barcha xostellar uchun targ‘ibot materiallari ta’minlangan bo‘lishi lozim. Har bir xostelning yagona jihatni federatsiya assotsiyatsiyalari va xostelning o‘zi tomonidan reklama qilinishi lozim.

**M9. Belgi va ko‘rsatkichlar.** Barcha belgi va ko‘rsatkichlar mos joylarga aniq qilib belgilangan bo‘lishi lozim. Xostel joylashgan manzil ko‘rsatkichlari federatsiya logotipi ostida ko‘rsatilishi kerak. Barcha belgi va ko‘rsatkichlar toza va yaroqli holda saqlanishi lozim.

**M10. Xostelda chekish.** Xostel ichida chekish ta’qiqlanadi. Xostel tashqarisida esa ruxsat etilgan hudud aniq belgilab qo‘yilgan bo‘lishi va xostelda yashovchi chekmaydigan mehmonlarga zarar yetkazmaydigan joyda joylashgan bo‘lishi lozim. Bundan tashqari tamaki mahsulotlari chiqindisi uchun maxsus joy bo‘lishi zarur.

**M11. Litsenziya.** Har bir xostel o‘z mamlakatining qonun - qoidalariga qo‘shimcha ravishda ruxsatnoma va boshqaruv litsenziyalarini olishi hamda uni mehmonlarga oson ko‘rinadigan joyga qo‘yishi lozim.

**M12. Statistika.** Xostelda tunovchilar haqidagi ma’lumotlar har oyda tayyorlanishi va har oyning beshinchi sanasida statistika bo‘limiga yuborilishi lozim.

**M13. Qabul vaqtি.** Qabul vaqtি, xodimlarning qachon va qayerda bo‘lish vaqtি haqidagi ma’lumotlar ko‘rsatilishi lozim.

**M14. Xodimlar.** Xodimlar federatsiya logotipi ostidagi beyjikda alohida ajralib turishlari lozim. Ular doimo yordamga

tayyor, do'stona munosabatda bo'lishlari, mehmonlarni qabul qilish vaqtida ularga xostel binosi va xostel taqdim etadigan xizmatlar haqida ma'lumotlarga ega bo'lishi zarur.

**M15. Bolalar Federatsiya** xostellari oilasi bilan sayohatga chiquvchilarning bolalari uchun bolalar krovati va oshxonada maxsus stul bilan ta'minlangan bo'lishi lozim.

**M16. Ro'yxatdan o'tish.** Yakka mijozlar identifikatsion hujjati va pasport raqami bilan ro'yxatdan o'tishlari shart. Faqatgina sayohat agentliklari orqali buyurtma qilgan guruh (9 kishidan ko'proq sayohatchilar) bundan mustasno.

**M17. Favqulotda holatlar.** Favqulotda holatlar telefon raqami – 112, bundan tashqari har bir xostel o'zining Favqulotda holatlar telefon raqamiga ega bo'lishi va u xostelning kirish qismida aniq ko'rinish turishi lozim.

**M18. Me'yordan ortiq buyurtmalar.** Buyurtma qilgan mehmonlar joy bilan ta'minlanishi lozim. Agar xostel me'yordan ortiq buyurtmalar qabul qilgan bo'lsa, xostel menejeri mehmonni yaqin joydan xuddi shunday joy bilan ta'minlashi va agar narxlarda tafovut bo'lsa, uni to'lashi shart.

**M19. Jamoaning malakasini oshirish.** Menejerlar xostel xodimlarini federatsiya va uning xostellari haqida habardor qilishi hamda ularning malakasini muntazam ravishda oshirilishini ta'minlashi lozim.

**M20. Ma'lumotlar.** Xostelda mehmonlar foydalanishlari uchun u haqidagi umumiylar ma'lumotlar, Harita, sayohat ma'lumotnomasi va boshqa umumiylar ma'lumotlar bo'lishi lozim. Bundan tashqari xostel quyidagilar haqidagi ma'lumotlarni ta'minlashi kerak bo'ladi:

- Xostel ta'minlaydigan shart - sharoitlar va xizmatlar;
- Joylashish va boshqa xizmatlarning narxlari yozilgan ro'yxat;
- Avtobuslar qatnovi jadvali hamda boshqa transport vositalarining harakat jadvallari;

- Xostelning yaqin atrofida mavjud bo‘lgan qiziqarli joylar to‘g‘risidagi ma’lumotlar;
- Xostel qoidalari, reklamalar va boshqa muhim ma’lumotlar;
- Qabul vaqt va xodimlarning ish joyida bo‘lish vaqt;
- Tozalik va xavfsizlik instruksiyasi;
- Ro‘yxatga kirish vaqt;
- Ro‘yxatdan chiqish vaqt;
- Ob – havo ma’lumotlari.

**M21. Izlanishlar.** Har bir xostel ko‘rsatilgan xizmat va yaratilgan shart - sharoitlari haqida o‘z mehmonlarining fikrlarini bilishi maqsadida so‘rovnama tashkil etishlari va ularning ushbu so‘rovnomada qatnashishlarini ta’minlashlari lozim. Shu bilan birga mehmonlar ijtimoiy tarmoqlar orqali onlayn so‘rovnomada ham qatnashishlari mumkin.

Mehmonlar o‘zlariga va yuklariga javobgar bo‘lishlariga qaramay, menejerlar ularning xavfsizligini ta’minlash chora - tadbirlarini ko‘rishlari lozim.

**M22. Yong‘in xavfsizligi.** Barcha federatsiya xostellarida o‘t o‘chirish moslamalari bo‘lishi va evakuatsiya qilish chizmasi aniq ko‘rsatilishi lozim. Yong‘in xavfsizligi signalizatsiya tizimi va tutun aniqlovchi qurilma muntazam ravishda tekshirib turilishi lozim.

**M23. Birinchi tez tibbiy yordam.** Birinchi tez tibbiy yordam bo‘limi talablarga javob beradigan barcha jihozlarga ega bo‘lishi va muntazam ravishda almashtirilib turishi lozim.

**M26. Ruxsatnomaga ega bo‘lmagan shaxslar.** Mehmonlarning xavfsizligini ta’minlash maqsadida xostel barcha kerakli chora - tadbirlarni ko‘rishi lozim. Xostelga ruxsatnomaga ega bo‘lmagan shaxslarning kirishi man etiladi. Ruyxatdan o‘tish mobaynida mehmonlarga kalitlar va kalitlar kartasi beriladi.

**M24. Ikki qavatli krovat.** Menejerlar xostel xonalaridagi ikki qavatli krovatning to‘g‘ri va xavfsiz joylashganligi uchun javobgar hisoblanishadi.

**M25. Mehmonlarning yuklari va qimmatbaho buyumlari.** Xostel mehmonlarning yuklari va qimmatbaho buyumlarining xavfsizligini ta'minlash maqsadida maxsus bo'limga qo'yishlarini tavsiya etishadi.

**M26. Hasharotlar.** Xostel xonalarini xasharotlar va boshqa zararkunandalardan himoyalanishning barcha chora - tadbirlarini ko'rishlari lozim.

**M27. Hayvonlar.** Xostelga hayvonlarni olib kirish qat'ian ta'qilganadi. Maxsus holatlar bundan mustasno. Masalan, buyurtma vaqtida maxsus ruxsat so'ralgan va qo'lga o'rgatilgan it bo'lsa mumkin. Xostellar ular uchun alohida maxsus bo'limlarni tashkil etishi hamda hayvonlar ruxsat etilish belgisi qo'yishlari lozim.

Xostellarning xonalari ma'lum tartib va talablarga javob berishi kerak. Ularga quyidagi talablar quyiladi:

**M28. Xona turlari.** Federatsiya xostellar shaxsiy xonalar va umumiylar ega bo'lishi lozim. Xonalar soni hamda umumiylar yotoqlar soni xostelning hajmidan kelib chiqadi.

**M29. Xona maydoni.** Uxlash uchun har bir shaxsga ajratilgan minimum joy  $5\text{ m}^2$  hamda har bir yotoq krovati uchun ajratilgan minimum joy  $4\text{ m}^2$  bo'lishi lozim. Ikki qavatli krovatlar uchun ikkinchi qavatidagi krovat va shiftning minimum masofasi 75 smdir.

**M30. Yotoqxona bo'limi.** Har bir yotoqxona krovat (yotoq)dan tashqari quyidagilarga ega bo'lishi kerak:

- Stol va stullar
- Oyna
- Chiqindilar uchun quti
- Parda
- Kiyim ilgich (bir kishi uchun kamida 2 dona) yoki garderob
- Ochiladigan dereza
- Sifatli chiroq

**M31. Yotoq o'lchami.** Federatsiya xostellarida yuqori sifatli yotoqlar bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Bir kishilik yotoqning

minimum o'lchami 80X190 sm va yotoqlar o'rtasidagi minimum masofa 75 sm, ikki kishilik yotoqning o'lchami esa 90X200 sm va kengligi esa minimum 150 sm tashkil etishi kerak.



**2.2.15-rasm. Zamonaviy xostel yotoq krovati** <sup>19</sup>

**M32. Yotoq va matras.** Matras kamida 12 sm qalilikda bo'lishi lozim. Har bir matrasda choyshab bo'lishi va o'z vaqtida olib yuvilishi hamda yaxshi holatda saqlanishi kerak. Matras, adyol va yostiq ustidagi yopinchiquqlarsiz ishlatilishi mumkin emas. Ular yopiq joyda saqlanishi lozim.

**M33. Chiqindilar uchun quti.** Xostelning har bir xonasi uchun chiqindilar qutisi bo'lishi lozim.

**M34. Havo saqlash.** Har bir xona toza (yaxshi) havo bilan ta'minlangan bo'lishi lozim.

**M35. Yuvinish bo'limi – umumiylar.** Hojatxona, rakvina, dush, oyna va boshqa jihozlar toza – ozoda, bakteriyalardan xoli holda yaxshi sharoitda saqlanishi lozim.

#### **M36. Yuvinish xonasi uchun minimum talablar:**

- ✓ Har 12 nafar mehmonga kamida 1 ta hojatxona (qizlar va o'g'il bolalar uchun alohida);
- ✓ Har 6 nafar mehmonga kamida 1 ta rakvina;
- ✓ Har 15 nafar mehmonga kamida 1 ta dush (yoki vanna);

<sup>19</sup>Hostelling and youth tourism, 2017 year, Greg Richards  
<https://independent.academia.edu/gregrichards>(murojat sanasi 20.04.2018)

- ✓ Har bir dush/vanna uchun 2 ta ilgak va yuvinish uchun kerakli buyumlar shkafi.



**2.2.16-rasm. Xostel yotoqxonalari**

**M37. Suv ta'minoti.** Barcha xostellar issiq va sovuq suv bilan ta'minlangan bo'lishi lozim.

Butun dunyo miqyosida sayohat qiluvchi yoshlar sonining ortishi ularga ko'rsatiladigan xizmat turlarining ham ko'payishiga olib kelmoqda. Sayohatni amalga oshirishda asosiy harajatlardan birini egallagan joylashtirish vositalarining har tomonlama quulay va muqobil narxlarda taqdim etilishi muhim hisoblanadi. Ayniqsa, yoshlar turizmida joylashtirishning tobora ommalashib borayotgan eng muqobil turlaridan biri – bu yoshlar xostellaridir. Ular har tomonlama, jumladan: quaylik, xawfsizlik, tozalik va ayniqsa narx jihatdan yoshlarga moslashtirilganligi bilan ajralib turadi. Xalqaro

amaliyotda xostellarni tashkil etish va boshqarishni inobatga olib, mamlakatimizda ham mana shunday xizmatlarni tashkillashtirish kelajakda yoshlар sayohatlarini tobora ortishiga zamin yaratiladi.

Xalqaro yoshlар xostellari federatsiyasi bilan yaqindan hamkorlik aloqalarini olib borish, tajriba o‘rganish va uni mamlakatimizda joriy etish, Respublikamizdagi yoshlар xostellarini xalqaro standartlarga javob beradigan holda faoliyat yuritishini ta’minlash, keyinchalik esa Respublikamizda tashkil etiladigan xostellar assotsiatsiyasini Xalqaro yoshlар xostellari federatsiyasiga a’zo qilish oldimizdagi eng muhim vazifalardan biridir.

### **2.3. Rotellarining paydo bo‘lish tarixi va rivojlanishi**

Rotel bu - bir yoki ikki kishilik uyqu xonalari mavjud bo‘lgan avtoulov yoki avtobusdan iborat ko‘chma yoki g‘ildirakli mehmonxonadir.

Rotelga ikki xil ta’rif berish mumkin:

1. Rotel bu - ikki qavatli yo‘lovchilar avtobusi, bir necha kun davomida sayohat qilish uchun mo‘ljallangan, uning birinchi qavatida yo‘lovchilar o‘rindiqlari va yashash joylari, ikkinchi qavatida - uqlash uchun maxsus yotoq joylari joylashgan mehmonxonadir.

2. Rotel bu - bir yoki ikki kishilik xonalardan iborat oshxona va hammom bilan jihozlangan qatnov transporti sifatida, qoida bo‘yicha, turistlar kun bo‘yi shahar turlariga chiqib, tunda asosan dam olish uchun mo‘ljallangan g‘ildirakli joylashtirish vositasi hisoblanadi.

Iloji boricha ko‘proq joylarni ko‘rishni afzal ko‘radigan sayohatchilar mehmonxona xonasida bo‘lmasdan, ROTEL TOUR nemis kompaniyasining mehmonxonasini yuqori baholaydilar.



### **2.3.1-rasm. ROTEL TOUR transporti sayohati**

Rotel tizimini Jorj Xoll ixtiro qilgan bo‘lib, jurnallar, gazetalar, televideniya va radiodan ko‘plab maqolalar Rotel sayohatlarini dunyoga mashhur qildi.

Bu nomning birinchi harfi «R» bu inglizcha - Rollands so‘zidan olinib, «Otel» so‘zining qo‘shilishidan «ROTEL» (g‘ildirakli mehmonxona) nomi kelib chiqqan.

«Rotel» 1959 - yilda, kompaniya egasining fikriga ko‘ra, avtobus uchun ko‘p krovatli uqlashga mo‘ljallangan treyler qurilganida paydo bo‘ldi. Keyinchalik, kompaniya barcha yo‘lovchilar va ularning yuklari uchun o‘rnatilgan yotoqxonasi bilan turistik laynerlarni sotib oldi.

Ammo ROTEL TOUR kompaniyasi ushbu transport voqeliklarini inobatga olib, sayohat qilish uchun maxsus mehmonxona - Rotelni yaratdi. U mehmonxona va aslida avtobusni birlashtirgan Mercedes 0404 avtobusi asosida yaratilgan transport vositasi hisoblanadi. Kompaniyaning barcha harakatlanuvchi

mehmonxonalarini «Mercedes» rusumidagi avtobuslar va yuk mashinalaridir.

Turistik guruhdagi sayohatchilar soni foydalanadigan transport turiga qarab 20 dan 40 nafargacha bo‘lishi mumkin. Salonida yo‘lovchilar uchun o‘rtacha 24 ta qulay o‘rindiq, yo‘lak orqa tomonda haydovchi va uning yordamchisi uchun ikkita qo‘sishimcha o‘rindiq bilan jami 26 ta o‘rindiplardan iborat. Hammasi bo‘lib Rotel Tours mehmonxonasi 3,400 o‘ringa ega.

Yo‘lovchilar xonalari butun dunyoda ishlataladigan barcha yo‘lovchi transport vositalari uchun standart hisoblanadi ya’ni «o‘rindiplar»ning har biri 1,83 metr va balandligi 0,9 metr bo‘lib, deyarli butun maydoni krovat bilan qoplangan. «Xonalar» bir va ikki kishilikdir. Sleeping kupelar mashinaning orqa tomonida joylashtirilgan yoki alohida avtobus tirkamada qo‘shilgan bo‘ladi. Yotoqxonasi yopilgan holatda bo‘lib, mashinani boshqarish paytida kirish mumkin bo‘lmaydi. Avtoturargohga kelganida uqlash joyi 5 daqiqa ichida tayyor bo‘ladi.



**2.3.2-rasm. ROTEL TOUR transporti sayohati**

Sayohatchilarning har biri o‘z to‘shagi, o‘z joyi, bir va ikki kishilik shkafiga hamda ovqatlanish stoliga ega. Har bir vaakumli xonaning derazasi quyosh nuri va chivinli to‘r, yorug‘lik va choyshablar bilan ta’minlangan. Sayohatchilarning yukjlari sayohatning har uchinchi kunida almashtirish mumkin bo‘lgan avtobusning yuk bo‘limiga juda mos keladi. Yuklarga kirish oralig‘ida barcha kerakli narsalarni «3 kunlik sumka» ga qo‘yish tavsiya etiladi.

Ushbu g‘ildirakli mehmonxonada vakuumli hojatxona va oshxona mavjud ammo dush yo‘q. Odatda, uning o‘rniga lagerlarda, ba’zi mamlakatlarda esa yo‘nalish bo‘yicha byudjetli mehmonxonalarda, dam olish uylari yoki xususiy uylarda bo‘ladi. Bunday hollarda sayohatchilar dush va hammom uchun xonalarni ijara olishlari mumkin.



**2.3.3-rasm. ROTEL TOUR transporti sayohati**

ROTEL TOURS mashinalarida sayohat qilish juda o‘ziga xosdir. Patentlangan kabinada bir kechada tunash yo‘lovchilarga mustaqil va individual sayohatlarni amalga oshirishga imkon beradi, bu yarim asr davomida Rotel turlarining tajribasi bilan tasdiqlangan.

Rotelda uqlash xonasi bo'lmasidan turib, uzoq avtobus ekspeditsiyasini amalga oshirish mumkin emas. Bu esa sayohatchilik infratuzilmasidan uzoqda bo'lgan qulaylikni ta'minlaydi. Minimal qulaylikka ega «Rotel» sayohatchilarga deyarli dunyoning turli mamlakatlariga haqiqiy tashrifni ko'rish imkonini beradi. ROTEL TOURS bilan barcha sayohatlar juda samimiy va jamoaviy ko'rinishida tashkil etilib, belgilangan turmarshrut orqali haydovchi va uning sherigi ko'rsatmasi bo'yicha sayohatlar amalga oshiriladi.

Hammasi bo'lib kompaniya, Yevropa, Afrika, Yaqin Sharq, Osiyo, Avstraliya va Yangi Zelandiya, shuningdek, Shimoliy va Janubiy Amerika bo'ylab 150 ga yaqin, davomiyligi - 60 kungacha bo'lgan turmarshrtlarni taklif etadi. Sayohat marshruti bir kecha - kunduzda to'xtab turish uchun eng yaxshi va chiroyli turar joylardan iborat, ikkala mamlakatda ham bo'lib, bir nechta mamlakatlar yoki qit'alarni qamrab olishi mumkin.



**2.3.4-rasm. Sayohatdagi yovvoyi piknik**

Turmarshrut va turistik dasturlar oddiy tashkil etilgan bo'lib, avval sayohatchilar samolyot orqali tanlangan marshrutning

boshlang‘ich nuqtasi bo‘lgan shaharga boradilar va u yerda sayohatchilarni g‘ildirakli mehmonxona kutib oladi. Sayohat oxirida mehmonlar yana o‘scha shaharga yetkaziladi.

Nonushta va kechki ovqat Rotelning birlashtirilgan oshxonasida tayyorlanadi. Nonushta oddiy usulda tashkil etiladi. Shuningdek, kechqurun mahalliy va yangi mahsulotlardan tayyorlangan taomlar taqdim etiladi. Chunki safar bo‘lib o‘tadigan mamlakatlarning milliy taomlarini tatib ko‘rish yoki pishirib ko‘rish uchun har doim imkoniyat mavjud bo‘ladi. Shuning uchun tushlik esa xududlardagi mahalliy restoranlarda tashkillashtiriladi.

Sayohatda yovvoyi pikniklar ham juda mashhur bo‘lib, faqat ba’zi holatlarda (cho‘lda tushlik tanaffusi yoki mamlakatda ovqatlanish qiyin bo‘lgan vaziyatlarda) Rotel oshxonasida ham tushlik qilish mumkin. O‘rnatilgan stollar va o‘rindiqlar ochiq havoda joylashtiriladi, yomg‘ir paytida tushlik avtobusda ham tashkillashtirilishi mumkin.

## **2.4. Botellarining paydo bo‘lish tarixi va rivojlanishi**

Botel bu - mehmonxona yoki yotoqxona vazifasini bajaradigan suvdagi kema. Suv ustidagi mehmonxonaga aylantirilgan eski kema doimiy ravishda erga o‘rnatilgan bo‘lib, hech qayerga suzib ketmaydi. Bu turdagи mehmonxonalar ya’ni botellar zarur aloqa kommunikasiyalari bilan ta’milnab, yashash uchun xuddi an’anaviy mehmonxonalardagidek barcha sharoitlar yaratilgan.

Ushbu mehmonxonaning nomi inglizcha «boat» - «qayiq» va «hotel» - «mehmonxona» so‘zlarining birlashishi natijasida paydo bo‘lgan. Bunday kemalarda turli xil tadbirlar, festivallar, to‘ylar va boshqalar o‘tkazilishi mumkin.



**2.4.1-rasm. Botel turlaridan biri**

Lekin botelni kruiz kemasi bilan adashtirmaslik kerak, qoida tariqasida, kruiz kemasi dengiz orqali portdan portgacha harakatlanadigan hashamatli besh yulduzli (\*\*\*\*\*) mehmonxona hisoblanadi. Ular asosan faqat mavsumda ishlaydi.

Botelni yaratishda suzish uchun ruxsat berilmagan, muddati o'tgan kruiz laynerlari, shuningdek kichik kemalar eskirganligi sababli yo'nalishdan olib tashlangan eski daryo kemalari tanlab olingan. Tanlashda kema egasi ikki omilni inobatga olgan: biri, uni qayta ishslash uchun yuborish, ikkinchisi esa odatdagি mehmonxonaga o'xhashi uchun ozroq miqdorda mablag sarflash evaziga «qayta qurish» dan o'tishi kerak edi.

Kema egalarining duch keladigan yana bir muammosi, ilgari idish sifatida xizmat qilgan xonalar maydonini kengaytirishning iloji yo'qligidir. Shuning uchun botellar byudjet uyi hisoblanadi, chunki ularning klasslari kamdan - kam hollarda 4 yulduzga (\*\*\*\*) etadi va asosan, bu uch yulduzli (\*\*) joylashtirish vositasi hisoblanadi.



#### **2.4.2-rasm. Botel turlaridan biri**

Bundan tashqari Xitoyda ham xuddi shu kabi nostandart suvdagi ulkam mehmonxona yaratildi. 1996 - yilda arzon narxda sotib olingan qayiq qayta ishlanib, harbiy kema sifatida Xitoyning Tianjin shahrida (Binxay tumani) navbatchilik qilmoqda. Tianjin aviakompaniyasining ushbu mehmonxonasi besh yulduzli (\*\*\*\*). Uning uzunligi 273 m, kengligi - 53 m va 6 km<sup>2</sup> maydonda 148 ta xona tashkil etilgan bo‘lib, ulardan 2 tasi prezident nomer va 3 ta VIP nomerlardir. Shuningdek, bortda hashamatli restoran, rus oshxonasi ham mavjud. Ular loyihaga 10 mln \$ dan ko‘proq mablag sarflashgan.

Ammo endi biz klassik qayiqlar - suvdagi kichik mehmonxonalar haqida gaplashamiz. Suvdagagi bunday mehmonxonalarning afzalliklaridan biri, shaharning markazida (har doim ham emas) arzon narxda yashashni o‘z ichiga oladi. Ajoyib ko‘rinish, tabiiy muhit, toza havo va boshqalar suvda dam olishni istovchilar uchun ajiyob imkoniyatdir.

Kamchiliklari esa kemadagi kabinetalar kichkina, shuning uchun kema to‘rt yulduzdan yuqori bo‘lmaydi. Bunday mehmonxonalarining ko‘philigi uch yulduzli (\*\*\*\*) talabga javob beradi.



**2.4.3-rasm. Botel turlaridan biri**



**2.4.4-rasm. Botelning ichki ko‘rinishi**

Botel - uzoq sayohatga chiqishdan oldin suvda bo'lish tuyg'usini sinab ko'rmoqchi bo'lganlar uchun ajoyib tanlovdir. Bu kabi kemalar asosan sayohatchilarni jalb qiladigan shaharlarning diqqatga sazovor joylarida tashkil etiladi.

Hozirgi kunda suv ustidagi mehmonxonalar Praga, Amsterdam, Barselona, Bratislava, Budapesht, Varshava, Stokholm, Moskva, Kiyev, Dneprda qolaversa, AQSH va Kanada davlatlarida ham tashkil etilgan.

Quyida dunyodagi eng mashhur bo'lgan botellerning ayrinlari haqida ma'lumotlar keltirib o'tilgan.


1. «**Golf Yacht**» to'rt yulduzli (\*\*\*\*) Yevropadagi eng hashamatli kemalardan biridir. 1980 - yilda Hamburgda qurilgan kema bo'lib, daryolar bo'ylab suzgan va natijada uning to'liq rekonstruksiyasi mehmonxona egasiga 4 mln yevroga tushdi.



**2.4.5-rasm. «Golf Yacht» nomli kemasi**

Bu ayniqsa, golf o'yinini xush ko'radiganlar uchun tavsiya etiladi. Kema bortida mijozlar haqiqatan ham sport o'ynashi va zamonaviy

elektron golf simulyatorida uzoq vaqt urishni mashq qilishlari mumkin. Shuningdek, mijozlar kichik yaxtani ijaraga olib, Vltava bo‘ylab sayr qilishlari ham mumkin. Bortda yaxshi restoran, Tailand spa va fin saunasi xizmatlari tashkil etilgan.



**2.4.6-rasm. «Golf Yacht» nomli kemaning restorani**

2. «Dneprovskiy» kapitan - klubining to‘rt yulduzli (\*\*\*\*) mini - kemasi Dnepr qirg‘og‘ida, Kiyevdagi daryo portida joylashgan. Shou - biznes yulduzlari bu sokin, ulug‘vor marinani yaxshi ko‘rishadi va hatto lyuks xonalardan birini «Alla» deb atashadi. Qayiqda 20 ta xona bo‘lib, ularidan 8 tasi hashamatli xonalar. Ular bir - biridan jakuzi va vannasi bilan farq qiladi. Bundan tashqari, bortda - restoran, bar, massaj salonlari ham mavjud.



**2.4.7-rasm. «Dneprovskiy» nomli kemasi**



**2.4.8-rasm. «Dneprovskiy» nomli kemaning nomeri**

**3. «The LogInn Hotel» (\*\*\*) Shvesiyaning Stokgolm shahridagi botel bo‘lib, Baltiq dengizi bo‘yida joylashagan.**



**2.4.9-rasm. The LogInn Hotel nomli kemasi**



**2.4.10-rasm. «The LogInn Hotel» nomli kemaning restorani**

**4. «Albatros boteli» (\*\*\*)** Praga markazidagi Vltava daryosi bo‘yida joylashgan. Joylashgan joyi juda qulay bo‘lib, Charlz

ko‘prigi, Praga saroyiga juda yaqin. Ushbu botel 86 xonali eng katta kemalardan biridir.

Chexiya va Yevropa taomlarini tayyorlaydigan restorani mavjud. Botelga tashrif buyurgan ko‘pchilik mehmonlar kemaning joylashgan joyi va nonushtasini maqtashadi. Albatros mehmonxonasini mehmonlar qadrlaydigan asosiy narsasi bu - hayratlanarli ko‘rinishdir.




**2.4.11-rasm. «Albatros» boteli**




**2.4.12-rasm. «Albatros» botelining restorani**

**5. «Grakia boteli» (\*\*\*)** - Dunayning o‘ng qirg‘og‘i Bratislava tarixiy markazining Bratislava qal‘asi va Yangi Ko‘prik tomonda joylashgan mehmonxonadir. Uy hayvonlar bilan kemaga chiqishga ruxsat beriladi.



**2.4.13-rasm. «Grakia» boteli**



**2.4.14-rasm. «Grakia» botelining nomeri**

6. «Onego» boteli (\*\*\*) Rossiyaning shimoli - g'arbiy mintaqasida Onega ko‘li bo‘yida joylashgan suvdagi mehmonxona. Ushbu botel 45 kishiga mo‘ljallangan bo‘lib, 26 ta xonalardan iborat.



**2.4.15-rasm. «Onego» boteli**

Kema deyarli shahar markazida joylashgan, lekin mijozlar bir vaqtning o‘zida tabiatdan bahramand bo‘lishlari mumkin. Baliq ovlashga ruxsat berilgan.



**2.4.16-rasm. «Onego» botelining nomeri**

7. «**Aquamarina**» **boteli** (\*\*\*) Budapeshtdagi Romay kvartalidagi 1900 - yilda qurilgan eski rus qayig‘idan qayta ishlangan mehmonxona. Oxirgi ta’mirlash 2006 – yilda bo‘lgan. Ushbu mehmonxona faqat mavsum paytida daryoning narigi tomoniga boradi. Botelning yaqin atrofida ko‘plab restoranlar, ochiq hammomlar va ba’zi madaniy diqqatga sazovor joylar mavjud.



**2.4.17-rasm. «Aquamarina» boteli**



**2.4.18-rasm. «Aquamarina» botelining nomeri**

## **2.5. Flaytellarining paydo bo‘lish tarixi va rivojlanishi**

Tabiatni sevuvchilar va tanho hayot tarzini sevadiganlar uchun haqiqiy jannatda eng muhim narsa bu - «Parvoz» hisoblanadi. O‘zining nomidan ham ma’lumki, «flytel» inglizcha «fly» - uchush va «otel» - mehmonxona so‘zlarining birlashishidan hosil bo‘lgan.

**«Holicopter»** - Sobiq Ittifoqning MI-12 harbiy aeroportiga asoslangan. Ko‘rinishi jihatidan o‘lkan uchuvchi kemada 18 ta xona mavjud bo‘lib, ulardan 16 tasi bir o‘rinli va 2 ta ikki o‘rinlidardan iborat. Bu havo kemasi eng katta vertolyot va birinchi uchuvchi mehmonxonadir.



**2.5.1-rasm. «Holicopter» flayteli**

Flaytel bu - o‘ziga xos joylashtirish vositasi hisoblanadi. Bu sivilizatsiyadan uzoqda joylashgan butun dunyo manzarasini aks etmaydi. Ammo bu umuman mehmonxona yoki kulbada uqlash, olovda ovqat pishirish va daryoda suzish kerak degani emas. Parvozda farovon hayot kechirish uchun barcha zamonaviy texnik jihozlar va yangiliklar mavjud. Mijozlarga eng oliy xizmat turlari

ko'rsatiladi. Flaytelda hattoki basseyn, restoran, kinoteatr va tungi klublar ham mavjud. Bundan tashqari internet, sterio - video tizim, mini bar, dush, massaj, fitnes zal, spa salon, DVD pleyr, stol tennisi, issiq hammom va sauna xizmatlari tashkil etilgan.



**2.5.2-rasm. «Holicopter» flayteli ichki ko'rinishi**

Flaytel joylashtirish vositasi byudjet varianti deb hisoblanmaydi va u shahar tashqarisida joylashadi. Ammo o'z qo'nish chizig'inining mavjudligini inobatga olgan holda, havoda yurish imkonini beradi. Bu kabi uchuvchi mehmonxonalar mijozlarning xohishlariga qarab samolyotda ma'lum vaqt yashashlari va «langar tashlab» bir joydan boshqa joyga ko'chib o'tishlari uchun xizmat qiladi. Agar mijoz bu joyni hatto qisqa vaqtga tark etmoqchi bo'lsa ham, xuddi shu havo transportidan foydalanishi kerak, chunki flayteldan boshqa hech qaysi uchuvchi vosita buni amalga oshira olmaydi.

Umuman olganda, «boy» odamlar o'zi uchun hamma narsaga odatlangan sharoitlar ushbu havo kemasida tashkil etilgan. Eng qizig'i bunday shart – sharoit va xizmatlarga faqat havoda muallaq holda erishish mumkin.

Flaytel - mehmonxonaning juda qimmat turi bo‘lib, faqat VIP va CIP mijozlar uchun tashkil etiladi.



**2.5.3-rasm. «Holicopter» flayteli ichki ko‘rinishi**

Qoidaga ko‘ra, flaytel qo‘nadigan xududlar go‘zal joyda - baland tog‘lar, plato yoki orollarda joylashgan bo‘ladi. Bunday ajoyib xududga yetib kelishning asosiy sharti - xususiy samolyotning mavjudligidir. Bu eng yuqori darajadagi o‘xhash mehmonxonaga tashrif buyurishni istaganlar uchun o‘ziga xos yondashuvdir. Har bir parvozchining qo‘nadigan xududlari, samolyot uchun to‘xtash joylari, ustaxonalari (buzilgan taqdirda), uchuvchilar uchun radiostansiya va ob - havo stansiyalari mavjud. Shuningdek, mehmonlar samolyot yoki balon parvozlaridan bahramand bo‘lishlari ham mumkin. Bu kabi joylashtirish vositasining bitta salbiy tomoni mavjud, u ham bo‘lsa juda qimmat lazzatlanish faqatgina bir necha kishilargagina nasib qiladi.

Birinchi parvoz AQShda, Oklaxoma shtatining Talas yaqinida bo‘lgan. Shuni ta’kidlash kerakki, garchi badavlat odamlardan doimiy talab mavjud bo‘lsa ham ushbu turdagilari mehmonxona juda

kam uchraydi. Uchadigan mehmonxonaning birinchi parvozi 2009 - yil 26 - iyunda Nyu - York aeroportidan amalga oshirilgan. Safar 14 kun davom etib, Bagam orollari, Yamayka, Dominika Respublikasi xududlariga tashrif buyurilgan. Ushbu mehmonxonadagi 2 kishilik nomer narxi 45 ming dollarni tashkil qiladi.



**2.5.4-rasm. «HeliCopter» flayteli parvozi**

Balki kelajakda bunday biznes odatiy mehmonxonalar singari ommalashib ketishi mumkin. Shu bilan birga, bu katta moliyaviy sarmoyani talab qiladigan yana bir istiqbolli biznes g‘oyasidir.

## **2.6. Flotellarining paydo bo‘lish tarixi va rivojlanishi**

Flotel - Deepwater Horizon neft to‘plash kompaniyasida 1970 - yillarning oxiridan boshlab dengizdagi neft qurilmalarida ishlatila boshlangan. Ilk bor asosan dengiz ostini burg‘ulash ishlarini amalga oshirish uchun tashkil qilingan. Ular dengiz osti inshootlari yonida, yarim platformasi suv ostida bo‘lib, ishchilar uzlucksiz ishlaganligi sababli turar joy sifatida foydalanilgan. Keyinchalik bir necha

muammolar kelib chiqishi natijasida moslashtirilgan flotel kemalari uchun yarim suv osti platformalari olib tashlangan. 2005 - yilda Meksika ko‘rfazidagi neftning to‘kilishida tozalash ishlarini olib boruvchi ishchilar flotellardan foydalanishgan.



**2.6.1-rasm. Deepwater Horizon neft to‘plash qurilmasi**

Shunday qilib, dengizda burg‘ulash ishlarini olib boruvchi ekipaj uchun xavfsiz uy - joy sharoitlarini ta’minlash natijasida bu turar joy keyinchalik, sayohat qilishni istovchilar uchun juda katta imkoniyatlar eshigini ochishga sabab bo‘ldi. Ba natijada flotellar dengiz kruiz sayohati uchun suzuvchi mehmonxona yoki ulkan dam olish kemasiga aylandi.

Flotel - suzuvchi mehmonxona hisoblanib, ularning 3/1 qismi suv ichida joylashadi. Bino o‘rniga kema yoki boshqa suzish vositasi mehmonxonaga aylantirilgan, maxsus jihozzangan va minimal 100 kishidan ortiq mehmonlarga xizmat qilishga mo‘ljallangan joylashtirish vositasidir. Bunga misol qilib, kruiz kemalarini aytishimiz mumkin.

5, 7 yoki 10 ta xonadan iborat bo‘lsa bu – flotel emas, balki boteldir. Yuqorida biz botel haqida ma’lumotlar berib o’tganmiz.

Boteldan farqli o‘laroq flotellar suzib ketishi yoki dengiz bo‘yida ham joylashishi mumkin.

Flotellarda sayohat qilish juda qulay bo‘lganligi sababli ko‘pgina turistlar shu tur bo‘yicha sayohat qiladilar. Bu tur ichki turizmga ham juda katta tasir o‘tkazadi chunki, Yevropada aynan Britaniyada bu ichki turizm ancha yaxshi rivojlangan. Flotellarda siz haftalab sayohat qilishingiz mumkin.

Sayyoohlarga shinam xonalar va ochiq havoda dam olish uchun xizmatlarning ma’lum bir to‘plami taklif etiladi. Flotelning yulduzelri qancha yuqori bo‘lsa, xizmat narxi ham shunchalik yuqori bo‘ladi. Turistlar va yo‘lovchilar uchun asosiy va qo‘srimcha xizmatlar a’lo darajada ko‘rsatiladi. Masalan, restoranlar, kafelar, barlar, har xil ko‘ngilochar joylar, kinoteatr, teatr, kazino, go‘zallik salonlari, turli xildagi basseynlar, baliq ovlash, suv chang‘isi, dayving, suv ostida suzish va boshqa sport - ko‘ngilochar majmualar ko‘rinishidagi har qanday xizmatlarni hattoki, sport zallari, tennis korti, mini fudbol maydonlari, kutubxona, axborot ta’minati, kongress va konferentsiyalar o‘tkazish xizmatlarini taklif qilishadi. So‘nggi paytlarda u ko‘pincha biznes va kongress turlari, kongress kruizlari, o‘quv safarini tashkillashtirish uchun ishlatilmogda.

**Kruiz kemasi** – xalqaro kemalarni kirishi mumkin bo‘lgan bir yoki bir nechta portlarning jadvaliga binoan, yo‘lovchilarni qisqa muddatli turistik tashriflar maqsadida kemaga joylashtirgan, guruhli sayyoohlilik dasturida ishtirok etadigan, xalqaro qatnovni amalga oshiradigan o‘lkan suzuvchi mehmonxonadir. 1965 - yildagi Xalqaro dengiz kema harakatlanishini engillashtirish to‘g‘risidagi Konvensiyada kruiz kemasi yo‘lovchilarni, guruh dasturlarining qatnashchilarini va kemada bir yoki bir nechta turli portlarga rejalashtirilgan sayyoohlilik tashriflarini amalga oshirish uchun va suzib borishda xalqaro sayohatlarga mo‘ljallangan kema deb belgilangan.

Odatda ularda qo‘yidagi hodisalar sodir bo‘lmaydi:

- ✓ boshqa yo'lovchilarni olish yoki tushirish;
- ✓ yuklarni tushirish yoki yuklash.

Zamonaviy kruiz kemalari bir necha ko'rsatkichlar bilan tavsiflanishi mumkin:

1. *Kema sig'imi.* Kema sig'imi bu - kema o'lchamining asosiy xarakteristikasi hisoblanadi. Aslida, bu «suzuvchi kema tomonidan siqib chiqariladigan suv miqdori» bo'lib, zamonaviy kruiz laynerlarining kema sig'imi 6 dan 220 ming tonnagacha o'zgarib turadi. Kichik laynerlar asosan premium va luxury kruiz kompaniyalariga tegishli bo'ladi, eng katta laynerlar esa ommaviy talab segmenti bo'yicha ishlaydi, lekin ba'zi kompaniyalar masalan, Costa Cruises kichik layner bo'lsa ham ommaviy talab segmenti bo'yicha faoliyat ko'rsatadi. Zamonaviy kruiz bozorida kemalarning o'rtacha sig'imi 110 - 130 ming tonnani tashkil qiladi.

2. *Yo'lovchilar sig'imi.* Kruiz kemasining yo'lovchilar sig'imi bu - laynerning o'lchamiga bog'liq bo'ladi ya'ni, kruiz layneri qanchalik katta bo'lsa, u ko'proq yo'lovchilarni qabul qilishi mumkin. Bu laynerning loyihasi va uning maqsadiga qarab o'zgarib turadi. Masalan, Costa Cruises kruiz kompaniyasining «Costa Mediterranea» layneri taxminan 85 ming tonna sig'imni tashkil etgan holda, 2600 dan ortiq yo'lovchini qabul qila oladi. Ayni paytda, «Cunard» kruiz kompaniyasining 90,000 tonna yuk ko'taradigan «Queen Victoria» layneri bortiga atigi 2000 yo'lovchini oladi. Bu kruiz kompaniyalari faoliyat ko'rsatadigan bozorning turli segmentlariga bog'liq.

«Costa Cruises» ommaviy talab segmentiga ega kruiz kompaniyasi hisoblanadi. «Cunard» kruiz kompaniyasi esa premium klassga da'vogar kompaniyadir. Shuning uchun uning laynerlarida kattalashtirilgan va lyuks toifadagi kayutalar bo'lib, shunga mos ravishda kamroq yo'lovchilarini qabul qilishga mo'ljallangan.

O'rtacha, zamonaviy talabga javob beradigan kruiz kemalari 3000 dan ortiq yo'lovchilarni qabul qilsa, lyuks segmentdagi laynerlar 700 yo'lovchi sig'imi bilan chegaralanib qoladi.

3. *O'lchami.* Kruiz kemasining o'lchamiga suv yuzasida cho'kish chuqurligi, uzunligi, kengligi va balandligi kiradi. Ushbu o'lchamlar kruiz kemasining marshrutlarini belgilaydi.

Darhaqiqat, har bir port 300 m dan uzunroq, kengligi 30 m dan keng va cho'kish chuqurligi 8m dan ortiq bo'lgan laynerni qabul qila olmaydi, masalan, «Silversea» kruiz kompaniyasi o'zining kruiz sayyoohlariiga kichik sig'imdagи lyuks segment laynerlariga Londonning Tower Bridge binosi yonidan to'g'ridan - to'g'ri chiqish imkoniyatini taqdim etadi, ammo yuqori talablarga javob beradigan yirik laynerlar yo'lovchilari Londonda emas, balki Sautgempton yoki Duvr portlaridan foydalanishadi.

4. *Tezligi.* Deyarli barcha zamonaviy laynerlar 22 - 24 tugun (uzel) maksimal tezlikka ega, bu soatiga 44 - 48 km tezlik va undan ko'prog'i bilan taqqoslanadi. Shunga qaramay, kruiz kemalari deyarli tezlikni hech qachon oshirmaydilar. Yo'lovchilarga maksimal darajada qulaylik va kam yoqilg'i sarfini ta'minlash uchun laynerlar odatda, 15 - 20 tugundan oshmaydigan tezlikda harakatlanadilar.



**2.6.2-rasm. Kruiz kemasi**

So‘nggi paytlarda dengiz sayohatlari yanada ommalashib, turistik sayohatlarning arzonroq variantlari tashkil qilinmoqda. Barcha zamonaviy kruiz laynerlari tebranish stabilizatorlari bilan jihozlangan bo‘lib, kemalarning yo‘nalishlari iloji boricha bo‘ronlardan holi hududlarga asoslanib yaratilgan.

«Cheklangan bo‘shliq» hissi kayutalar va kemaning barcha «yo‘lovchi»lariga mo‘ljallangan joylarini puxta o‘ylab joylashtirilganligi sababli tekislanadi. Shuningdek, yo‘lovchilar bir portdan boshqasiga suzib ketayotganlarida zerikmasliklari uchun kemada ko‘plab ko‘ngilochar dasturlar ham inobatga olinadi.

Oldinlari dengiz sayohatlari juda boy odamlar uchun ta’til hisoblangan bo‘lsa, bugungi kunda sayyoohlар ta’til yoki dengiz sayohati o‘rtasida tanlovnи amalga osgirishlari mumkin. Dengiz sayohatlariga bo‘lgan talab asta - sekin o‘zgarib, odamlarning aslida ijtimoiy mavqeini namoyish qilishlaridan ko‘ra ko‘proq, o‘z ta’tillarini o‘tkazishga bo‘lgan ehtiyojlari oshib bormoqda.

Dengiz kruizlari suzuvchi kurortlar bilan taqqoslanadigan ulkan zamonaviy kruiz laynerlarida amalga oshiriladi. Bir necha ming sonli yo‘lovchilarning bortda bo‘lishi, ularning har biri uchun yakuniy harajatlarni kamaytiradi. Dengiz kruizini shunga o‘xhash xizmat ko‘rsatish darajasidagi mehmonxona narxi bilan taqqoslaganda, kruiz sayohati quruqlikdagi ta’tildan 30% ko‘proq foydalidir. Shu bilan birga, dengiz kruizi nafaqat unutilmas dengiz manzaralaridan bahramand bo‘lishga, balki bir vaqtning o‘zida bir nechta mamlakatlar va shaharlarga tashrif buyurishga, qulay kurort dasturlaridan foydalanishga imkon beradi.

Bundan tashqari, dengiz kruizingning narxi ko‘plab xususiyatlarni masalan, oziq - ovqat va ichimliklardan tortib, basseyn, akvapark, sport zallari, kinoteatr, kazino va boshqa layner infratuzilmasidan foydalanishni o‘z ichiga oladi.

Barcha zamonaviy kruiz laynerlari nogiron yo‘lovchilarga, shu jumladan mushak - asab tizimi kasalliklariga xizmat ko‘rsatishda xalqaro standartlarga javob beradi.

## 2.6.1-jadval

### Zamonaviy laynerlarda sayyohlar segmenti uchun ko‘ngilochar dasturlar va xizmatlar turlari

<b>Sayyohlar segmenti</b>	<b>Ko‘ngilochar dasturlar va xizmatlar turlari</b>
<b>Yoshlar va faol dam olish ishqibozlari</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>✓ diskotekalar;</li> <li>✓ basseynlar;</li> <li>✓ suv atraktsionlari;</li> <li>✓ sport maydonchalari;</li> <li>✓ yugurish yo‘lagi;</li> <li>✓ boj olinmaydigan savdo do‘konlari</li> </ul>
<b>Bolalar va o‘smirlar</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>✓ bolalar basseynlari;</li> <li>✓ video o‘yinlar;</li> <li>✓ olalar klublari va restoranlari</li> </ul>
<b>Keksa fuqarolar va dam olishni yaxshi ko‘radiganlar</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>✓ quyosh botadigan joylar;</li> <li>✓ kurortlari;</li> <li>✓ kutubxonalar;</li> <li>✓ stol o‘yinlarini o‘tkazish uchun xonalar;</li> <li>✓ klassik musiqa bilan jihozlangan zallar.</li> </ul>
<b>Azart o‘yinlarini yaxshi ko‘radigan odamlar</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>✓ kazinolar;</li> <li>✓ o‘yin mashinalari.</li> </ul>
<b>Qiziquvchi odamlar va ekskursiya ta’tillarini yaxshi ko‘radiganlar</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>✓ ma’ruzalar zallari;</li> <li>✓ ekskursiyalar.</li> </ul>
<b>Ishbilarmon sayohatchilar va intensive guruhlari</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>✓ seminar va konferentsiya xonasi;</li> <li>✓ tantanalar va jamoaviy tadbirlar xonasi.</li> </ul>

Nogironlar kayutalarining ba’zi qismlari nogironlar aravachasidagi yo‘lovchilarni yanada qulayroq harakat qilishlari

uchun kengroq eshiklar, qo'shimcha tutqichlar bilan jihozlangan. Hattoki, restoran, teatr, zal va kazinolarda nogironlar uchun joylar jihozlangan bo'lib, maxsus xodimlar ushbu mijozlarga hamda ularga hamroh bo'lgan yo'lovchilarga laynerga chiqish va tushishda yordam berish uchun javobgardirlar.

Zamonaviy kruiz laynerlari turli xil qiziqishlarga ega bo'lgan yo'lovchilar uchun ko'plab dam olish imkoniyatlarini taklif etadi.

Ko'pgina zamonaviy laynerlarda deyarli har qanday toifadagi sayyoh o'zi uchun joy topa oladi. Biz zamonaviy laynerlarda sayyoohlар segmentining talab va istaklariga qarab, qanday ko'ngilochar dasturlar va xizmatlarni tanlashini yuqoridagi jadvalda havola qildik.

So'nggi yillarda dengiz sayohatlari rag'batlantiruvchi tadbirlar uchun mashhur joyga aylandi. Yirik kompaniyalar seminarlar, konferentsiyalar, tantanalar, jamoaviy qurilish tadbirlari uchun kruiz laynerlarini tanlamoqda. Kruiz laynerlari bu maqsadlar uchun juda mos keladi, chunki ularda turli sonli ishtirokchilar uchun konferentsiya xonalari, zarur jihozlar (projektorlar, mikrofonlar, ovoz kuchaytiradigan uskunalar) mavjud.

«Atlantis Line» kompaniyasida guruh buyurtmalari uchun mijozlarga sezilarli chegirmalar, to'lovlarning moslashuvchan jadvali va yo'lovchilar ro'yxati shakllantiriladi. Bundan tashqari, kruiz layneri yuqori darajadagi xavfsizlikni ta'minlaydigan yopiq joy bo'lib, tadbir ishtirokchilarining tarqalishiga yo'l qo'ymaydi va xabar berish tizimi guruh a'zolariga dasturdagi o'zgarishlar haqida o'z vaqtida xabar berishga imkon beradi.

Ehtimol, inson qo'li bilan yaratilgan birorta ham narsa ulkan kema singari diqqatni o'ziga jalb qila olmasa kerak. Shuning uchun biz tahlilimizni dunyodagi eng katta yo'lovchi kemalar tavsifi, yirik kruiz laynerlar sinfi va o'zining antiqa dizayniga ega bo'lgan suzuvchi mehmonxonalarini bilan davom ettiramiz.

1. «Oasis of the Seas» bu - eng yirik kruiz laynerlari sinfidir. Sinf bu nomni 2008 - yilda foydalanishga

topshirilgan «Oasis of the Seas» nomidan olgan. O'sha paytda «Oasis of the Seas» dunyodagi eng katta yo'lovchi kemasi bo'lib, 2009 - yilda ekspluatatsiya qilingan «Freedom Independence of the Seas» kruiz kemasidan katta bo'lgan.



**2.6.3-rasm. «Oasis of the Seas» kruiz laynerining old ko'rinishi**



**2.6.4-rasm. «Oasis of the Seas» kruiz laynerining yon ko'rinishi**

«Oasis of the Seas»ning tezligi 22,6 tugun (uzel) (41 km / soat), kengligi 60 m, balandligi 72 m va uzunligi 360 m ni tashkil qiladi. Ushbu uzunlik taxminan dunyodagi eng katta beshta Airbus A-380 samolyotlariga to‘g‘ri keladi. Afsonaviy «Titanik» bilan taqqoslasak, uning uzunligi 269 m, kengligi 28 m va balandligi 53 m bo‘lgan.

«Oasis of the Seas» sinfidagi kemalarning tashish hajmi 225,282 ming tonnani tashkil qiladi. Qurilganda «Oasis of the Seas» nafaqat eng katta o‘lchamlari bilan, balki mavjud bo‘lgan barcha kruiz kemalari ichida eng katta sig‘imi bilan ham farq qilgan. Kema 6800 yo‘lovchi va 2200 nafar ekipajni qabul qiladi. Bu raqamga ofitsiantlar, animatorlar, styuardlar va albatta, texnik xodimlar kiradi.



**2.6.5-rasm. «Oasis of the Seas» kruiz laynerining maketi**

«Oasis of the Seas» bu - haqiqiy dam olish maskanidir. Laynerda yo‘lovchilar hatto o‘z nomlariga ega bo‘lgan ko‘chalarni topishlari mumkin. Masalan, Royal Promenade deb nomlangan ko‘cha bor. Kema Markaziy Park va ko‘plab maydonlarga ega.




**2.6.6-rasm. «Oasis of the Seas» kruiz laynerining intereri**



**2.6.7-rasm. «Oasis of the Seas» kruiz laynerining intereri**

«Dengizlar Oazisi»da deyarli hamma narsani topish mumkin; barlar va restoranlardan tortib to ibodatxonagacha, tungi klub va tatuirovka zalidan tortib to teatr va amfiteatrgacha, muz maydonchasidan tortib to jakuzigacha hammasi mizojlar uchun tashkil etilgan.

Kema yaratuvchilari sport o‘yin - kulgilariga ham katta e’tibor berishgan. Ekstremal dam olishni yaxshi ko‘radiganlar bemaqsad shug‘ullanishlari mumkin, buning uchun bortda maxsus basseynlar mavjud.



**2.6.8-rasm. «Oasis of the Seas» kruiz laynerining bolalar o‘yingohi**

Yo‘lovchilar qulayligiga alohida e’tibor berilib, ko‘p kayutalar Markaziy Park yoki kemaning boshqa diqqatga sazovor joylari ko‘rinishini taqdim etadigan tarzda joylashtirilgan. Hammasi bo‘lib kemada 2700 oddiy va 28 ta lyuks kayutalar mavjud.



**2.6.9-rasm. «Oazis of the Seas» kruiz laynerining  
nomerlaridan biri**



**2.6.10-rasm. «Oazis of the Seas» kruiz laynerining  
restoranlaridan biri**

Ushbu laynerning buyurtmachisi Royal Caribbean Cruises AQSh -Norvegiya kompaniyasi bo‘lib, Norvegiyaning STX Europe

kompaniyasi tarkibiga kira digan Finlyandiyadagi «STX Finland» kemasozlik zavodida qurilgan.

2. «Allure of the Seas». Ammo eng katta yo‘lovchi kemalaridagi birinchilik palmasi boshqa kemaga tegishli. Bugungi kunga qadar eng katta kruiz kemaning nomi bu – «Oasis of the Seas» ning egizak akasi «Allure of the Seas» kemasiga tegishlidir. Yangi kema korpusining uzunligi 362 mni tashkil etadi. Shunisi e’tiborga loyiqliki, «Allure of the Seas» «Oasis of the Seas»dan atigi 5 sm uzunroq bo‘lganligi uchun dunyo rekordini yangiladi. Ushbu kema Oasis klassidagi ikkinchi kruiz kemasi sifatida 2009 - yil ishga tushirilib, bir yil o‘tgandan so‘ng foydalanishga topshirildi.



**2.6.11-rasm. «Allure of the Seas» kruiz laynerining old ko‘rinishi**

Vizual ravishda va ularning texnik xususiyatlari jihatidan ushbu kemalar deyarli bir xil. Ammo farqlar mavjud. To‘lqinlar bilan to‘qnashganda shikastlanishiga yo‘l qo‘ymaslik uchun «Allure of the Seas» qo‘sishimcha yoritgichlar bilan jihozlangan va «dengizning

jozibasi» qayiqchaları (inglizcha «allure» - joziba) korpusning orqa qismiga yaqinroq joylashtirilgan.



#### **2.6.12-rasm. «Allure of the Seas» kruiz laynerining maketi**



## **2.6.13-rasm. «Allure of the Seas» va «Oasis of the Seas» kruiz laynerining ko‘rinishi**



**2.6.14-rasm. «Allure of the Seas» kruiz laynerining bolalar o‘yingohi**



**2.6.15-rasm. «Allure of the Seas» kruiz laynerining bolalar o‘yingohi**

Yana kemalar o‘rtasidagi rejajashtirishda farqlar mavjud. Xususan, «Allure of the Seas» yanada ko‘proq restoranlarga (ulardan 20 tasi

«Oasis of the Seas»da ham mavjud) va 3D kinoteatrga ega. Kruiz kemasi yo'lovchilarining asosiy tarkibi bolali oilalardir. Shu sababli, Oasis sinf kemalarida yosh sayohatchilar uchun o'yin - kulgilarga katta e'tibor beriladi. Olti oydan o'n etti yoshgacha bo'lgan bolalar uchun turli xil dasturlar mavjud. Masalan, «Oasis of the Seas» va «Allure of the Seas»da taniqli multfilm qahramonlari ishtirokidagi teatrlashtirilgan tomoshalar namoyish etiladi. Ikkala kemada bolalar bog'chalari, suv parklari, bolalar diskotekalari va ko'plab diqqatga sazovor joylar mavjud.



**2.6.16-rasm. «Allure of the Seas» kruiz laynerining intereri**



**2.6.17-rasm. «Allure of the Seas» kruiz laynerining  
ponaramali ko‘rish joyi**



**2.6.18-rasm. «Allure of the Seas» kruiz laynerining  
nomerlaridan biri**




**2.6.19-rasm. «Allure of the Seas» kruiz laynerining restoranlaridan biri**

Aytgancha, «Allure of the Seas» dunyodagi eng katta yo‘lovchi kemasi bo‘lishiga qaramay, tarixdagi eng katta kema unvoni unga tegishli emas, «Knock Nevis» ga tegishli bo‘lib, supertankerning uzunligi 458 m va kengligi 68 m edi. Shunday qilib, «Knock Nevis» supertankeri shu paytgacha qurilgan eng katta kemaga aylandi. Tanker 1976 - yilda ishga tushirilgan va 2010 – yilga kelib esa qayta ishslash uchun foydalanishdan chiqarilgan.


**3. «Independence of the Seas».** Ushbu layner 2008-yilda Royal Karibbean kompaniyasi (AQSH) tomonidan yaratilgan. Laynerda hamma qulayliklar mavjud. Unda barcha asosiy va qo‘srimcha xizmatlar mavjud. Og‘irligi 155889 tonna, 15ta palubadan iborat bo‘lib, ekipaj 1365 va yo‘lovchilar 3634 kishiga mo‘ljallangan, uzunligi 339m, kengligi 56 m, suv sathidan balandligi 8,5m, tezligi 21,6 uzel (soatiga 40 km).



**2.6.20-rasm. «Independence of the Seas» kruiz laynerining ko‘rinishi**



**2.6.21-rasm. «Independence of the Seas» kruiz laynerining maketi**



**2.6.22-rasm. «Independence of the Seas» kruiz laynerining intereri**



**2.6.23-rasm. «Independence of the Seas» kruiz laynerining bolalar o‘yingohi**



**2.6.24-rasm. «Independence of the Seas» kruiz laynerining  
bolalar o‘yingohi**



**2.6.25-rasm. «Independence of the Seas» kruiz laynerining  
nomerlaridan biri**



**2.6.26-rasm. «Independence of the Seas» kruiz laynerining restoranlaridan biri**

4. «Admiral bich» dengiz klubi MKADdan Dmitrovskoye Shosse bo‘ylab 7 km masofada Klyazma suv ombori qirg‘og‘ida Moskvaning ekologik toza hududida joylashgan.

6 qavatli «Admiral bich» kemasiga sohilga olib chiqilgan mehmonxonalar blokida har xil qulaylikdagi 28 juft kabin mavjud. «Admiral bich» mehmonxonasi quyidagi xonalar sinfini taklif etadi: «econom», «econom plus», «biznes», «business plus», «junior suite», «suite» keng qamrovli xizmatlar.

«Admiral bich» mehmonxona bortida qo‘yidagilar joylashgan:

- ✓ 500 kishiga mo‘ljallangan «Akvarium» banket xonasi (kemaning 16 m balandligida joylashgan, to‘liq panoramali shisha, Klyazma suv ombori),
- ✓ eski kema ko‘rinishdagi 100 o‘rinli «Admiral» restoranining kichik zali,
- ✓ shou bar,

✓ kichik restoran zalining tomidagi yozgi kafe (7 - qavat).

Kemaning 5 - pallubasida «Junior Suite» va «Suite» xonasiga tutashgan sauna salon, umumiy maydoni 100 m<sup>2</sup> bo‘lgan «Deluxe Sauna», yashash xonasi, bilyardli dam olish xonasi, mini - basseyn, karaoke va fitness klular mijozlarga xizmat ko‘rsatadi. Klyazmaga to‘g‘ridan - to‘g‘ri kirish imkoniyati mavjud.



**2.6.27-rasm. «Admiral bich» dengiz klubи**

«Admiral bich» dengiz klubи - Klyazma suv ombori qirg‘og‘ida joylashgan Rossiyadagi birinchi Evropa suv sporti markazidir. Klub murakkab korporativ va xususiy tadbirlarni tashkil etish va o‘tkazishni, to‘ylar, taqdimotlar, sport tadbirlari uchun noyob sharoitlarni taklif qiladi. Xizmatlar ro‘yxatiga banket xizmatlari, kontsert dasturlarini tashkil qilish, diskotekalar ham kiritilgan. Shuningdek, klubning butun qirg‘oq bo‘yida to‘liq jihozlangan qumli plyajlari, klubda dam olish joylari bo‘lgan beshta ochiq hovuzi, rus hamomi va saunasi mavjud.


«Admiral bich»da siz turli xil suv jihozlariga minishingiz mumkin: reaktiv va kruiz qayiqlari, motorli yaxtalar, reaktiv

kayaklar, shamol serfingi, nibord, suv chang‘isi va b. Tajribali o‘qituvchilar kuchli texnikani tezda o‘zlashtirishga yordam beradi. Sport o‘yinlari ishqibozlari uchun peyntbol mashg‘ulot maydonchasi, plyaj voleyboli va futbol maydonchalari, stol tennisi va bilyard ham mavjud. Qishda mehmonlarga qorda yurish va rus uchburchagi, muzli slayd, konkida uchish, katta gulxan va albatta, unutilmas Yangi yil va Rojdestvo bayramlarida qatnashish imkoniyati bo‘ladi.

Admiral Maritime Clubda restoran, bir nechta ziyofat xonalari, yozgi kafe va barlar mavjud, u erda mehmonlarga rus va evropa taomlarining keng tanlovini taklif qilishi mumkin. Banket xonalari har xil o‘rindiqlar uchun mo‘ljallangan (150 dan 1300 gacha) va sahna, yorug‘lik va ovoz uskunalari bilan jihozlangan.

«Yovvoyi koyot» restoranı 90 kishini sig‘dira oladi. Ushbu muassasaning ichki qismi G‘arb uslubida bezatilgan. Qishda, ushbu restoran yonida Rojdestvo daraxti va katta gulxan o‘rnatiladi shuningdek, yaqinida konkida uchadigan va muzli tog‘ bo‘lib, «Saloon Wild Coyote» Yangi yil, Rojdestvo va boshqa qishki tadbirlarga juda mos keladi.

**5. «Freedom Ship»** shunchaki kruiz kemasi emas, 40 mingdan ortiq odam doimiy ravishda kemada yashashi uchun mo‘ljallangan loyiadir. Kema dizaynini amerikalik tadbirkor Norman Nikson boshqaradi. Kema kuniga 30 ming kishini, uning ekipaji esa 20 ming kishini qabul qila oladi. Yuqori palubada bitta yirik aerodrom bo‘lib, u 20 kishiga yaqin yo‘lovchini qabul qila oladi. Siz taxmin qilganingizdek, «Freedom Ship» ning o‘lchamlari u mavjud portlarga kirishga imkon bermaydi. Ozodlik kemasi butun faoliyati davomida butun dunyo bo‘ylab ketma - ket sayr qilib yuradi. Kema qurilishi to‘g‘ridan - to‘g‘ri suv ustida ham amalga oshirilishi mumkin.



2.6.28-rasm. «Freedom Ship» kruiz laynerining maketi



2.6.29-rasm. «Freedom Ship» kruiz laynerining maketi

Ozodlik kemasida uy porti bo‘lmasligiga qaramay, ishlab chiqaruvchilarning fikriga ko‘ra, kema mamlakatlardan birining bayrog‘ini ko‘taradi.

Yaratuvchilarning fikriga ko‘ra, loyihaning astronomik narxi kemada turish joyini sotish tufayli to‘lanishi kerak. Qanday bo‘lmasin, bugungi kunda «Freedom Ship» shunchaki loyihadir. Bizning davrimizda sarmoyadorlar unga jiddiy mablag‘ kiritishini tasavvur qilish qiyin. Londonlik dizayner kruiz ixlosmandlari uchun yangi imkoniyatlarni taqdim etadigan futuristik suzuvchi mehmonxona uchun yangi kontseptsiyani taqdim etdi.

6. Bu kabi yirik kruiz laynerlardan tashqari dunyoda o‘ziga xos bo‘lgan antiqa kapsulali suzuvchi mehmonxonalar ham mavjud. Shulardan biri «**MORPHotel**» deb nomlangan kema loyihasi bo‘lib, g‘ayrioddiy dengiz hayvonining umurtqasiga, tuzilmaning uchidagi kapsula esa kruiz kemasiga o‘xshaydi. Kichik qayiqlarga o‘xshab ko‘rinadigan bu kapsulalarni asosiy «umurtqa pog‘onasidan» tortib olish va okeandagi qisqa yurishlarni bajarish mumkin. «**MORPHotel**» mehmonxonasi kruiz kemalariga yaxshi alternativ bo‘la oladi.



**2.6.30-rasm. «MORPHotel» mehmonxonasining ko‘rinishi**

Londonlik dizayner, muxandis – me'mor Janluka Santosuosso futuristik suzuvchi mehmonxonani yaratishni rejalashtirdi. Loyiha ustida ishlayotganda yaratuvchini butun dunyo bo'ylab aniq marshrutsiz sayohat qilish g'oyasi ilhomlantirgan.

Yangi shakl yangi imkoniyatlar «**MORPHotel**» konsepsiysi kruiz sanoatini butunlay o'zgartirishi mumkin. Mehmonxona qariyib 1000 m uzunlikdagi egiluvchan umurtqa shaklida qurilgan bo'lib, o'lkan suvlar bo'yida yoki qirg'oq bo'yiga chiqishi, okean oqimlari ta'sirida, ob - havo sharoiti va qirg'oq relefiga moslashtirib shaklini o'zgartirish qobiliyatiga ega.

Ushbu mehmonxona butun dunyoni aylanib chiqish uchun to'sqinsiz sayohat qilish g'oyasiga asoslanadi. Yangi kashfiyotlar uchun chegaralar yo'q, dengiz va okeanlarda o'rganiladigan yangi joylar ruyhatiga kiritilgan.




**2.6.31-rasm. «MORPHotel» mehmonxonasining ko'rinishi**

Bu kabi suzuvchi mehmonxonalar ta'tilga chiquvchilarga kundalik hayotninig shovqinidan qochib, qutilishiga imkon beradi. U

doimiy ravishda okeanlarni kesib o'tganligi sababli mehmonlar o'zlarining xonalarini o'zgartirishni yaxshi ko'radilar.

Hashamatli mehmonxona tushunchasi nafaqat o'z mehmonlarini, balki to'xtash joyidagi har qanday shaharni ham hayajonga solishi mumkin. Odamlar mehmonxonaga shahar portiga ulangan baridsentrik dok orqali kirishadi. U quyosh panellari yomg'ir suvini toplash va to'ljin energiyasi bilan jihozlangan o'z maydoniga ega.

Iskala bo'ylab o'tib, tashrif buyuruvchilar qabulxona va boshqa ma'muriy binolar joylashgan zalga chiqadi. Barchani qabul qilish ma'muriyati va ovqatlanish xizmatlari joylashgan joyda mehmonlar tuzilmaning markaziy o'qi bo'ylab joylashgan xizmatlarga erishadilar. Xuddi shu iskala orqali vertolyotda hamda kemada sayohat qilib yurganlar ham mehmonxonaga kirishadi. Markaz vestibyulida barcha ko'ngilochar joylar joylashtirilgan.



**2.6.32-rasm. «MORPHotel» mehmonxonasining qulayliklari**

Mehmonxonaning har biri alohida suv sathida joylashgan shishadan tortib, mustaqil kemalarga qadar kapsulalarga biriktirilgan.

Butun tizim mexanik kapsulalarning murakkab zanjiri bilan ushlab turiladi. Xavfsizlik nuqtai nazaridan yulovchilar «**MORPHotel**»da butun dunyo bo‘ylab sekin, doimiy va harakatlanish paytida kesib o‘tadigan joylarni o‘rganishlari mumkin.

Mehmonlarga «**MORPHotel**» mehmonxonasining har bir «kapsula»sida yashash uchun xonalar, restoran, teatr, bog‘, fitnes zal, savdo maydonchalari kabi barcha xizmatlar taklif qilinadi. Bular organizmning umurtqa pog‘onasiga biriktirilgan kapsulalar bo‘lib, ular turli hashamat va qulaylikka ega bo‘ladi.


Mehmonlar uchun quriqlikda odatlangan odatiy sharoitlar kapsulali mehmonxonadagi restoranlarda ham tashkillashtirilgan va uning har bir uchida mehmonlarni qirg‘oqqa olib boradigan qayiq o‘rnatilgan.

Ushbu loyiha yangi hashamatli mehmonxona konsepsiyasini ishlab chiqishni rejalashtirmoqda. Unda foydalanuvchilar butun dunyo bo‘ylab harakatlanuvchi suzuvchi tuzilmada bo‘lish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Mehmonxona konsepsiysi 4 ta asosiy strategiyaga asoslanadi.

**1. Oraliqdagi bo‘shliq.** Dengizda nafaqat sayyohlarni bir joydan boshqa joyga o‘tkazish uchun vosita sifatida foydalanish, balki ular orasidagi bo‘shliqdan foydalanib, noma’lum joylarni kashf qilish uchun kruiz kemalarining an’anaviy konsepsiyasidan qochish mumkin. Bu yerda 20 ta tugun (uzel)ning o‘rtacha tezlikda yoqilg‘i sarfi 470 l/kmni tashkil qiladi. Bu strategiya dengiz sayohatlari to‘g‘risidagi qoidalarni o‘zgartiradi. Ular butun dunyo bo‘ylab doimo sekin tezlikda harakatlanadilar va turistlarga qayerda bo‘lishlaridan qat’iy nazar bortga chiqib olish imkonini beriladi.

An’anaviy sayyohlik kemalarida sayyohlar marshrut bo‘ylab A nuqtadan chiqib belgilangan joyga yetib boradilar va keyin shu marshrut bo‘ylab orqaga qaytib boradilar. «**MORPHotel**» mehmonxonasida esa ular xohlagan joylarda to‘xtashi, dam olishi va umuman boshqa joylarga borishlari mumkin.



**2.6.33-rasm. «MORPHotel» mehmonxonasining ko‘rinishi**

**2. Bog‘lanuvchanlik.** Bu sun’iy organizm okeanlar va dengiz bo‘ylab uzlucksiz sayohati paytida safarning qisqa yoki uzoq vaqt davomida duch kelgan shaharlarda to‘xtab ular uchun vaqtinchalik kengayishi mumkin. Mehmonxona mehmonni qabul qiluvchi shaharning vaqtincha kengayishi sifatida uning xizmatlaridan foydalanadigan aholisi uchun qo‘srimcha qiymatga aylanadi. O‘z navbatida shahar «MORPHotel» uchun o‘z eshiklarini ochadi. Shu tarzda turist va fuqaro o‘rtasidagi an’anaviy bo‘linish yo‘qolib, yangi shaxs uchun bog‘lanish paydo bo‘ladi

**3. Shaklning moslashuvchanligi.** «MORPHotel» mehmonxonasining moslashuvchanlik shakli shundaki, taqdim etadigan afzalliliklari nafaqat xududga morfologik jihatdan moslashgan port shaharlarga, balki mustaqil suvli organizmga aylanishiga imkon beradi. Aslida uning katta nisbatlarini hisobga olgan holda u uzoq okeanlarni kesib o‘tish paytida suzuvchi portga ham aylanishi mumkin. Bu o‘z - o‘zidan aylanib yurish, qayiqlar va

kemalar uchun boshpana topadigan sun’iy to‘siq yaratish orqali amalga oshiriladi.


**O‘z - o‘zini ta’minlovchi.** O‘z - o‘zini ta’minalash deganda, mehmonxona imkon qadar mustaqil bo‘lib, o‘zini energiya, ichimlik suvi va ba’zi oziq - ovqat turlari bilan ta’minalay oladi. Aslida markaziy umurtqaning har birida kichik bog‘i bo‘ladi. Mehmonxonaning bu qismida katta suzuvchi ferma bo‘lib, unda sabzavot, chorva mollarini yetishtirish va oziq - ovqat mahsulotlari saqlanadi.

Mutaxassislarning ushbu loyihada erishmoqchi bo‘lgan asosiy maqsadlardan biri bu - katta, mustaqil va o‘zini - o‘zi ta’minalaydigan sun’iy organizm yaratish bo‘lgan. O‘z - o‘zini ta’minalash «**MORPHotel**» mehmonxonasining funksional jihatlarini qamrab oladi. Energiya esa quyidagi tizimga, ekologik toza texnologiyalarning kombinatsiyasi orqali butun tizimga taqdim etadi:

1) «**MORPHotel**» mehmonxonasi korpusining yuqori qismida va shisha ponellardan tarqaladigan quyosh panellari;

2) Umurtqa pog‘onasining ikki uchi to‘lqinlar harakati orqali energiya ishlab chiqarishga yo‘naltirilgan. Mavjud bo‘lganlarning bir necha namuna loyihalari (masalan, Palamis Wave Energy Converter) ushbu tizimlardan foydalanish uchun tegishli hajmdagi energiya ishlab chiqarishga imkon berishini ko‘rsatmoqda. Mantiqiy natija sifatida ichimlik suvi ishlab chiqarish qayta tiklanadigan energiya ishlab chiqarish bilan bog‘liq buladi. O‘z - o‘zidan ishlab chiqarilgan energiyaning bir qimsi yomg‘ir suvini filtrlash va saqlash uchun, boshqa tomondan dengiz suvini tuzsizlantirish uchun ishlataladi.

Zamonaviy ekotexnologiyalar bizga quyosh energiyasi va suv energiyasidan foydalanish, ularni zararli yoki zararsiz hayotiy qo‘llab - quvvatlovchi elementlarga aylantira oladi. Bu esa eng yangi dengiz ishlanmalari «**MORPHotel**»ga suvda qo‘rmasdan yashashga imkon beradi.



**2.6.34-rasm. «MORPHotel» mehmonxonasining kapsulasi**

Ushbu mehmonxonaning nomerlari 300 ga yaqin bo‘lib, loyiha ochilishi 2022 -yilga rejalashtirilgan.

## **2.7. Dam olish maskanlarida lagerlarni tashkil etish**

«Kempinglar, turistik qishloqlar, turistik bazalar - odatda, qishloq joylarida oddiy sayyoohlarni va avtomobilda sayyohat qiluvchilarni qabul qilish uchun mo‘ljallangan joylardir».

«Turizm» so‘zi orqali sayohatlarning turli xil, ba’zida umuman o‘xshash bo‘lmagan ma’nolarini tushunish mumkin. Shunga ko‘ra, turistlar ham turlicha bo‘ladi:

- ✓ turistlar va dunyoning eng mashhur dam olish maskanlariga yo‘llanmalarni sotib oladiganlar;
- ✓ dam olish maskanlariga qulay havo laynerlarida uchadiganlar;
- ✓ avtobusda sayohat qiladiganlar;
- ✓ uch kunga Xelsinkiga boradiganlar.

Ushbu turistlar sayohatlari davomida mehmonxonalarda tunash, kafe va restoranlarda ovqatlanish kabi zamonaviy sharoitlarda sayyohat qilishadi.

Hattoki, ba’zi turistlarning chodirlar va gulhan atrofida, maxsus uskunalaridan foydalangan holda katta va og‘ir yo‘l xaltalarini ko‘tarib kun bo‘yi tog‘ yoki so‘qmoq yo‘llarida sayr qiladilar. Bunday turdagи sayohatchilar sport turistik yo‘nalishlari va sport ekspeditsiyalarining ishtirokchilaridir. O‘zgacha hissiyotlar, yovvoyi tabiatning og‘ir sharoitlarida o‘zini sinab ko‘rish imkoniyati, yillar davomida amalga oshirilgan hamkorlikdagi piyoda sayyohatlarda vujudga kelgan do‘stlik, inson tomonidan o‘zlashtirilmagan joylarning betakror go‘zalligini ko‘rish va dam olish hamma turdagи sayohatchilarning orzusi bo‘lsa kerak.

Uzoq muddatli hamkorlikdagi piyoda sayyohatlarda qulay sharoitlardan uzoqda bo‘lgan sayohatchilar o‘zлari uchun zarur bo‘lgan barcha jihozlarni elkasida ko‘tarib yuradilar. Uzoq va qiyin yo‘llarda inson kuchini tejash maqsadida o‘z yuklarini, ayniqsa, bivuak uskunasining hajmi va og‘irligini kamaytirish uchun harakat qilinadi. Shu bilan birga, bivuak uskunasining ishlatalish sharoiti juda og‘ir bo‘lib, kuchli va shiddatli shamol, yomg‘ir, qor va bo‘ronlar, kun davomidagi issiq quyosh nurlari hamda kechasi past haroratlarda chidamli, qolaversa, o‘g‘ir sharoitlarda muammolarga duch kelmaslik maqsadida ularni ishlab chiqarishda eng zamonaviy texnologiyalar va eng yuqori sifatli (va shunga mos ravishda qimmat) materiallardan foydalaniladi. Hajm va vaznni tejash zarurati, ba’zi bir jihozlarning masalan, chodirlarning o‘lchamlarini minimal darajada cheklash zarurati paydo bo‘ladi.

Zamonaviy atamashunoslikda oddiyroq piyoda sayohatlar «trekking» deb nomlanadi. Ushbu sayohatlarning shart - sharoitlarga va uskunalarga bo‘lgan talabi avvalgi guruh sayyohatlariga nisbatan ancha pastdir. Biroq, trekking sayohat ishtirokchilari, sportchi - turistlar bilan bir xil darajada bo‘lmasada, olib yurgan yuklarining hajmi va vazni cheklangan bo‘ladi.

Turizmning to‘rtinchи turi, dengiz yoki ko‘l bo‘yi, o‘rmon va go‘zal joylarda shunchaki hordiq chiqarish bilan belgilanadi. Dam oluvchilar istalgan joyga borib, lager yoki kemping tashkil etishadi.



**2.7.1-rasm. Polaris kempingi, Polsha**

Avtoturargohlar kemping va karavaninglar (g'ildirakli uylar) uchun maydon mehmonxonalarga o'xshaydi, chunki ular ham har kuni turar joylarni kunlik ijara ga berishadi. Ammo o'xshashliklar mavjud bo'lsa - da, ushbu alternativ tuzilmalar boshqalaridan juda farq qiladi. Ba'zan ular turar - joy xizmatlarini taqdim etishdan keladigan daromad uchun qattiq kurashishga majbur bo'ladilar. Ba'zi bir kurort hududlarida, parkinglar va kempinglar an'anaviy turar joy tuzilmalari uchun jiddiy raqobatdoshdirlar, chunki ular yanada demokratik hisoblanib, keng turdag'i sayohatchilarni o'ziga jalg qiladi. Masalan, ko'plab milliy bog'lar mehmonxonalar bilan to'g'ridan - to'g'ri raqobatlashadigan kemping uchun maydonlar va turar joylarni taklif qiladi. Ushbu tuzilmalar mahalliy mehmonxonalarga qaraganda bir qator ustunliklarga ega, chunki ular milliy bog'ning yashil xududida joylashgan bo'ladi, ularning narxi raqobatbardosh va har xil subsidiyalarni o'z ichiga oladi.

«Kemping bu - avtomobilda sayyohat qiluvchilar uchun turar joy va madaniy xizmatlarni taqdim etadigan maxsus jihozlangan bazadir. Maxsus ajratilgan avtoturargohlar, ichimlik suvi manbalari,

hojatxonalar, dush va oshxonalar bilan jihozlangan va himoyalangan hududda joylashadi».

Kempinglar avtoturistlar lageri bo‘lib, shahardan tashqarida, yozgi uylar yoki chodirlar bilan ta’minlangan bo‘ladi. Umumiy holda kemping ishtirokchilari rivojlangan hududlarni tark etib, tabiat quynida dam olib, qiziqqan mashg‘ulotlari bilan shug‘ullanib rohatlanishadi.

Kemping tarixi Buyuk Britaniyalik sayohatchi tikuvchi Tomas Hiram Holding nomi bilan bog‘liq. U yoshligida Amerika dalalari buylab ota - onasi bilan ko‘p vaqtini sayohat qilib o‘tkazganida kempingni tajriba qilib ko‘rgan.

Xalqaro Kemping klub Federatsiyasi butun dunyodagi milliy klublarni birlashtirish natijasida 1932 - yilda tashkil etildi.

Kemping boylar o‘rtasida XX - asr boshlariga kelib dam olish vositasi sifatida mashxur bo‘ldi. Vaqt o‘tgan sayin u yanada rivojlanib bordi va turlarga bo‘lindi. Zamonaviy ishtirokchilar tez - tez ommaviy ravishda tabiiy resurslar, milliy va davlat bog‘lariga, yovvoyi hududlar, kemping uchun mo‘ljallangan pullik joylarga egalik qilishdi.

Kempinglar - mavsumiy faoliyat ko‘rsatadigan mehmonxonalar tipidagi muassasalar bo‘lib, odatda, o‘z - o‘ziga xizmat ko‘rsatish usulida turistlar uchun turar joy va dam olishni tashkil qilishni ta’minlaydi.

Kempinglar tarkibiga quyidagi binolar guruhini kiritish mumkin:

- turar - joy qismi;
- binolarning ma’muriy - xo‘jalik guruhi;
- ovqatlanish va savdo xonalari guruhi;
- madaniy va sport maqsadlari uchun binolar va inshoatlar;
- maishiy xizmat ko‘rsatish xonalari;
- korxona va avtomobilgarga texnik xizmat ko‘rsatish.

Kempinglarning turar joylari turar - joy (yotoq) binolari va G‘ildirakli uylardan iborat bo‘ladi. Bir nechta G‘ildirakli uylarni turar

- joy binolariga birlashtirish mumkin, ulardan esa pavilion turidagi turar - joy korpuslar shakllanadi.

«1 yulduz» toifasidagi kempinglar 1, 2 va 3 kishiga mo‘ljallangan yashash xonalarini ta‘minlaydi. «Yulduzsiz» toifadagi kempinglarda turar - joy binolari va G‘ildirakli uylar, odatda, sanitariya - texnika vositalari bilan ta‘minlanmaydi. Sanitariya - texnika vositalari tomonidan xonalarni jihozlashga bo‘lgan ehtiyoj, shuningdek, turli xil hajmdagi xonalarning nisbati loyiha vazifasi bilan belgilanadi.

Kempinglardagi 3 va 4 o‘rinli xonalarning yashash maydoni bir kishi uchun  $4,5m^2$  me’yor asosida aniqlanadi. Kempinglarda sanitariya - texnika vositalariga ega bo‘limgan har bir turar - joy hududida alohida sanitariya va yordamchi pavilonlar bo‘lishi kerak.

Kempinglar odatda mashhur sayyohlik yo‘nalishlari bo‘ylab magistral yo‘llarda, shahar atrofidagi yashil zonalarda, kurort zonalarida va sayyohlik markazlarida quriladi. Shunday ekan, ularning quyidagi turlari mavjud:

- ✓ Sarguzasht Camping (Adventure)
- ✓ Sahro Camping (Dry)
- ✓ Kanoyi Camping (Canoe)
- ✓ Vilosiped Camping (Bicycle)
- ✓ Chodirli Camping (PitchPlace)
- ✓ Uzoq muddatli Camping (Survivalist)
- ✓ Kishki Camping (Winter)
- ✓ Sohali Campinglar (Work)...

**Sarguzasht Camping** ishtirokchilar kun davomida moto poygalar bilan band bo‘lib, tunda eng qisqa yol bilan chodir tikadilar. Ishtirokchilar o‘zlari bilan chodir plitasi, uqlash uchun maxsus sumka va shunga o‘xshah anjomlarini o‘zi bilan olishi mumkin.

**Sahro Camping** asosan suvsiz joylarda tashkil qilinadi. Campingchilar o‘zlari bilan yetarlicha suv zahirasini olishlari kerak. Sahro Campinglari cho‘llarda tashkillashtirish odat tusiga kirgan.

*Kanoyi Camping* bu - tur ishtirokchilaridan ko‘proq og‘irlilik va baquvvat gavda talab etiladi, sababi ishtirokchilar kanoyi qayiqlarini boshqarishlari zarur bo‘ladi. Ular o‘zlari bilan suv o‘tkazmaydigan sumkalar va baliq ovlash moslamalarini olishlari kerak.

Yozgi uychalar yoki chodirlar, uy - ro‘zg‘or buyumlari uchun ijara joylari, avtomobilarni yuvish va ta’mirlash joylarida bo‘lgan kempinglar eng keng tarqalgan turlaridir. Kempingdagi hayot o‘z - o‘ziga xizmat ko‘rsatish tamoyillari asosida tashkil etiladi. Unda turli xil jihozlarga ega to‘rt xil qulay kemping uychalar mehmonlarning ehtiyojlari uchun xizmat qiladi. Kemping uychalari markaziy isitish tizimiga ega bo‘lganligi uchun ularda qishda ham uplash mumkin. Barcha xizmat turlari alohida ehtiyoja muhtoj odamlar va nogironlar uchun qulay bo‘lgan tarzda tashkil etiladi.

Kempingning xizmat ko‘rsatish binosida mehmonlar tanlagan ta’til turidan qat’iy nazar (uchchada, treylerda yoki chodirda) barcha xizmatlardan foydalanishlari mumkin:

- oshxona va ovqat xonasi;
- dush va hojatxona;
- kir yuvish mashinasi;
- sauna dam olish majmuasi;
- avtoturargohlar;
- kinoteatr zali;
- pochta bo‘limi;
- do‘kon;
- sport maydonchasi.

Mehmonlarga qulaylik yaratish maqsadida dam olish maskanida boshqa qo‘sishimcha xizmat turlari ham taklif etiladi:

- sport anjomlari ijarasi;
- ekskursiyalar;
- seminar o‘tkazish;
- bolalar uchun tadbirlar va boshqalar.

Kemping xizmatidan foydalanish uchun har bir turist o‘zining davlatidagi kempinglar uyushmasining a’zosi bo‘lishi kerak. Sayohat qilish uchun kemping haqidagi ma’lumotlar Internetdagi turli portallar, gazetalar, sayyohlik risolalari, kempinglar katalogi va boshqa bosma nashrlarda mavjud bo‘lishi kerak.

Shuningdek, kempingda yashash uchun kerakli jihozlarining mavjudligi katta rol o‘ynaydi. Kemping jihozlaridan foydalanish qulay yashash sharoitlarini ta’minlaydi. Albatta, bu erda odatiy turistik uskunalardan foydalanish mumkin. Ammo kemping uskunalarini maxsus qulaylikni ta’minlaydi.

Kemping jihozlari quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

1. Chodirlar (palatkalar);
2. Stol – stullar va shezlonglar;
3. Havo tuldirilgan to‘shaklar;
4. Kemping krovatlari, zambillari va gilamchalari;
5. Kemping yotoq hatalari;
6. Ovqat pishirish pechlari va gaz plitalari;
7. Kemping uchun idish - tovoqlar.

Ushbu jihozlarning har birini batafsil ko‘rib chiqamiz.

**Chodirlar** vaqtinchalik yashash joyi, juda oson va tezda taxlanadigan anjom bo‘lib, sayohatchilarni vaqtinchalik issiq va sovuq havolardan asraydigan turar joy hisoblanadi.

Kemping chodirlari ularda yashovchi sayyohlar uchun yuqori darajadagi qulayliklarni ta’minlab, yig‘iladigan, matodan ishlangan bo‘ladi. Ushbu chodirlar baland bo‘yli bo‘lib, ichida bemalol yurish va harakatlanish mumkin. Kemping chodirlarining matosi namlikka chidamlı, yuqori nafas olishni ta’minlaydi. Bunday chodirlarning vazni katta bo‘lib, o‘n besh kilogrammga etishi mumkin. Kemping jihozlari avtoulovarda tashish uchun mo‘ljallangan bo‘ladi.

Bunday chodirlardan turistlar, sayohatchilar, harbiylar, arxeologlar, geologlar, cho‘ponlar va boshqalar vaqtinchalik turar joy sifatida foydalanishadi. Ba’zi chodirlarning shunday xillari borki,

ustki kiyim o‘rnida ham ishlatalish mumkin. Masalan, plash - chodirlar.



**2.7.2-rasm. Kemping chodiri**

Chodirlarning ishlatalishi bo‘yicha turlari:

1. **Mustahkam chodirlar.** Tog‘li hududlarda va qiyin sharoitlarda asqotadigan chidamli chodir turi hisoblanadi.



**2.7.3-rasm. Mustahkam chodir**

Uning og‘irligi o‘rtacha, mustahkam va tezda yig‘iladi. Agar yashash va tekis joyda o‘rnatilsa har xil havolarda ham shaklini o‘zgartirmasdan mustahkam holda saqlanadi. Agar matosi asl bo‘lsa uning ichki qismi juda tez va oson isiydi.

2. *Ekspeditsion chodirlar*. Bu chodir turi mustahkam chodirlarga o‘xshash bo‘lib, ular har qanday ob - havo uchun qulay va xavfsiz hisoblanadi. Ichki qismi keng, ko‘rinishi esa ancha katta. Ko‘pincha ushbu chodir turi o‘rmonli hududlarda ishlatiladi. Ya’ni turizmning bir turi hisobangan Ekoturizmga qiziquvchi turistlar va sayohatchilar uchun ushbu chodir juda mos keladi.



**2.7.4-rasm. Ekspeditsion chodir**

3. *Trekkingli chodir*. Ekspeditsion chodirlarga o‘shab ketadi, lekin shamol va yomg‘irli havolarga to‘g‘ri kelmaydi. Bu chodirlarni avtoturar joylar yonida va usti yopiq bo‘lgan joylarda ishlatish mumkin, ammo o‘rmonlarli hududlarda ishlatib bulmaydi.



**2.7.5-rasm. Trekkingli chodir**

**4. Kempingli chodir.** Bu turga kiruvchi chodirlar qulay, lekin birinchi o'rinda uning o'chhami (baland va keng) va og'irligi (ancha og'ir) turadi. Bu chodirni uzoq muddatli yo'lga kutarib bo'lmaydi.



**2.7.6-rasm. Kempingli chodir**

Shuning uchun bu chodir transport bilan sayohat qilganda foydalanish mumkin. Chodirning salbiy tomoni ancha katta va kengligi tufayli uning ichki qismini isitish juda mushkuldir, sovuq va qorli kunlarda bu chodirning ichki qismi ancha sovuq bo‘ladi. Ijobiy tomoni esa uning ichki qismi uzun va keng. Bu chodirda bemalol 3 - 4kun yashash mumkin.

**5. *Dengiz bo‘yi chodiri.*** Bu chodir kichkina hajmdagi va kam muddatli dam olish uchun mo‘ljallangan. Ushbu chodirdan dengiz bo‘yida foydalanilgani tufayli quyoshli va issiq havolarga juda mos keladi. Chodir bitta kamerali, boshqa chodirlarga qaraganda kunduz kuni ichki qismi isib ketmaydi. Salbiy tomoni shundaki, u arzon va ko‘p vaqtga chidamaydigan ya’ni nam o‘tkazish xususiyatiga ega bo‘lganligi uchun ham yomg‘irli va qorli havolarga mo‘ljallanmagan.



**2.7.7-rasm. Dengiz bo‘yi chodiri**

Kemping chodirlari shakli va ichki ko‘rinishi jihatidan bir – biridan farq qiladi. Shakl bo‘yicha ularni quyidagi guruhlarga bo‘lish mumkin:

❖ **Tunnel yoki «yarim bochka».** Palatkaning nomlanishi juda qiziq «yarim bochka». Katta yotoq maydoni va ulkan vestibulga ega bo‘lgan eng keng tuzilma. Uning kamchiliklari kuchli shamollarga nisbatan past qarshilik, qoziqlar bilan cho‘zish va himoyalash

zaruratidir, ya'ni ularni o'rnatish biroz ko'proq vaqt talab etadi. Bu palatkaning ijobiy tomoni shundaki, ichi juda keng va qulay. Ko'p yuk va asboblar bilan kelgan turist va sayohatchilar uchun mo'ljallangan. Uning shakli va hajmiga qaramay yig'ilsa uncha kup joy egallamaydi.

Agar sayyoh baland tog'larda chodir qurmoqchi bo'lsa va har kuni yangi joyga ko'chib o'tmasa juda yaxshi makon bo'lishi mumkin. Palatkaga 5 kishi joylashishi mumkin.



**2.7.8-rasm. Tunnel yoki «yarim bochka»**

Bu 2,3,4,8 kishilik chodir turining yig'ilgan ryukzak ko'rinishi



**2.7.9-rasm. Chodir turining yig'ilgan ryukzak ko'rinishi**

❖ «Ixchamlashtirilgan yarim bochka». Nomi «ixchamlashtirilgan yarim bochka» deb ataladi. Bu palatka hozirgi zamon talabiga javob beradi va keng, ixcham, baland, tez va oson yasaladi. Qorli, yomg‘irli kunlarda ichi issiq turadi va shamol o‘tkazmaslik xususiyatiga ega. Bu ixcham palatkaga 5 kishigacha sayohatchi yoki turistlar joylashishi mumkin. 4 ta kirish va chiqish joyi mavjud.



**2.7.10-rasm. Ixchamlashtirilgan yarim bochka**

❖ **2 qavatlari «yarim shar».** Haqiqatdan ham palatka yarim sharga o‘xshaydi. Eng ishonchli dizayn. Bu palatkaning ijobiy tomoni bu – o‘rnatishda qiyinchilik tug‘dirmaydi, tez va oson bajariladi. Eng muhimi shamol o‘tkazmaydigan xususiyatga ega. Uni yasashda tekis va baland yoki past joy talab qilinmaydi. Hali bunaqa palatka yasab ko‘rmagan sayohatchi yoki turist ham osonlikcha yasashi mumkin. Uni yasashda 1 kishi talab qilinadi. Kirish chiqish joyi 2ta.



**2.7.11-rasm. 2 qavatli «yarim shar»**

❖ **Ikki tabaqali yoki o‘ralgan.** Ushbu shakl eskirgan deb hisoblanadi, hozir bunday chodirlarni topish qiyin. Shunga qaramay, ba’zi brendlар ularni ishlab chiqarishda davom etmoqda. Masalan, asl va keng chodirlar, hindu kulbalari uslubidagi Nordisk chodirlari - ular juda qulay va oddiy yozgi ta’til sharoitlari uchun juda yaxshi hisoblanadi.



**2.7.12-rasm. Ikki tabaqali yoki o‘ralgan**

Bundan tashqari palatkani mavsumiyligi bo'yicha turlari ham mavjud:

■ **Yozgi palatkalar** – asosan iliq va issiq havolarga moljallangan. Pastki qismi yerdan ozgina ko'tarilganligi hisobidan yaxshi havo almashtiradi. Devorlari shamol o'tkazadigan matodan yasaladi.



**2.7.13-rasm. Yozgi palatkalar**

■ **Qishki (yoki to'rt mavsumli) palatka** – u sovuq va qattiq shamolli havolarda foydalaniladi. Bu turdag'i palatka ko'pincha baland tog'larga alpinizm maqsadida yoki qorli havoda sayohat qiluvchi alpinistlar yoki turistlar uchun mo'ljallangan.



**2.7.14-rasm. Qishki (yoki to'rt mavsumli) palatka**

 **Uch mavsumli palatka** – bu nafaqat issiq kunlarga balki salqin bahor va kuz havolariga ham to‘g‘ri keladi. Uzoq davrli davom etadigan yomg‘irlarga mo‘ljallangan. Ichini issiq tutish va sovuq shamoldan asrash uchun ichki qismi juda mustahkam matodan tayyorlangan.




**2.7.15-rasm. Uch mavsumli palatka**

Shuningdek, chodirlar ichki tartibi bilan ham farq qiladi:


- **Bir kishilik uqlash xonasi.** Bu eng oddiy dizaynli va bitta xonaligi kvartiraga o‘xshash variantidir.
- **Bo‘linadigan qismlar.** Katta ichki xonani bir nechta xonalarga bo‘lish mumkin, masalan, bolalarni «alohida» yotoqxonaga joylashtiriah mumkin.
- **Ichki yotoq modullari.** Bo‘limlar o‘rniga olinadigan modullar - asosiy xonaga qo‘shilishi mumkin bo‘lgan alohida to‘laqonli xonalar. Ularning soni sizning ehtiyojingizga qarab tanlanishi mumkin. Modullar har doim ham kiritilmaydi, ba’zida ularni chodirning ma’lum bir qismi uchun alohida sotib olish kerak bo‘ladi.

➤ **Ajratib quyilgan xonalar.** Devorning orqa tomonida boshqa joy yo‘q, har bir xona uchun alohida kirish joyi bo‘lib, har bir kishi yetarli darajada qulaylik va shaxsiy yotoqqa ega bo‘ladi.


Quyida chodirlarning ichki qismi bo‘yicha xonalar o‘lchamlari va sig‘imi ko‘rsatilgan.



**2.7.16-rasm. Chodirlarning ichki qismi bo‘yicha xonalar o‘lchamlari va sig‘imi**



**2.7.17-rasm. Yotoq modullari**



**2.7.18-rasm. Izolyatsiya qilingan xonalar**

Chodirning asosi - bu ramka. Uzoq vaqtgacha chidamli, kuchli shamollarga bardosh berish ko‘p jihatdan unga bog‘liq. Ramkaning arkalari metall yoki kompozit materiallar bo‘lishi mumkin.

➤ **Alyuminiydan yoki uning qotishmalaridan yasalgan ark** - bu eng universal variant. Ular engil, egiluvchan, kuchli shamol ostida sinmaydi, faqat egilishi mumkin.

➤ **Po‘latdan yasalgan ramka** eng bardoshli va chidamli, ammo eng og‘iridir.

➤ **Stekloplastik yoki fiberglass** og‘ir va mo‘rt kompozitsion materialdir, haroratning keskin o‘zgarishi va og‘ir yuk ostida sinishi mumkin. Uning yagona afzalligi - bu past narx bo‘lib, u arzon chodirlar uchun qulaydir.

Kemping chodiri odatda uzoq vaqtga o‘rnataladi va shuning uchun yomg‘irdan ishonchli himoya qilishi va ultrabinafsha nurlarga qarshi turishi kerak. Chodirning qoplamasini suv o‘tkazmaydigan, choklari yopishtirilgan bo‘lishi kerak, tez yemiriladigan joylarga mustahkamlangan elementlar qo‘shilishi kerak. Chodirning pastki qismi muhim ahamiyatga ega, ya’ni uning suv o‘tkazmaslik ko‘rsatkichi qancha yuqori bo‘lsa, shuncha yaxshi bo‘ladi. Masalan, 10000 mm balandlikdagi suv hajmiga ega bo‘lgan

chodir poli hatto botqoqda ham qulay o‘tirishga imkon beradi. Shuni ta’kidlash kerakki, bir qator amerikancha chodirlarda suvga chidamlilik ko‘rsatkichlari ularning ishlatalish davrining boshlanishi uchun emas, balki butun davr uchun ko‘rsatilgan.



**2.7.19-rasm. Big Agnes Big House 4**

**2.7.20-rasm. Deluxe Big Agnes Uchar Diamond 4**

**2.7.21-rasm. Big Agnes Rabbit Ears 4**

**Stol – stullar va shezlonglar.** Kempingning «jihozlar to‘plami» ichiga qatlanadigan stollar, stellar va shezlonglar kiradi. Qoplamali jihoz kempingning ajralmas qismidir. Aynan u tushlik va dam olish vaqtini qulaylashtiradi, bu esa shezlongda bemalol dam olish uchun imkon beradi.

Quyida ovqatlanish va dam olishda foydalaniladigan kemping jihozlarining rasmi ko‘rsatilgan.



**2.7.22-rasm. «Relaxica» oshxona jihizi 2.7.23-rasm.  
«Outwell Kenora» stuli**



**2.7.23-rasm. «Outwell Kalgari L» stoli**

**Havo to‘Idirilgan to‘saklar** qattiq va notekis joylardan himoya qilib, qulay uqlash joyini ta’minlaydi. Eng qulay va eng og‘irlari to‘saklardir, eng ixchamlari esa o‘z - o‘zidan shishadigan termorest to‘sagidir. O‘z - o‘zidan shishadigan to‘saklar hech qanday nasosni talab qilmaydi, ular shunchaki joylashtiriladi va bir muncha vaqt qoldiriladi, shu vaqt ichida ular havo bilan

to‘ldiriladi. O‘z - o‘zidan shishadigan to‘shaklarning qalnligi 5 smgacha bo‘lishi mumkin, bu esa zarur qulaylikni yaratish uchun etarlidir.



**2.7.24-rasm. «Therm-a-Rest» qatlanadigan to‘shagi**

**«Outwell Laguna Hills» krovati.** «Outwell» Britaniya kompaniyasi kemping mahsulotlarini loyihalash va ishlab chiqarishga ixtisoslashgan bo‘lib, u bozorga 20 yildan beri o‘z mahsulotlarini taklif qilib kelmoqda.

U oddiy va ayni paytda ishonchli dizaynga ega, bu esa uni yasash paytida ko‘p harakat talab etmaydi. Uni ishlab chiqarishda iloji boricha uzoq vaqt xizmat qiladigan va shu bilan birga nisbatan arzon narxda bo‘lishiga harakat qilingan. «Outwell Laguna Hills»ning mahkamlangan ramkasi turli xil po‘lat qorishmalarining birikmasidan qilingan. Uning qismlarini emirilishdan himoya qilish uchun metall elementlarga qattiq chang qoplamasи qo‘llanilgan. Albatta, bu muqarrar ravishda og‘irlilikka ta’sir qiladi. «Outwell Laguna Hills»ning standart og‘irligi deyarli 7 kg. Ammo an’anaviy kemping uskunalari uchun bu jiddiy kamchilik emas, u har qanday holatda ham transport vositasida tashilishi mumkin.



**2.7.25-rasm. «Outwell Laguna Hills» krovati**

**«Outwell Laguna Hills» krovatining umumiy o‘lchamlari:**

- Yotoq joyning o‘lchami - 63 x 190/80 x 210 sm (L o‘lcham uchun)
- Krovatning balandligi - 44 sm
- Krovatning vazni - 6,9 / 9,1 kg
- O‘ramdagij hajmi - 9 x 20 x 95/10 x 20 x 104 sm
- Foydalanuvchining maksimal vazni - 125 kg

Yana bir «Outwell Posadas» nomli qatlanadigan krovat turi bo‘lib, u ham camping dam olish xududlarida foydalaniladi. «Outwell Posadas» qatlanadigan krovatning barcha ramka elementlari bir - biriga mustahkam bog‘langan. Ramka kuchli po‘lat va alyuminiy naychalardan iborat bo‘lib, poliester matoning bir tekis elastik kuchlanishini ta’minlaydi.

Qatlanadigan krovatning bu turi ham tezda va qiyinchiliklarsiz to‘shash yoki yig‘ishtirib olishga imkon beradi. Qatlanadigan krovatning bosh qismida kichik hajmli va havoni yaxshi o‘tkazadigan materialdan tikilgan kichik yostiqchasi bo‘ladi.



**2.7.26-rasm. «Outwell Posadas» qatlanadigan krovati**

**«Outwell Posadas» qatlanadigan krovatining umumiy o‘lchamlari:**

- Yotoq joyning o‘lchami 66 x 192/77 x 212 sm (XL o‘lchami uchun)
  - Krovatning balandligi - 45/48 sm
  - Krovatning og‘irligi - 7,9 / 9,6 kg
  - O‘ramdagi hajmi - 12 x 15 x 96/16 x 15 x 106 sm
  - Foydalanuvchining maksimal vazni - 125 kg

**«Robens Settler Bed» nomli qatlanadigan zambil.** U yengil, ixcham va qatlanadigan bo‘lib, kempinglarda uqlash uchun taklif qilinadigan boshqa krovat turlaridan qolishmaydi. Bu zambil ham xuddi krovatlardek yig‘ishtirilishi qulay, oson, po‘lat naychalardan yasalgan va har qanday transport vositasida joylashtirish mumkin.

Shu bilan birga «Settler Bed» past bo‘yli bo‘lib, atigi 16 sm va uning ustida o‘tirish kemping to‘shagidagi kabi qulay emas. Qolgan qismi analoglaridan deyarli farq qilmaydi: kuchli, bardoshli va katta to‘shakka ega.

«Robens Settler Bed» zambilining ajoyib xususiyat shundaki, uning burchaklaridan to‘shak chiqib ketmasligi va qimirlamasligi uchun mahkamlaydigan elastik tasmalari mavjud.



**2.7.27-rasm. «Robens Settler Bed» qatlanadigan zambil**

**«Robens Settler Bed» qatlanadigan zambilning umumiy o‘lchamlari:**

- Yotoq joyning o‘lchami - 61 x 191 sm
- Zambilning balandligi - 16 sm
- Zambilning og‘irligi - 4,82 kg
- O‘ramdagi hajmi - 44 x 25 x 8 sm
- Foydalanuvchining maksimal vazni - 120 kg

Bundan tashqari hozirda zamonaviy ko‘rinish va dizaynga ega yangi turdagи kemping zambillari ufr bo‘lmoqda. Ushbu turdagи qatlanadigan zambillar sanoat sohasida nisbatan yaqinda paydo bo‘ldi. An’anaviy qatlanadigan zambillardan farqli o‘laroq, ko‘chma kemping zambillari katta yotoq joyga va yuqori hajmdagi yukni ko‘tarish qobiliyatiga ega bo‘lib, paketdagi juda ixcham o‘lchamlari bilan e’tiborni tortadi. Ular, shuningdek, nisbatan kam vaznliligi bilan ajralib turadi, ya’ni bu zambillarning katta qismi 3 kg atrofidagi vaznga ega.

Bunday qatlanadigan zambillar asosan, uskunaning kichik hajmi va uning og‘irligi bo‘lsa, kichik yuk bo‘linmasiga ega avtoulov, mototsikl egalari hamda suv va velosiped turizmini yaxshi ko‘radiganlar uchun mos keladi.

## 2.7.1-jadval

### Kemping uchun taklif etiladigan krovat va zambillar o‘lchamlari

Model	Outwell Laguna Hills	Outwell Posadas	Robens Settler Bed
Yotoq joyning o‘lchami, sm	63x190/80x21 0 <sup>1)</sup>	66x192/77x21 2 <sup>2)</sup>	61x191
Balandligi, sm	44	45/48 <sup>2)</sup>	16
Vazni, kg	6,9/9,1 <sup>1)</sup>	7,9/9,6 <sup>2)</sup>	4,82
O‘ramdagi hajmi, sm	9x20x95/10x2 0x104 <sup>1)</sup>	12x15x96/16x 15x106 <sup>2)</sup>	44x25x8
Foydalanuvchi ning maksimal vazni, kg	125	125	120

<sup>1)</sup> L hajmi uchun

<sup>2)</sup> XL o‘lchamlari uchun

Shulardan biri «Therm-a-Rest Luxury Lite Mesh Cot» nomli ko‘chma kemping zambili bo‘lib, Therm-a-Rest kompaniyasi 45 yil oldin birinchi o‘zi shishadigan to‘shaklarni yaratib, tabiat qo‘ynida qulay dam olish masalasida haqiqiy inqilobni amalga oshirdi. 2014 - yilda esa kompaniya bozorga bir qator ixcham va engil qatlanadigan ko‘chma kemping zambillarni chiqardi. Ular orasida «Luxury Lite» turini eng qulay deb hisoblash mumkin.

Therm-a-Rest zambillari asosida «BowFrame» alyuminiy ramkasi yotadi, uning vazni juda oz, yuk ko‘tarish qobiliyati 147,5 kg gacha bo‘lib, to‘shak gilamchasinging egiluvchanligini ta’minlaydi. «BowFrame» ramkasining yana bir ijobjiy xususiyati qulay yig‘ilishidir. U oltita egiladigan alyuminiy segmentidan iborat, ammo vazni 80 kg dan kam bo‘lgan foydalanuvchilarga xizmat qiladi. Bu esa vazni va qadoqlash hajmini kamaytiradi.

«BowFrame» ramkasining matosi neylon va PVX bardoshli materiallardan qoplangan. U juda issiq havoda ham yaxshi havo

o‘tkazuvchanlik xususiyatiga ega, tozalash oson va namlikni yutmaydi.



**2.7.28-rasm. «Therm-a-Rest Luxury Lite Mesh Cot» qatlanadigan zambili**

**2.7.2-jadval**

**«Therm-a-Rest Luxury Lite Mesh Cot» qatlanadigan zambilining umumiy o‘lchamlari**

<b>Model</b>	<b>Regular</b>	<b>Large</b>	<b>XLarge</b>
Yotoq joyning o‘lchami, sm	64x183	66x193	76x196
Zambilning balandligi, sm	11		
Zambilning vazni, kg	1,62	1,81	2,01
O‘ramdagi hajmi, sm	46x15		
Foydalanuvchining maksimal vazni, kg	147,5		

**«Helinox Cot One» qatlanadigan kemping zambili.** «Helinox» kompaniyasi faol dam olish industriyasida paydo bo‘lganiga ko‘p

bo‘lmadi, ammo uning mahsulotlari foydalanuvchilarning ishonchini qozondi va turli ko‘rgazmalarda yuqori mukofotlarga sazovor bo‘ldi. Bugungi kunda ularning qatlanadigan zambilari sayyohlik sohasida «ishonchlilik/kam og‘irlik/qulaylik» nisbati bo‘yicha dunyoda etakchi hisoblanishi mumkin.

«*Helinox Cot One*» kompaniyaning birinchi mahsuloti hisoblanadi. U kichik og‘irlikdagi, ixcham qadoqlash xususiyati va oson yig‘iladigan dizayni bilan ahamiyatlidir.



**2.7.29-rasm. «Helinox Cot One» qatlanadigan zambili**

**«Helinox Cot One» qatlanadigan zambilning umumiy o‘lchamlari:**

- Yotoq joyning o‘lchami - 67 x 183 sm
- Zambilning balandligi - 15 sm
- Zambilning minimal vazni (holda) - 1,91 kg
- O‘ramdagи hajmi - 54 x 14 x 14 sm
- O‘ramdagи og‘irligi - 2 kg
- Foydalanuvchining maksimal vazni - 145 kg

Keyingisi «*Helinox Cot Maks*» qatlanadigan kemping krovati bu - «*Helinox Cot One*» qatlanuvchi krovatlarning kattalashtirilgan

turidir. Boshqa qatlanadigan krovatlardan farqli ravishda oyoq qismining qo'shilishi natijasida katta yotoq yuzasi barqarorlikni ta'minlaydi. Shu bilan birga, «Helinox Cot Maks» da «Helinox Cot One»ga nisbatan qadoqlash hajmi deyarli o'zgarishsiz qoladi. Ular asosan kottejlar va tayanch lagerlarda, shuningdek, dala hovlilari hamda kvartiralarda foydalanish uchun mo'ljallangan.

***«Helinox Cot Maks» qatlanadigan kemping krovatining umumiy o'lchamlari:***

- Yotoq joyning o'lchami - 72 x 205 sm
- Krovatning balandligi - 16 sm
- Krovatning minimal vazni (holda) - 2,58 kg
- O'ramdagi hajmi - 58 x 17 x 17 sm
- O'ramdagi og'irligi - 2,7 kg
- Foydalanuvchining maksimal vazni - 145 kg

### 2.7.3-jadval

#### Kemping uchun taklif etiladigan krovat va zambillar o'lchamlari


Model	Therm-a-Rest LuxuryLite Mesh Cot	Helinox Cot One	Helinox Cot Max
Yotoq joyning o'lchami, sm	64x183/66x193/76x196	67x183	72x205
Balandligi, sm	11	15	16
Vazni, kg	1,62 / 1,81 / 2,01	2	2.7
O'ramdagi hajmi, sm	46x15	54x14x14	58x17x17
Foydalanuvchi- ning maksimal vazni, kg	147,5	145	145

**Kemping gilamchalari.** Portativ kemping krovat va zambillari singari qatlanadigan gilamchalar zamонавиј faol dam olish sanoatida yangilik hisobланади. Bugungi kunda ular aslida ikkita model bilan namoyish etilmоqда. Bular «Therm-a-Rest LuxuryLite Ultralight Cot» va «Helinox Lite Cot». Ularning umumiy xususiyati bu - qatlanadigan krovatlar uchun juda oz vazn, ya’ni standart o’lchamдagi ikkala modelning vazni 1 kilogrammdan kam! Shuningdek ularни qadoqlash juda oson.



**2.7.30-rasm. Kemping gilamchalari**

Bu kabi gilamchalarni tanlashda tana og‘irligining hajmi va shakliga, gilamchaning o’lchamlari va safar shartlariga mosligiga ham e’tibor berish kerak. Gilamchalarning o’lchами odatda xuddi kiyimlarning xalqaro o’lchamlari kabi harflar belgisining qisqartirilgan shaklda ko’rsatiladi. Ularning asosiyлари S (kichik, «small»), M yoki Reg (o’rta, «medium») va L (katta yoki uzun, «large», «long»). Har bir belgi gilamchaning ma’lum bir uzunligi va kengligiga mos keladi, ammo bu o’lchamlar har bir ishlab chiqaruvchi korxonalarda har xil bo’lishi mumkin.




### 2.7.31-rasm. Term-a-dam kompaniyasining gilamchalar uchun o'lcov mezoni

Gilamchalarining uzunligi juda keng o'lchamda farq qilishi mumkin, ya'ni 90 dan 197 sm gacha. Eng kichiklari 119-130 sm uzunlikdagi gilamchalar, 183 sm o'rtacha uzunlikdagi M yoki Reg o'lchamiga mos keladigan eng keng tarqalgan gilamchalar va eng uzun modellar baland foydalanuvchilarga mo'ljallangan bo'ladi.

Shveytsariyaning «Exped» kompaniyasi kabi ba'zi ishlab chiqaruvchilar gilamchalarining individual modellarining keng variantlarini ishlab chiqaradilar, ularning o'lchamlarini «W» harfi bilan (ingliz tilidan «wide» - «keng») belgilaydilar. Eng uzun modellar esa yuqori foydalanuvchilarga mo'ljallanadi yoki lagerlar uchun yaratiladi. Shuning uchun bir nechta gilamchalarni sotib olayotganda, ularning kengligi va uzunligi chodir yoki krovatning kengligi bilan moslashtirish kerak bo'ladi, aks holda jiddiy noqulaylikka olib kelishi mumkin. Agar doimiy ravishda juftlikda sayohat qilinsa, unda gilamchalarining juft modellarini ko'rib chiqish kerak. Buning yorqin namunasi sifatida «Exped SynMat Hyperlite Duo» gilamchasini aytish mumkin.

Turistik gilamchalarining shakli to'g'ri to'rburchak yoki pilla shaklida bo'lishi ham mumkin.



### 2.7.32-rasm. Turistik gilamchalar

**Yotoq xaltalari.** Kemping uchun xalta - ko‘rpalar va «bosh ostiga yostiqchasi bor ko‘rpa» tuzilmaga ega bo‘lgan xaltalar mos keladi. Kemping sharoitida «pilla» dizaynidagi xaltalar mos emas. Ular ichki matosi paxta yoki aralashgan matolardan iborat bo‘lganligi uchun hamda kemping issiq mavsumda faoliyat ko‘rsatishini inobatga olib, uplash uchun xaltalar yuqori termal himoya talablariga ega bo‘lmaydi. Namlikka qarshilik va quritish qobiliyati, aksincha, juda muhimdir, chunki kemping ko‘pincha suv havzasi bo‘yida tashkil etiladi. Shuning uchun ichki to‘ldiruvchi vositasi sintetik bo‘lishi kerak.

Quyidagilarning barchasi kemping uchun uplash xaltasini tanlash tamoyillarini aniqlaydi:


- kempingda uplash uchun xalta imkon qadar qulay bo‘lishi, aksincha shahar aholisi uchun g‘ayrioddiy muhit yaratmasligi kerak;
- kemping uchun uplash xaltasi harakatga xalaqit bermasligi va oson aylanishiga imkon beradigan darajada hajmli bo‘lishi kerak;

- uqlash xaltasi sayohat qilayotgan mavsumga mos bo‘lishi kerak. Barcha holatlar uchun bitta uqlash xaltasini sotib olmaslik kerak. Agar yil bo‘yi sayohat qilinsa kamida ikkita yoz va qish mavsumi uchun uqlash xaltasi bo‘lishi kerak;

- to‘g‘ri harorat oralig‘ini tanlash kerak.

Quyidagi o‘lchovlar kempingda uqlash xaltasi uchun deyarli hech qanday aloqasi yo‘q:

- Og‘irligi;
- Qatlangan vaqtdagi hajmi;
- Qatlanganda uqlash xaltasining maydoni.



**2.7.33-rasm. Kemping uchun «ko‘rpa» shaklidagi uqlash xaltasi**

Ikkita qatlamlili ko‘rpadan iborat tuzilma ham ochiq ham yopiq holda, yoki shunchaki o‘ralgan holda uqlashga imkon beradi. Tuzilmaning soddaligi katta imkoniyat beradi, ya’ni:


- ko‘rpa qo‘l va oyoqlarga bo‘sh joy qoldiradi, osongina «yulduzcha» shaklidida uqlash mumkin;

- uxlash xaltasi osongina yopiladi, ularda ikkita yoki uchta odam uxlashi mumkin! Sevimli juftliklar va yosh bolali oilalar buni albatta qadrlashadi.



**2.7.34-rasm. Ikkita qatlamlı kemping uxlash xaltasi**

Ushbu turdagи uxlash xaltalarining ko‘plab modellarida bosh osti yostiqchasi bo‘ladi. Bu uyquni yanada qulay qiladi, salqin havoda boshni isitadi, bosh ostida kichik yostiq hosil qiladi. Bosh osti yostiqchasini olinadigan va olinmaydigan turi ham bor. Olib tashlanadigan, ishlatilmaydigan turi tez - tez yuvish va tozalash uchun qulay. Olinmaydigan bosh osti yostiqchasi bo‘yining yaxshiroq termal himoyasini yaratadi.



**2.7.35-rasm. «Outwell Camper» kemping uxlash xaltasi**

Bu engil va issiq, klassik uqlash xaltasi bahor, yoz va kuz oylarida foydalanish uchun juda mos keladi. APF - Izoterm 3D sintetik moddasi bilan to‘ldirilgan. Qulaylik harorati  $+2^{\circ}\text{C}$  gacha. Zamonaviy APF - Izoterm 3D to‘ldiriluvchi moddasi ho‘l bo‘lganda ham ishlaydi, tez quriydi va uzoq muddatli siqishga chidamli.

**Ovqat pishirish pechlari va gaz plitalar.** Ovqat pishirish uchun albatta, bu gaz pechlari va pechkalardan foydalaniladi. Ammo haydovchilar uchun suyuq yoqilg‘ida ishlaydigan pechkalar ham tegishlidir. Suyuq yoqilg‘ida ham, gazda ham ishlaydigan ko‘pgina yoqilg‘i yondirgichlari mavjud.

Gaz bilan ishlaydigan isitish moslamalaridan foydalanish juda oddiy. Pechkani oldindan qizdirishning hojati yo‘q, shunchaki murvatni burab, olov yoqish kerak. Gaz pechlari va pechkalarning ba’zi modellari pechkaga o‘rnatilgan piezo - yondirgichlar bilan jihozlangan, ammo baribir dam oluvchilar o‘zлari bilan gugurt olib yurish kerak, chunki nam sharoitda piezo - yondirgichlar ishlamay qolishi mumkin. Ammo gaz atrof - muhit haroratiga juda sezgir, haroratning pastligida gaz ballonni isitish kerak bo‘ladi.

Ba’zi gaz pechlari modelida piezo - yondirgichlar ballonning yuqori qizmida o‘rnatilgan bo‘ladi. Hozirgi kunda ko‘p va suyuq yoqilg‘ida ishlaydigan yondirgichlar faqat tashqi ballon bilan ishlaydi. Ballonlarning hajmi bir litrga yoki besh yuz mililitrga teng va ularagi bosimni ko‘tarish uchun nasos ishlatiladi.

Ko‘p yoqilg‘i yondirgichlari bir - birining o‘rnini bosadigan jetlar bilan jihozlanadi, ularning har biri ma’lum bir yoqilg‘i turiga mo‘ljallanadi. Xuddi shu toifadagi kemping jihozlarini gaz yondirgichlariga kiritish mumkin.

Bundan tashqari gulxan va sayyohlik yondirgichlari ovqat pishirishning yagona usuli emas. Gulxanlarni hamma joyda va har doim ham yoqish mumkin emas, kichik pechkalarda esa ko‘p vaqt davomida pishirib bo‘lmaydi. Kompakt gazli pechkalar kemping uchun juda yaxshi - ularni ishlatish qulay, har qanday hajmdagi idishlar yaxshi o‘rnatiladi.

Gazli grill yoki portativ barbekyu olish ham mumkin. Ular mangalga qaraganda ancha ixcham, kiyimlarda tutun hidi urmaydi va turli xil taomlar tayyorlash mumkin.



**2.7.36-rasm. «Primus Atle II» gaz plitasi**



**2.7.37-rasm. «Coleman» gazli barbekyu**

**Kemping uchun idish - tovoqlar.** Portativ isitish moslamalarini olovda taom pishirganda, samaradorlik va tejash uchun alyuminiy yoki zanglamaydigan po'latdan yasalgan maxsus idishlardan foydalanish kerak. Bunday idish devorlarining qalinligi turistik o'choqlarni va ko'chma pechkalarni olovda tayyorlash uchun mo'ljallangan, shakli suvni tez isitish va qaynatishni ta'minlaydi, zinch yopiladigan qopqoqlar xuddi shu maqsadda xizmat qiladi.

Maxsus idish - tovoqlar to'plami yig'ishtirilganda ixcham holga keladi, bitta ob'ekt boshqa narsaga joylashtiriladi va ustiga qopqoq qo'yiladi. Bunday idishlar butun hayot davomida tashqi jozibasini yo'qotmaydi.

Ammo yondirgich va pechkalarda ovqat tayyorlash uchun mo'ljallangan idishlar gulxanda pishirish uchun ishlatilmasligi kerak. Ovqat pishiriladigan idish – tovoqlarning pastki qismi va devorlari muqarrar ravishda gaz yoki gaz pechiga joylashtirilganda ovqat kuyishining oldini oladigan maxsus qatlam bilan qoplanadi.

Suv uchun krujkalar odatiy va termokrujkalarga bo‘linishi mumkin, unda ichiga solingan suyuqlikning harorati saqlanib turadi (albatta, bir muncha vaqt). Termokrujkalar, shuningdek, issiq ichimlik ichadigan odamning lablari va qo‘llarini kuydirmaslik xususiyatiga ega. Uning yagona kamchiligi shundaki, sovutilgan choy yoki qahvani ichidagi olovda to‘g‘ridan - to‘g‘ri qizdirib bo‘lmaydi.



**2.7.38-rasm. «MSR Quick 2»  
idishlar to‘plami**



**2.7.39-rasm. «MSR Trail  
Lite Duo System» to‘plami**



**2.7.40-rasm. «Stanley  
Mountain Vacuum»  
to‘plami**



**2.7.41-rasm. MSR Trail Lite  
Duo Coffee System»  
kofe qaynatgich**

Termokrujkalarni ishlab chiqarish uchun asosiy material zanglamaydigan po'latdir, ammo plastmassadan tayyorlangan termokrujkalar ham mavjud. Lekin ular metalldan engilroqdir.



**2.7.42-rasm. «MSR Alp Deluxe» oshxona to‘plami**



**2.7.43-rasm. «Thermos Classic 36 Can Cooler» termosli sumkalari**

**2.7.44-rasm. «Thermos 40 Litre Collapsible Party Chest» termosli sumkalari**

**2.7.45-rasm. «Campingaz Shopping Cooler 15l» termosli sumkalari**

Shuningdek, sayyohlik idishlarini ishlab chiqaruvchi korxonalar qatlanadigan va qatlanmaydigan pichoqlar, vilkalar va qoshiqlarning juda keng assortimentini taqdim etadi.

Ovqatni muzlatgichda saqlash yaxshiroqdir. U ixcham va ko‘p joy egallamasligi kerak. Agar sayyohatda avto uy bo‘lmasa, ideal variant - bu termal idish yoki termosli sumkadir. Ular juda oson ishlaydi, uyda maxsus sovuq akkumulyatorlarni muzlatib, mahsulot bilan birga sumkaga solish mumkin. Oziq - ovqat va ichimliklar uchun turli xil konteynerlardan ham foydalanish yaxshi chunki issiqda muzlatgich tez - tez ochilganda o‘zidagi sovuqni yo‘qotishi mumkin. Quyida anashunday termosli sumkalar turlari ko‘rsatilgan.

## **2.8. G‘ildirakli uylarning paydo bo‘lish tarixi va rivojlanishi**

G‘ildirakli uylar – bir motorli, o‘z ichida turar joyi mavjud bo‘lgan o‘zi yurar avtoulovdir.

G‘ildirakli uylarning tarixi o‘tgan asrning 10 – 20 - yillariga to‘g‘ri keladi. Pierce – Arrow kompaniyasi birinchilardan bo‘lib, «Madison Square Garden» avto shousida The Touring Landau mashinasining namoyishini o‘tkazdi. Shu paytdan boshlab g‘ildirakli uylarni ishlab chiqarish boshlandi. Turistik mashinalarni sayyoohlар sotib ola boshladi va shu mashinalar orqali sayohat qilish rivojlana boshladi.

Birinchi jahon urushi boshlanganidan so‘ng, g‘ildirakli uylarni ishlab chiqarish to‘xtab qoldi. 1950 – yillarda bir qator kompaniyalar tomonidan g‘ildirakli uylarni ishlab chiqarish qayta yo‘lga qo‘yildi. Shundan boshlab dezaynerlar ularning har xil ko‘rinishlarini taklif qila boshladi.

Raymond Frank bu mashinalarni birinchi bo‘lib «g‘ildirakli mashina» deb atadi. U o‘zining oilasi uchun g‘ildirakli uyni ishlab chiqardi va Floridaga sayohat qildi. 1960-yilgacha Franklar oilasi 7 ta shunday mashinalarni ishlab chiqardi va Frank Motor Homes kompaniyasiga asos soldi.

Tez orada boshqa kompaniyalar ham g‘ildirakli uylarni ishlab chiqarishni kuchaytira boshladи. 1958 - yilda ularning taniqlisi «Winnebago» kompaniyasi John Hansonn tomonidan tashkil etildi. Hanson kompaniyasi «Biror narsaga ega bo‘lishning eng arzon yo‘li bu - uni o‘zing yaratishingdir» degan shior bilan ishlay boshladи. Shu tariqa g‘ildirakli uylarni ishlab chiqarish rivojlana boshladи. John Honson kompaniyasi 1969 - yilda 23100 ta g‘ildirakli uylarini sotgan bo‘lsa 2014 - yilda esa 43900 ta g‘ildirakli uy sotildi.

Quyida dastlabki (1922 - yil Germaniya) g‘ildirakli uylardan biri ko‘rsatilgan.



**2.8.1-rasm. Dastlabki g‘ildirakli uy, Germaniya**

Hozirda g‘ildirakli uylardan foydalanish Buyuk Britaniya, AQSH va Kanadada yaxshi rivojlangan. Hozirgi zamонави g‘ildirakli uylarning ko‘rinishi va dizayni zamонавиylashib, qulay sharoitlar tashkil etilmoqda. Ularda yotoqxona, oshxona, yuvinish xonasi, hojatxona va boshqa qulayliklar yaratilgan.



**2.8.2-rasm. Zamonaviy g‘ildirakli uyning ko‘rinishi**

Ularning har xil turlari va ko‘rinishlari quyida keltirilgan:



**2.8.3-rasm. Zamonaviy g‘ildirakli uylarning turlari**



**2.8.4-rasm. Zamonaviy g‘ildirakli uyning ko‘rinishi**

Bundan tashqari ularning antiqa turlari ham mavjud:



**2.8.5-rasm.Antiqa g‘ildirakli uyning ko‘rinishi**



#### 2.8.6-rasm.Antiqa g'ildirakli uyning ko'rinishi

G'ildirakli uylarda sayohat qilish nisbatan arzonroqqa tushadi. Shuning uchun ham AQSH va Kanadaliklar aynan shu turni tanlaydilar. G'ildirakli uylarning 3 ta kategoriyalari: Class A, Class B va Class C mavjud.

**Class A.** Eng hashamatli va qimmat bo'lgan kategoriadir. Bu classda barcha sharoitlar yaratilgan hamda mustahkam mexanizmga ega xonalari hech bir an'anaviy mehmonxonanikidan qolishmaydi. Tashqaridagi chiroyli manzaralar yaxshi ko'rinishi uchun oynalari nisbatan kattaroq yasatilgan.

**Class B.** Ushbu klassdagi g'ildirakli uylar ko'pincha o'rta hollar uchun taqdim etiladi. Bunda 2 o'rinli yotoq va birlamchi ehtiyojlar uchun sharoitlar tashkil etilgan.



**2.8.7-rasm. A –Classdagi  
g‘ildirakli uy**

**2.8.8-rasm. B –Classdagi  
g‘ildirakli uy**

**Class C.** Bu klassdagi sharoitlar qolgan klasslardan ancha farq qiladi. A va B klassga qaraganda xonalarning o‘lchami, undagi qulayliklar, xonalarning soni va boshqa jihatlari bilan farqlanadi. Bunday klasslarni tanlash ancha arzonga tushadi. Unda deyarli qo‘sishimcha xizmatlar mavjud bo‘lmaydi va faqatgina birlamchi ehtiyojlarni qondirish imkonini mavjud.



**2.8.9-rasm. C –Classdagi g‘ildirakli uy**



**2.8.10-rasm. C –Classdagi g‘ildirakli uy**

### **III - BOB. DUNYODAGI NOODATIY VA ENG G‘AROYIB MEHMONXONALAR TURLARI**

Bugungi kunda an'anaviy mehmonxonalardan charchagan sayyoohlар tanlashi uchun juda ko'p imkoniyatlarga ega. Turistlarni tunab qolishlari uchun mehmonxonaga jalb qilishni istagan turli mehmonxonalar yaratuvchilarning tasavvurlari beziz emas. Uzoq vaqt davomida eng g‘ayrioddiy joylar va sharoitlardagi joylashtirish vositalari hayratlanarli joy sifatida emas, balki yashash imkoniyatlari, ular joylashgan mamlakatlarga qiziqish uyg‘onishi va g‘ayrioddiy tuyg‘ularni boshidan kechirishlari mumkin.

Quyida dunyodagi eng o‘ziga xos joylashtirish vositalarining nomlari va ular joylashgan mamlakatlar haqida ma'lumotlar keltirilgan:

#### **3.1.1-jadval**

##### **Dunyodagi eng o‘ziga xos joylashtirish vositalari**


	<b>Joylashtirish vositalari nomlari</b>	<b>Joylashgan mamlakatlar</b>
1.	Qadimiy qal'alar, monastirlar va soborlar	Fransiya, Italiya, Ispaniya, Ruminiya, Germaniya, Avstriya, Chexiya, Vengriya, Shveysariya, Buyuk Britaniya, Gollandiya va Partugaliya
2.	Sobiq qamoqxonalar	Germaniya, Yaponiya, AQSH, Italiya, Argentina, Shvesiya, Latviya, Rossiya, Buyuk Britaniya, Hindiston va Sloviniya
3.	Yer osti bunkerlarida	Germaniya, Finlandiya, Shveysariya, Xitoy, AQSH va Vengriya
4.	Muzey tomida	Fransiya
5.	Diogenes uy shaklidagi	Germaniya va Gollandiya

	bochkalarda	
6.	Butunlay muzdan qilingan qorli uylar va binolar	Shvesiya, Finlandiya, Kanada, Yangi Zillandiya, Shveysariya, Avstriya, Norvegiya, Ruminiya va Andorra
7.	Hind vigvamlari	AQSH, Kanada, Boliviya, Venesuella va Kosta - Rika
8.	G‘orlarda	Avstraliya, Ispaniya, Turkiya, AQSH, Hindston va Xitoy
9.	Ichi bo‘sh va daraxtli uylarda	Germaniya, Kosta - Rika, Keniya, Briziliya, AQSH, Yamayka, Xitoy, Hindiston, Turkiya, Belgiya va Shvesiya
10.	Suv ostida	AQSH, Shvesiya, BAA, Moldiv orollarida faoliyat olib borilmoqda. Fidji, Turkiya, Xitoyda qurilish ishlari olib borilmoqda.
11.	Tosh va tuzli uylarda	Baliviya
12.	Qal’alarida, shamol tegirmonlarida va mayoqlarda	Fransiya, Ispaniya, Partugaliya, AQSH, Norvegiya, Braziliya, Germaniya, Buyuk Britaniya va Gollandiya
13.	Xojatxonada	Janubiy Koreya
14.	Shimoliy qutb doirasidan tashqarida va muzda muzlagan shounerlarda	Norvegiya
15.	Vertalyotlarda	Shvesiya va AQSH
16.	Poye’zdlarda	Buyuk Britaniya, AQSH, Xitoy, Rossiya, JAR, Hindiston, Fransiya, Turkiya, Chili, Kanada, Peru, Avstraliya va Shveysariya

Yuqorida keltirilgan jadvaldan joylashtirish vositalarining ayrim turlarini tahlil qilish natijasida ular haqida qiziqarli ma'lumotlarni topdik. Tahlil natijasida shu narsa ma'lum bo'ldiki, dunyoda juda ko'p mehmonxonalar va joylashtirish vositalari o'zining antiqa uslubi va shakl – shamoyiliga egaligi bilan turistlar orasida mashhur. Shuning uchun turistlarni eng ko'p o'ziga jalb qilishi bilan ular o'z reytingiga va o'rniga ega bo'lmoqda. Reytingni tuzishda turistlar orasida dam olish maskanlarining mashhurligi, shuningdek, u yerdagi mehmonlarning sharhlari hisobga olingan. Biz sizning e'tiboringizga dunyodagi 10 ta ekstravagant mehmonxonalarni taqdim etamiz.

### **3.1. «Poseidon Undersea Resort» mehmonxonasi**

«Poseidon Undersea Resort» mehmonxonasi Fidge orolidagi suvda, oldingi suv osti stansiyasi asosida qurilgan Poseidon Undersea kurortida tushushingiz mumkin.



**3.1.1-rasm. «Poseidon Undersea Resort» mehmonxonasining  
joylashuvi**

Ushbu ajoyib mehmonxona 74 nomerdan iborat bo‘lib, ulardan 25 tasi suv ostida 15 m chuqurlikda joylashgan, qolganlari esa to‘g‘ridan – to‘g‘ri suv ustidagi ustunlarda joylashgan. Suv ostidagi nomerlarning har biri yo‘lakning qolgan qismiga ulangan 50 mli shaffof kapsuladan iborat. O‘z xonalarida dam olayotganda mehmonlar hattoki kechalari dengiz hayoti haqida o‘ylashlari mumkin. Buning uchun ular suv osti dunyosini o‘ziga jalb qiladigan maxsus yoritgichlarni yoqishlari kerak bo‘ladi.

Ushbu mehmonxonaning 1 kishi uchun 7 kunlik narxi – 150000\$<sup>20</sup>.



**3.1.2-rasm. «Poseidon Undersea Resort» mehmonxonasining suv ostidagi ko‘rinishi**

<sup>20</sup> <https://www.biletik.aero/handbook/blog/oteli/samye-udivitelnye-i-neobychnye-oteloi-mira/>



**3.1.3-rasm. «Poseidon Undersea Resort» mehmonxonasining  
suv ostidagi nomeri**



**3.1.4-rasm. «Poseidon Undersea Resort» mehmonxonasining  
suv ostidagi nomeri**



**3.1.5-rasm. «Poseidon Undersea Resort» mehmonxonasining  
kutish zali**



**3.1.6-rasm. «Poseidon Undersea Resort» mehmonxonasining  
restorani**




**3.1.7-rasm. «Poseidon Undersea Resort» mehmonxonasining restorani**

### **3.2. «ICEHOTEL» mehmonxonasi**

Shvesiyaning Yukkas'yarvi shahrida qad ko'targan bu mehmonxona muz va qordan qurilgan eng yirik mehmonxona hisoblanadi. Muz mehmonxonasi  $6000\text{ m}^2$  turar - joy san'at ob'ekti bo'lib, butunlay muz va qordan yasalgan. Eng qizig'i shundaki, yozga kelib qor va muzlar erib ketadi, lekin har yili noyabr oyida mehmonxonaning noyob ichki va me'moriy majmuasi qayta tiklanadi. Dunyoning turli burchaklaridan kelgan rassomlar g'aroyib qoyalarni hayotga tadbiq qilish uchun Shvesiyaning Yukkas'yarvi qishlog'iga kelishadi. Muz xonalari hayvonlarning terilari va muz haykallari bilan bezatilgan. Mehmonxona mehmonlari issiq o'rangich bilan o'ralib uqlashadi. Barcha qulayliklar mehmonxonadan tashqarida, undan bir necha metr uzoqlikda joylashgan alohida xonalarda tashkil etilgan. Mehmonlarning yuklari ham o'sha yerda saqlanadi.



**3.2.1-rasm. «ICEHOTEL» mehmonxonasi**



**3.2.2-rasm. «ICEHOTEL» mehmonxonasi**

Muzli mehmonxonada qolishni istagan turistlarga muz xonasida uqlash haqida ko'rsatmalar beriladi. Uning harorati taxminan - 5°C. Shuning uchun muz xonasida bir kechadan ko'proq vaqt o'tkazish tavsiya etilmaydi. Har yili bu mehmonxonaga 50000 gacha turistlar tashrif buyuradi. Ushbu mehmonxonaning 1 kishi uchun 1 kechalik narxi – 320 yevro turadi<sup>21</sup>.



**3.2.3-rasm. «ICEHOTEL» mehmonxonasi nomeri**



**3.2.4-rasm. «ICEHOTEL» mehmonxonasi nomeri**

---

<sup>21</sup> <https://www.biletik.aero/handbook/blog/oteli/samye-udivitelnye-i-neobychnye-oteloi-mira/>



**3.2.5-rasm. «ICEHOTEL» mehmonxonasi nomeri**



**3.2.6-rasm. «ICEHOTEL» mehmonxonasi nomeri**



**3.2.7-rasm. «ICEHOTEL» mehmonxonasining restorani**



**3.2.8-rasm. «ICEHOTEL» mehmonxonasidagi muzlatilgan idishlar**

### **3.3. «Montana Magica Lodge» mehmonxonasi**

Ushbu mehmonxona Chilining Neltume shahrida joylashgan mo‘jizali tog‘ qasr chinakam tropik manzarani eslatuvchi mehmonxona hisoblanadi. Amalda uning atrofidagi shaffof o‘rmon bilan birlashtirilgan ushbu mehmonxona Patagoniyadagi Huilo Huilo qo‘riqxonasida joylashgan. Yashil o‘rmonni yodga soluvchi mazkur mehmonxona o‘zining antiqaligi bilan ajralib turadi va rosmana elflarning ertakli uyiga o‘xshaydi.

Tashqi ko‘rinishi (uning nomi) bilan tog‘ mehmonxonasi bu joylarda sehrli tog‘ning mavjudligi haqidagi afsonani aks ettiradi. Ikkala tomondagi derezalari esa xuddi chuqur va yashil moxli kipriklari bilan juda katta ko‘zlarga o‘xshaydi. Mehmonxonaga kirish odatiy holdir va u yerda hech qanday kutilmagan xodisalar bo‘lmaydi.

Xududga kirganingizda 232 mil maydondagi o‘rmonni ko‘rasiz va atrofingizda juda g‘ayrioddiy hayvonlar bo‘lib, ular orasida balandligi 13 dyum keladigan dunyodagi eng kichik kichiklar ham bor.

Mehmonxonaga kirish ko‘pgina oddiy binolarda bo‘lgani kabi, pastda joylashgan emas, lekin baland strukturaning uchidan faqat maxsus tebranadigan osma ko‘prik orqali kirish mumkin. Daraxt va toshlardan qurilgan mehmonxonaning o‘ziga xos jihat shundaki, bu g‘aroyib binoning yuqori qismida favvora joylashgan va tog‘li mehmonxonaning yon bag‘irlari ostidan oqayotgan suvli kichik sharshara hosil bo‘ladi. Vulqonli sharshara mehmonxonaning devorlaridan tashqariga sizib oqadi

Ushbu mehmonxonaning 1 o‘rinlik nomer narxi – 225\$ turadi<sup>22</sup>.

---

<sup>22</sup> <https://www.biletik.aero/handbook/blog/oteli/samye-udivitelnye-i-neobychnye-otelo-mira/>



**3.3.1-rasm. «Montana Magica Lodge» mehmonxonasi**



**3.3.2-rasm. «Montana Magica Lodge» mehmonxonasining nomeri**



**3.3.3-rasm. «Montana Magica Lodge» mehmonxonasining nomeri**



**3.3.4-rasm. «Montana Magica Lodge» mehmonxonasining restorani**



**3.3.5-rasm. «Montana Magica Lodge» mehmonxonasining restorani**



**3.3.6-rasm. «Montana Magica Lodge» mehmonxonasining restorani**

### **3.4. «Manta Underwater room» mehmonxonasi**

Ushbu mehmonxona Tanzaniyaning Pemba Oroi Zanzibarda joylashgan suv osti nomerli mehmonxonasiadir. Uy qayig‘ida ikki xil daraja mavjud, ya’ni biri, suv ustida kun bo‘yi quyoshda cho‘milish, toblanish va kechasi yulduzlarni kuzatish uchun, ikkinchisi, suv ostidagi o‘lkan derazalari bo‘lgan yotoqxona bo‘lib, u yerda dam olish va televizor o‘rniga - manzarali derazalar orqali suv osti hayotini: ekzotik baliqlar, meduzalar va kalmarlarning yashashini kuzatish mumkin.


Ushbu ajoyib mini suv osti suzuvchi uyi Hind okeani qirg‘og‘idan 250 m narida joylashgan. Ushbu mehmonxona - shved kompaniyasi Genberg Underwater Hotels loyihasi asosida tashkil etilgan.

Ushbu mehmonxonaning 1 kechalik narxi – 1000 yevro turadi<sup>23</sup>.



**3.4.1-rasm. «Manta Underwater room» mehmonxonasi**

<sup>23</sup> <https://www.biletik.aero/handbook/blog/oteli/samye-udivitelnye-i-neobychnye-oteloi-mira/>



**3.4.2-rasm. «Manta Underwater room» mehmonxonasi**



**3.4.3-rasm. «Manta Underwater room» mehmonxonasining nomeri**

### **3.5. «Giraffe Manor» mehmonxonasi**

Afrikaning Safari to‘plamidagi binolardan biri Keniya poytaxti Nayrobidan 20 km uzoqlikda joylashgan zamonaviy yovvoyi tabiat qo‘riqxonasining bir qismi bo‘lib, huddi ertaklardagi qasrga o‘xshaydi. Bu uy o‘tgan asrning 30 - yillarida Devid Dunkan tomonidan Shotlandiyaning ovchilik lodji uslubida qurilgan. Buning sababi, 1932 - yilda deyarli 6000 fut balandlikda qurilgan nafis mulk ostida yuqolib ketish xavfi bo‘lgan Rotshild jirafalari podasi bo‘lgan. 1974 - yilda uni er - xotin Lesli - Melvilllar uni sotib olib, u yerda yo‘qolish arafasida turgan Rotshild jirafalarini qutqarish markazini tashkil qildilar.

Keyinchalik bu yerda otel ham ochildi. Otelda mehmonlar uchun 12 xona ajratilgan bo‘lib, ular qadimgi rusumda jihozlangan. Ushbu mehmonxonaning asosiy diqqatga sazovor tomoni bu – jirafalar jamiyatida kun o‘tkazish imkoniyatidir.

U yerda yashaydigan jirafalar juda ajoyib. Ular har tong odamlar bilan muloqot qilish uchun keladilar, mehmonlarning nasibalarini ehtiyojkorlik bilan olish uchun uzun bo‘yinlarini mehmonxonaning katta derazalariga yopishtirishni yaxshi ko‘radilar. Har bir mehmonning xonasiga jirafa taomlari mavjud, shunda mehmonlar ularni to‘g‘ri ovqatlantirlari kerak bo‘ladi. Giraffe Manorda mehmondo‘sit xodimlar har bir mehmonga jirafani qanday ovqatlantirishni o‘rgatadilar. Shuning uchun hayvonlar o‘zlarini mutlaqo erkin his qiladilar, ularni silash, ovqatlantirish va ular bilan birga suratga tushish mumkin.

Ziyoratgoh 150 hektar maydonda tabiiy o‘rmonni o‘z ichiga oladi va siz ushbu xududdan ajoyib yovvoyi tabiat va tropik qushlarni ko‘rishingiz mumkin. U yerda yetim fil va buzoqlarni saqlaydigan markaz ham bor. Ularni ko‘tarib yovvoyi tabiatga qo‘yib yuborishingiz mumkin. Ajablanarli Nayrobiga ekskursiyalar mehmonxonadan olib boriladi. Shuningdek, taniqli Blihenga bag‘ishlangan muzeysi ham mavjud. Ngong tepaliklarida «masai»

qabilasining vatani bo‘ylab sayohatlarga borishingiz va «masai» afsonasida u yerda vafot etgan qadimgi dev haqidagi hikoyalarni eshitishingiz mumkin.



**3.5.1-rasm. «Giraffe Manor» mehmonxonasi**



**3.5.2-rasm. «Giraffe Manor» mehmonxonasi**

Ushbu mehmonxonaning 1 kishi uchun 1 kechalik narxi – 490 yevro turadi<sup>24</sup>.



**3.5.3-rasm. «Giraffe Manor» mehmonxonasi**



**3.5.4-rasm. «Giraffe Manor» mehmonxonasining nomeri**

---

<sup>24</sup> <https://www.biletik.aero/handbook/blog/oteli/samye-udivitelnye-i-neobychnye-otelo-mira/>  
198



**3.5.5-rasm. «Giraffe Manor» mehmonxonasining yuvinish xonasi**



**3.5.6-rasm. «Giraffe Manor» mehmonxonasining restorani**




**3.5.7-rasm. «Giraffe Manor» mehmonxonasining restorani**



**3.5.8-rasm. «Giraffe Manor» mehmonxonasining restorani**



**3.5.9-rasm. «Giraffe Manor» mehmonxonasi jirafalarini  
to‘g‘ri ovqatlantirish**



**3.5.10-rasm. «Giraffe Manor» mehmonxonasi jirafalarini  
to‘g‘ri ovqatlantirish**

### **3.6. «ATTRAP'REVES Montagnac» kapsula mehmonxonasi**

Fransiyaning ochiq tabiat qo‘ynida dam olishni istaganlar ushbu mehmonxonani tanlashlari mumkin. Antiqa mehmonxonanining nomi fransuzcha «Dreamcatcher» deb nomlanadi. Alpning yuqori Provansida joylashgan ushbu mehmonxona kun bo‘yi ultrabinafsha nurlarini tutuvchi, kechasi nam va hashoratlardan himoya qiluvchi, moslashuvchan, shaffof materialdan yasalgan. Mehmonxona nomerlari katta shisha qoplami bilan o‘ralgan 2 xonadan iborat bo‘lib, biri yotoq uchun joy va ikkinchisi silindrsimon xona dam olish uchun mo‘ljallangan.



**3.6.1-rasm. «ATTRAP'REVES Montagnac» kapsula mehmonxonasi**

Bu mehmonxonada tunagan har bir kishi o‘zini baxtli his qilishi tabiiy holdir. Chunki mehmonxona, uning atrofi o‘rmonzor, maysalar ustida yotib osmonni tomosha qilish uchun qulay shaklda yaratilgan. Bu mehmonxonanining qulayligi shundaki, uni xohlagan joyda

o‘rnatish mumkin. Tabiat qo‘ynidami, dengiz bo‘yidami va hattoki qish mavsumida tashqarini tomosha qilish uchun barcha sharoitlar yaratiladi.



**3.6.2-rasm. «ATTRAP’REVES Montagnac» kapsula mehmonxonasi**




**3.6.3-rasm. «ATTRAP’REVES Montagnac» kapsula mehmonxonasi**

Ushbu mehmonxonaning narxi 1 kishi uchun – 139 yevro turadi<sup>25</sup>.



**3.6.4-rasm. «ATTRAP'REVES Montagnac» kapsula mehmonxonasi**



**3.6.5-rasm. «ATTRAP'REVES Montagnac» kapsula mehmonxonasi**

---

<sup>25</sup> <https://www.biletik.aero/handbook/blog/oteli/samye-udivitelnye-i-neobychnye-otelo-mira/>  
204

### **3.7. «Arctic TreeHouse» mehmonxonasi**

Arktikadagi mehmonxona bo‘lib, go‘yoki qor bilan qoplangan daraxtlarning tojlari orasida suzib yurganday, oyoqlarida hashamatli jihozzlangan lo‘p qavatli uylar bilan o‘ralgan. Mehmonxonalar shimoliy chiroqlardan zavq olishlari uchun ideal geografik joylashuvga ega<sup>26</sup>.



**3.7.1-rasm. «Arctic TreeHouse» mehmonxonasi**

<sup>26</sup> <https://www.biletik.aero/handbook/blog/oteli/samye-udivitelnye-i-neobychnye-oteli-mira/>

### **3.8. «The Old Railway Station» mehmonxonasi**

Po‘ezd ixlosmandlari uchun Qadimgi Buyuk Britaniyaning Pettort shahrida joylashgan The Old Railway Station - yo‘l romantikasiga oshufta ko‘ngillar uchun ayni muddao. XIX- asrda u yerda vokzal bo‘lgan. Hozirda bu bepul Wi-Figa ega ajoyib mehmonxonadir. Eng yaxshi ingliz an‘analariga ko‘ra, siz bu yerga eski temir yo‘l snatsiyasida har bir avtoulov barcha qulayliklarga ega alohida xonaga aylangan retro po‘ezdda yashashingiz mumkin. Vokzalning kutish zali, mehmonxonaning qabulxonasi, chipta kassalari, oshxona, issiq mavsumda nonushta platformada taqdim etiladi. Kutish zali endi mehmonlar zali sifatida xizmat qilmoqda. Undan yozda mehmonlarga nonushta beriladigan platformga chiqish va nomerlarga o‘tish mumkin. Nomerlar qirol Eduardning qayta jihozlangan Pulman vagonlarida joylashgan.

Ushbu mehmonxonaning narxi 1 kishi uchun – 170 yevro turadi<sup>27</sup>.



**3.8.1-rasm. «The Old Railway Station» mehmonxonasi**

<sup>27</sup><https://www.Gazeta.ru>



**3.8.2-rasm. «The Old Railway Station» mehmonxonasining  
dam olish xonasi**



**3.8.3-rasm.»The Old Railway Station» mehmonxonasining  
nomeri**

### **3.9. «Das Park» mehmonxonasi**

Agar sizning biznesingiz quvur bo'lsa, unda sizning biznesingiz unchalik yomon emas. Buni Avstriyaning Linz shaharchasidan 11 km uzoqlikdagi Das Park mehmonxonasidagi beton kanalizatsiya quvurlaridan birida qilish mumkin. Qiziqish kafolatlangan. Har bir quvur eshik, elektr, va shamollatish lyuklari bilan jihozlangan. Siz hashamatli xonaga emas, aksincha sizning ixtiyorингизда ikki kishilik to'shak bor xolos. Biroq hovlida qulayliklar bor.


Narxlар maqbuldir. Har kim o'zi xohlaganicha to'laydi<sup>28</sup>.



**3.9.1-rasm. «Das Park» mehmonxonasi**

---

<sup>28</sup> <https://www.uniqhotel.com>



**3.9.2-rasm. «Das Park» mehmonxonasining tashqi ko‘rinishi**



**3.9.3-rasm. «Das Park» mehmonxonasining nomeri**

### **3.10. «Benksi» mehmonxonasi**

Taniqli ingliz ko‘cha rassomi Benksi o‘z mehmonxonasiga asos soldi. Ushbu «Walled Off Hotel» mehmonxona Falastin va Isroil chegarasida joylashgan Baytlahm shahrida ochdi.



**3.10.1-rasm. «Walled Off Hotel» mehmonxonasi**



**3.10.2-rasm. «Walled Off Hotel» mehmonxonasining nomeri**

Uning ichida 10 ta nomer va bir syut mavjud bo'lib, devorlari Benksining suratlari bilan bezatilgan<sup>29</sup>.



**3.10.3-rasm. «Walled Off Hotel» mehmonxonasining nomeri**



**3.10.4-rasm. «Walled Off Hotel» mehmonxonasining restorani**

<sup>29</sup> <https://www.tripadvisor.com>



**3.10.5-rasm. «Walled Off Hotel» mehmonxonasining restorani**



**3.10.6-rasm. «Walled Off Hotel» mehmonxonasining  
chizmalaridan biri**

### **3.11. «Sant'Angelo» g‘or mehmonxonasi**

Matera shahridagi haqiqiy g‘orda siz o‘zingizni Italiyadaman deb his qilishingiz mumkin, uning eski qismi toshga aylantirilgan bo‘lib, YUNESKOning ob‘ekti hisoblanadi. Bu yerdagi qadimiy darada Sant’Angelo hashamatli kurorti joylashgan. Uning o‘ziga xos jihat - betakror arxitekturasi va muhitidir. Mehmonxona nomerlari qoyalar ichida qurilgan bo‘lib, ularning derazasidan esa ibodatxona va Bazilikat tog‘larining ajib go‘zalligi namoyon bo‘ladi.

Tuf - g‘orlar (tuf - tog‘ jinsi)da yashash juda qulay: nomerlarda zamonaviy mebel, hammom, dush, internet, mini - bar, bundan tashqari oqlangan oshxona, san’at galeriyasi va minglab yillar oldin bu yerda yashaganlarning barchasida mavjud bo‘lmagan hamma qulayliklar mavjud.

Ushbu mehmonxonaning 2 kishi uchun 1 kechalik narxi – 230 yevro turadi<sup>30</sup>.



**3.11.1-rasm. «Sant’Angelo» g‘or mehmonxonasining tashqi ko‘rinishi**

<sup>30</sup> <https://www.biletik.aero/handbook/blog/oteli/samye-udivitelnye-i-neobychnyye-oteli-mira/>



**3.11.2-rasm. «Sant'Angelo» g‘or mehmonxonasining kutish zali**



**3.11.3-rasm. «Sant'Angelo» g‘or mehmonxonasining tashqi  
hovlisi**



**3.11.4-rasm. «Sant'Angelo» g‘or mehmonxonasining nomeri**



**3.11.5-rasm. «Sant'Angelo» g‘or mehmonxonasining nomeri**



**3.11.6-rasm. «Sant'Angelo» g‘or mehmonxonasining restorani**



**3.11.7-rasm. «Sant'Angelo» g‘or mehmonxonasining restorani**




**3.11.8-rasm. «Sant'Angelo» g‘or mehmonxonasining SPA xonasi**



**3.11.9-rasm. «Sant'Angelo» g‘or mehmonxonasining SPA xonasi**

### **3.12. «Crazy House» mehmonxonasi**

Binoning dizeyni va har bir xonaning o‘ziga xosligi bilan «Crazy House» Vietnamning markaziy tog‘larida joylashgan Dalatdagi alohida diqqatga sazovor joylardan biri hisoblanadi. Mehmonxona o‘lkan g‘alati daraxtga o‘xshaydi. Bitta burchagida emas, barcha devorlari yumaloqlangan, narvonlar spiral tarzda burilgan yoki bitta binodan ikkinchisiga tashlangan. Sayohatchilar o‘tib keta olmaydigan ushbu mehmonxona me’morining tasavvuriga qoyil qolish mumkin. Barcha uylar peri shaklida qurilgan bo‘lib, unda o‘lkan daraxtlar, o‘simpliklar, qo‘ziqorinlar va peri jonzotlari bir – biriga bog‘langan.



**3.12.1-rasm. «Crazy House» mehmonxonasining ko‘rinishi**

Arxitektura mutaxassisi va prezidentning qizi Dang Viet Nga ushbu noyob tuzilmani butunlay shaxsiy mablag‘lari hisobiga qurdi. Nafaqat bu, balki mahalliy munisipial hokimiyat ham u bilan har safar kurash olib bordi. Lekin u taslim bo‘lmadi. U o‘zning g‘alati va

ehtirosli hayol orzusini amalga oshirishga intildi. Organik o'sishdan ilhomlanib mehmonxona daraxtga o'xshaydi.



**3.12.2-rasm. «Crazy House» mehmonxonasining ko'rinishi**



**3.12.3-rasm. «Crazy House» mehmonxonasining ko'rinishi**

Uning 5 ta darajasi bo‘lib, har bir xonaning o‘ziga xos mavzusi bor. Dunyoda yagona ekspressionist mehmonxona me’mor rasmlardan va tajribasiz xunarmandlar chizmalaridan foydalangan.



**3.12.4-rasm. «Crazy House» mehmonxonasining ko‘rinishi**




**3.12.5-rasm. «Crazy House» mehmonxonasining ovqatlanish joyi**

Ushbu mehmonxonaning 1 kechalik narxi – 29 yevro turadi<sup>31</sup>.



**3.12.6-rasm. «Crazy House» mehmonxonasining nomeri**



**3.12.7-rasm. «Crazy House» mehmonxonasining nomeri**

---

<sup>31</sup> <https://www.biletik.aero/handbook/blog/oteli/samye-udivitelnye-i-neobychnye-oteli-mira/>

### **3.13. «LEAPRUS Eco» mehmonxonasi**

Dunyodagi eng baland tog‘ mehmonxonalaridan biri (3912m) Elbrusning janubiy etagida joylashgan. U kosmik kapsulalarga o‘xhash bir necha bloklardan iborat bo‘lib, bir vaqtning o‘zida 40 kishini qabul qila oladi. Loyiha G‘arbiy Alp tog‘larida Mont Blans tog‘ida shunga o‘xhash mehmonxona qurgan italiyalik LEAP fabrikasining me’morlari tomonidan yaratilgan. Qulay yashashning barcha elementlari dam olish uchun mo‘ljallangan: yer osti isitish tizimi, bepul Wi – Fi, xonalardagi ponaramali derazalar, kiyim va jihozlarni quritish uchun alohida isitiladigan xona. Mehmonxona quyosh batariyalari bilan jihozlangan, majmuani suv bilan ta’minlash uchun eritilgan qordan foydalaniladi<sup>32</sup>.



**3.13.1-rasm. «LEAPRUS Eco» mehmonxonasi**

---

<sup>32</sup> <https://www.uniqhotel.com>

### **3.14. «DOG BARK PARK INN» mehmonxonasi**

Ushbu mehmonxona rassom va o‘ymakor ustalar er – xotin Dennis Sullivan va Frencis Koklinlar tomonidan qurilgan va 2003 - yilda ochilgan. U o‘zining g‘ayrioddiy ko‘rinishi bilan insonlarni hayratga soladi. Tashqi tomondan u balandligi taxminan 10 m bo‘lgan o‘lkan burgut zotli itga o‘xshaydi. Uning hattoki «Yoqimli Willy» laqabi ham bor, uning yonida esa balandligi 3,5 m bo‘lgan «Tobi» ismli kichkina it joylashgan bo‘lib, hozirda uyga o‘xshash 4 ta xonasi mayjud. Xonalar uning oshqozonda joylashgan.



**3.14.1-rasm. «DOG BARK PARK INN» mehmonxonasining tashqari hovlisi**

Ayda shahridagi mehmonxona juda yaxshi sabablarga ko‘ra dunyodagi eng noyob mehmonxonalar ruyxatida turadi. Mehmonxona ichidagi hamma narsalar itga oid mavzularda, jumladan yostiqlar, choyshablar, kitoblar, stol o‘yinlari, pardalar va

boshqa narsalar mehmonxonaning nomi hamda ko‘rinishiga mos bezatilgan. Siz bu mehmonxonaga o‘z itingiz bilan kelishingiz mumkin<sup>33</sup>.



**3.14.2-rasm. «DOG BARK PARK INN» mehmonxonasi**



**3.14.3-rasm. «DOG BARK PARK INN» mehmonxonasi**

---

<sup>33</sup> <https://www.biletik.aero/handbook/blog/oteli/samye-udivitelnye-i-neobychnye-oteloi-mira/>



**3.14.4-rasm. «DOG BARK PARK INN» mehmonxonasi**



**3.14.5-rasm. «DOG BARK PARK INN» mehmonxonasi**

### **3.15. «Tree hotel» mehmonxonasi**


Shvetsiyaning shimolidagi Luleo shaharchasidan 50 kilometr uzoqlikda Haradsning quruq va abadiy o‘rmonlarda Skandinaviyalik yetakchi arxitektorlar beshta o‘ziga xos daraxt - xonalarini qurishdi. Ushbu mehmonxonaning ajablanarlisi shundaki, uning nomerlari daraxtlarda joylashgan. An’anaviy skandinavcha uylarni yodga soluvchi inshoat 10 metr balandlikda, 12 ustun yordamida ko‘tarilib turibdi. Uning umumiy maydoni - 55 m<sup>2</sup> ni tashkil etadi.

«Tree hotel» mehmonxonasining xonalari bir - biridan farq qiladi va g‘oyasidan kelib chiqib, 5 uychani o‘z ichiga olgan: «Ko‘zguli kub», «NUJ» (noma'lum uchar jism), «Qush uyasi», «Ko‘k konus» va «Hujra». Har bir nomerida hojatxonadan tortib, vannaxonagacha, zamonaviy mebel va hattoki bepul Wi-Fi ham mavjud. Mehmonxonaning birinchi xonasi oynalari kub shaklda 4x4x4 metr o‘lchamda daraxt ustida bo‘lib, undan atrofdagi barcha manzara ko‘rinib turadi.



**3.15.1-rasm. «Tree hotel» mehmonxonasining «Ko‘zguli kub» nomeri**

Bu original mehmonxonada tunab qolish albatta, cho'ntakka yaxshigina yuk bo'ladi. Masalan, eng arzon xona bir kishi uchun 1 kechada - 150\$, eng qimmati esa oynali kubda ikki kishi uchun1 kechada - 650\$.




**3.15.2-rasm. «Ko'zguli kub» nomeri**



**3.15.3-rasm. «Ko'zguli kub» nomeri**

Mehmonxonada ikki yotoqxona, hammom va hatto bitta terasa bor. Mehmonlarga qulaylik yaratish maqsadida daraxtlarning biriga 8 kishilik sauna qurilgan<sup>34</sup>.



**3.15.4-rasm. «Tree hotel» mehmonxonasining saunasi**



**3.15.5-rasm. «Tree hotel» mehmonxonasining kutish zali**

---

<sup>34</sup> <https://www.34travel.me/post/10>



**3.15.6-rasm. «Tree hotel» mehmonxonasining  
«NUJ» (noma'lum uchar jism) nomeri**



**3.15.7-rasm. «Tree hotel» mehmonxonasining  
«NUJ» (noma'lum uchar jism) nomeri**

Yana ikki kishi uchun qo'shimcha 600\$ to'lash evaziga ov bilan shug'ullanish, baliq tutush, qayiqda suzish, otda sayr qilish kabi xizmatlardan foydalanish mumkin (bu xizmatlar fasllarga qarab o'zgarib turadi).



**3.15.8-rasm. «Tree hotel» mehmonxonasining «Hujra» nomeri**



**3.15.9-rasm. «Hujra» nomeri**



**3.15.10-rasm. «Hujra» nomeri**



**3.15.11-rasm. «Hujra» nomeri**



**3.15.12-rasm. «Hujra» nomeri**



**3.15.13-rasm. «Qush uyasi» nomeri**

Bunday mehmonxona binolari bolaligida chayla qurib ko‘rgan kishilarga juda ma’qul kelishiga hech shubha yo‘q. «Tree hotel» mehmonxonasiga tashrif buyuruvchikar uning dizayni va tabiat bilan uyg‘unlik hissidan zavq olishadi.



**3.15.14-rasm. «Ko‘k konus» nomeri**



**3.15.15-rasm. «Ko‘k konus» nomeri**

### **3.16. «The Shell house» mehmonxonasi**

Siz qulog‘ingizga chig‘anoq qo‘ygansiz va dengiz ovozini tinglagansiz, tasavvur qiling, siz shu chig‘anoq ichiga tushib qoldingiz va yashayapsiz. Chig‘anoqli uy shunday joyda joylashganki, siz har kuni dengiz ovozini eshitasiz va uning yoqimli hidini hidlaysiz. Chunki Karib dengizi suvlari oqib turadi.

Ushbu uy betondan kurilgan bo‘lib, rassom er – xotinlar tomonidan barpo etilgan. Ular mehmonxonaga yaqin joyda yashaydilar va safarga borganingizda sizni ajoyib kutib oladilar. Ichki yashash maydoninig burchaklari yo‘q. U butunlay yumaloq.



**3.16.1-rasm. «The Shell house» mehmonxonasi**

Chig‘anoqli uy ikki qismdan iborat bo‘lib, 1 qavatda yashash uchun joy va oshxona, ikkinchi qismida usta yotoqxonasi bo‘lgan asosiy dam olishi uyi mavjud. Xonada «king size» karavot va yuvinish xonasi bo‘lib, u haqiqiy sayohatdir. Rokovina chig‘anoqlardan yasalgan, jumraklar marjonlardan va plyaj bo‘ylab topilgan boshqa dengiz chig‘onoqlaridan sochiq uchun tokchalar

o‘rnatilgan. Mehmonxona mehmonlarni kutishga doim tayoyr va barcha qulayliklarni o‘zida mujassam etgan. Mehmonxona hovlisida basseyн bilan ham bor.



**3.16.2-rasm. «The Shell house» mehmonxonasi**



**3.16.5-rasm. «The Shell house» mehmonxonasi**

Mehmonxonaning 1kechalik narxi – 225 yevro turadi<sup>35</sup>.



**3.16.3-rasm. «The Shell house» mehmonxonasi**



**3.16.4-rasm. «The Shell house» mehmonxonasi**

---


<sup>35</sup> <https://www.uniqhotel.com>

### **3.17. «Qamoq» mehmonxonasi**

Niderlandiyada so‘nggi o‘n yil ichida mamlakatda jinoyatchilar soni Yevropada eng past darajaga tushib ketdi. Har 100 000 kishiga 57 ta maxbus to‘g‘ri keladi. Shuning uchun ba’zi bir bo‘sh qamoqxonalarni mehmonxonaga aylantirishga qaror qilindi, ya’ni Rurmodda uy qamog‘i mehmonxonasi tashkil qilindi. U 1863 – yildagi sobiq sobiq qamoqxona bo‘lib, uning xonalari hashamatli lyuks nomerlarga aylatirildi. U yerda hattoki 200 kishilik ziyofat tashkil qilish uchun butun xonani ijaraga olish mumkin.

Mehmonxona The Jailer, The Lawyer, The Director va The Judge nomerlarini taklif qiladi. Albatta mehmonxonada internet, televizor, restoran, fitnes markaz va sauna mavjud.

Ushbu mehmonxonaning 1 kishi uchun 1 kechalik narxi – 112 yevro turadi<sup>36</sup>.



**3.17.1-rasm. «Qamoq» mehmonxonasi**

---

<sup>36</sup> <https://www.tripadvisor.com>

### **3.18. «JUMBO STAY» mehmonxonasi**

Shvetsiya davlatining Stokholm shahridagi Arlanda aeroporti hududida sobiq samolyot Boing - 747 samolyotida Jumbo mehmonxonasi joylashgan. U 25 ta nomerdan iborat bo'lib, bir paytda 85 kishiga xizmat ko'rsata oladi. Barcha nomerlari yuvinish xonasi, televizor va boshqa qulayliklar bilan jihozlangan. Unda bar ham bor. Hatto internetga ulanish imkoniyati ham mavjud. Xonalar orasida eng mashhuri eski kokpitda joylashgan xona bo'lib, aeroportning ponaramali ko'rinishi va kruiz samolyotlari bilan hayratga soladi.

Mehmonxonaning 1kechalik narxi 150-700\$ tashkil qiladi<sup>37</sup>.




**3.18.1-rasm. «JUMBO STAY» mehmonxonasi**

---

<sup>37</sup> <https://www.34travel.me/post/10>




**3.18.2-rasm. «JUMBO STAY» mehmonxonasining nomeri**



**3.18.3-rasm. «JUMBO STAY» mehmonxonasining nomeri**



**3.18.4-rasm. «JUMBO STAY» mehmonxonasining restorani**



**3.18.5-rasm. «JUMBO STAY» mehmonxonasining nomeri**



**3.18.6-rasm. «JUMBO STAY» mehmonxonasining  
dam olish xonasi**



**3.18.7-rasm. «JUMBO STAY» mehmonxonasining yuk xonasi**

### **3.19. «Palacio de Sal - Boliviya» mehmonxonasi**

Salar - de - Uyuni shahrida joylashgan bu mehmonxona tuzdan qurilgan. 15 ta nomer, oshxona, dam olish zali va bardan iborat. Mehmonxonadagi deyarli hamma narsa: devorlar, mebellar, pol, shift sement bilan qotirilgan tuz bloklaridan qurilgan. Mehmonlardan so'raladigan yagona iltimos - devor va mebellar ta'mini ta'tib ko'rmaslikdir<sup>38</sup>.



**3.19.1-rasm. «Palacio de Sal-Boliviya» mehmonxonasining holi**

---

<sup>38</sup> <https://www.34travel.mc/post/10>



**3.19.2-rasm. «Palacio de Sal-Bolivia» mehmonxonasi  
restorani**



**3.19.3-rasm. «Palacio de Sal-Bolivia» mehmonxonasining  
ovqatlanish zali**



**3.19.4-rasm. «Palacio de Sal-Boliviya» mehmonxonasining ovqatlanish zali**



**3.19.5-rasm. «Palacio de Sal-Boliviya» mehmonxonasining nomeri**

### **3.20. «Marques de Riscal» mehmonxonasi**

Mehmonxonaning ko‘zni qamashtiruvchi arxitekturasi haqiqiy bayonot beradi. U «Vanity Fair» tomonidan bizning asrimizning eng muhim me’mori deb tan olingen Frank O. Gehry tomonidan yaratilgan. Tarixiy Bask mamlakatining markazidagi ushbu ilhomlantiriuvchi binoga qaraganingizda 1 daqiqa bo‘lsa ham tassavur qilish qiyin. Shisha devorli xonalarda o‘rta asrlardagi Elciego shahrining ko‘rinishi Rioja uzumzorlaridagi uzum singari gullab yashnaydi. Mehmonxonaning ekspert guruhi sizni mintaqaning ajoyib tarixi, sharobi va taomini sinab kurishingiz mumkin bo‘lgan mahalliy sayohatlarga olib boradi.

Gastronomiya mehmonxonada asosiy o‘rin egallaydi. Uchta Michelin yulduzlariga sazovor bo‘lgan oshpaz Francis Paniego ovqatlanish tajribasiga tayanib eng shirin taomlarni taklif qiladi va oshxonani boshqaradi. Siz «A la carte» taomnomasi boyicha buyurtma berishingiz yoki taomlarni tatib ko‘rish anjumanida qatnashib taomlaridan bahramand bo‘lishingiz mumkin. Spa xizmati boyicha 3 ta xalqaro mukofotga sazovor bo‘ldi va sizga jakuzida cho‘milish, fitnes markaziga yoki oyoq vannasiga borish imkoniyatini taqdim etadi. Mutaxassislarning muolajalari orsida Barrell hamomi ya’ni gidroterapiya mavjud bo‘lib, u qon aylanishini yaxshilaydi va mushaklarni chiniqtiradi.

Mehmonxonaning 1kechalik narxi 400\$ tashkil qiladi<sup>39</sup>.

---

<sup>39</sup> <https://www.uniqhotel.com>



**3.20.1-rasm. «Marques de Riscal» mehmonxonasi**



**3.20.2-rasm. «Marques de Riscal» mehmonxonasining tashqi  
ko‘rinishi**




**3.20.3-rasm. «Marques de Riscal» mehmonxonasining tashqi  
ko‘rinishi**




**3.20.4-rasm. «Marques de Riscal» mehmonxonasining restorani**



**3.20.5-rasm. «Marques de Riscal» mehmonxonasining nomeri**



**3.20.6-rasm. «Marques de Riscal» mehmonxonasining nomeri**



**3.20.7-rasm. «Marques de Riscal» mehmonxonasing fitnes zali**



**3.20.8-rasm. «Marques de Riscal» mehmonxonasi vannasi**

### **3.21. «Water Discus» mehmonxonasi**

Agar siz suv bo'yida hordiq chiqarishni xohlasangiz, Dubayning mazkur mehmonxonasi siz uchun o'z eshiklarini ochadi. Bu loyihaning dizayni Polkay arxitektura kompaniyasi - Deep Ocean Technology tomonidan ishlab chiqarilgan.

Mehmonxona 2 bo'limdan iborat bo'lib, yuqori qismda vertolyot qo'nishi uchun maydoncha, restoran va barlar mavjud. Pastki qismda esa «sarguzasht» uchun ayni muddao bo'lib, unda odamlar mehmonxona ichida suv qa'riga sayohat qilishlari mumkin<sup>40</sup>.




**3.21.1-rasm. «Water Discus» mehmonxonasi**

---

<sup>40</sup> <https://www.uniqhotel.com>



**3.21.2-rasm. «Water Discus» mehmonxonasining loyihasi**



**3.21.3-rasm. «Water Discus» mehmonxonasining loyihasi**



**3.21.4-rasm. «Water Discus» mehmonxonasining restorani**



**3.21.5-rasm. «Water Discus» mehmonxonasining nomeri**

## **IV - BOB. TURLI MINTAQALARDA MAVJUD MAHALLIY AHOLINING TURAR JOYLARI**

Xalqimizning asrlar davomida yaratgan milliy urf - odatlarimizni qayta tiklash va yoshlar ongiga singdirish, ularning iqtisodiyotimizning turli sohalariga bo‘lgan ijobiy ta’sirlarini kuchaytirish bugungi kunning asosiy masalasiga aylandi. Hozirgi kunda turizmni rivojlantirishga e’tiborning kuchaytirilganligini inobatga olgan holda an’analarimiz, urf - odatlarimizni keng targ‘ib qilish katta ahamiyatga ega.

Dunyodagi har bir millatning o‘z urf - odati bor. U har bir xalqning hulqidan, yashash tarzidan kelib chiqqan. Odamlarning urf - odatga rioya qilishiga qarab kishini qaysi millatga mansub ekanligini oson aytish mumkin. Har bir millat o‘zining tili, urf -odati, an’anasi, madaniyati, tarixi bilan millat hisoblanadi.

Xalqaro turizm sohasida esa milliy an’ana va qadriyatlar katta ahamiyat kab etadi. Turistik sayohatga otlangan insonlar birinchi navbatda tashrif buyuradigan mamlakatlarning o‘ziga xosliklarni o‘rganishga, mahalliy odatlarni ko‘rishga va boshqa mamlakatlar bilan solishtirishga harakat qilishadi. Bunda turistlarni mahalliy aholining turar joylari, kundalik hayot tarzi, turli bayramlar va urf - odatlar qiziqtiradi. Mahalliy aholining turar joylari va ulardagi hayot tarzi ushbu qiziqishlarning katta ulushini tashkil qiladi. Har bir hududning iqlim sharoitlari, tabiat, resurslari, qishloq xo‘jaligining o‘ziga xosliklari, turmush tarzidan kelib chiqib shakllantiriladi.

Xalqaro turizmda ishtirok etuvchilarning katta qismi qo‘yidagi mahalliy turar joylarga katta qiziqish bildirishadi:

## **4.1. Osiyo mintaqasida mavjud mahalliy aholining turar joylari**

*Abilaysha* – qozoqlarda qo'llaniladigan yo'l o'tovi bo'lib, uning ramkasi yuqoridan yog'och halqa - mo'riga bog'langan ko'plab ustunlardan iborat. Butun tizim kigiz bilan qoplangan. Ilgari shunga o'xhash turar - joylar qozoq xoni Abilayning harbiy yurishlarida ishlatilgan, shu sababli bu nomga ega bo'lgan.<sup>41</sup>



**4.1.1- rasm. Abilayshaning ko'rinishi**

*Ail* («*yog'och o'tov*») - Janubiy Oltoy aholisi - telengitlarning an'anaviy uyi bo'lib, tuproqli yer va qayin po'stlog'i bilan qoplangan baland tomli, olti burchakli past bino hisoblanadi. Bu kabi o'tovning o'rtasida odatda o'choq o'rnatiladi<sup>42</sup>.

<sup>41</sup><http://xn----stb8d.xn--p1ai/abylajsha/>

<sup>42</sup>[https://ru.wikipedia.org/w/index.php?title=Ail\\_\(zacheniya\)](https://ru.wikipedia.org/w/index.php?title=Ail_(zacheniya))



**4.1.2- rasm. Ailning ko‘rinishi**

*Arish* - Fors ko‘rfazi sohilidagi arab aholisi uchun xurmo barglarining poyalaridan to‘qilgan yozgi uydir. Tomiga biror bir mato trubkasi o‘rnatilib, u juda issiq iqlim sharoitida uyni shamollatish vazifasini bajaradi<sup>43</sup>.



**4.1.3- rasm. Arishning ko‘rinishi**

<sup>43</sup><https://ru.wikipedia.org/w/index.php?title=Arish>

**Balagan** - yakutlarning qishki, qurilishi oson bo‘lgan uyi. Loy bilan qoplangan yupqa tirkaklardan iborat qiya devorlari yog‘och ramkaga mustahkamlanadi. Pastgina qiya tom tuproq va daraxt pusti bilan qoplanadi. Kichik oynalarga qishda muz bo‘laklari, yozda esa slyuda joylashtiriladi.

Kirish sharqqa qaratilib, soyabon bilan yopiladi. Kirish qismining o‘ng tomonida, odatda o‘choq joylashtiriladi va tutuni esa tomda o‘rnatilgan mo‘ri orqali tashqariga chiqib ketadi. O‘choqdan o‘ng tomonda erkaklar va chap tomonda ayollarning maxsus yotoq joylari quriladi. Balaganning g‘arb tomonida esa molxona joylashtiriladi<sup>44</sup>.



**4.1.4- rasm. Balaganning ko‘rinishi**

**Barasti** - Arabiston yarim orolida xurmo barglaridan to‘qilgan kulbalar uchun keng tarqalgan ism. Kechasi, barglar ortiqcha namlikni o‘zlashtiradi va kun davomida asta - sekin quriydi, issiq havoni namlaydi.<sup>45</sup>

<sup>44</sup><https://ru.wikipedia.org/w/index.php?title=Balagan&oldid=1100000>

<sup>45</sup><http://xn----stb8d.xn--p1ai/barasti/>



#### **4.1.5- rasm. Barastining ko‘rinishi**

**Dyaolou** - Xitoy janubidagi Guangdong provinsiyasida mustahkamlangan ko‘p qavatli bino.



#### **4.1.6- rasm. Dyaolouning ko‘rinishi**

Birinchi Diaolou Xitoyning Ming sulolasiga davrida, Janubiy Xitoyda qaroqchilar to‘dalari faoliyati avj olgan paytda qurilgan. Keyingi va nisbatan xavfsiz bo‘lgan davrlarda bunday mustahkam uylar shunchaki an’anaga binoan qurilib kelingan<sup>46</sup>.

*Fale* - Samoa (Tinch okeanining janubiy qismida) oroli xalqi yashaydigan uy. Kokos yong‘og‘i barglaridan yasalgan ikki tomonlama tom aylana yoki oval shaklida joylashtirilib, yog‘och ustunlarga o‘rnataladi. Falening o‘ziga xos xususiyati shundaki, uning devorlari bo‘lmaydi, ba’zan ustunlar orasi namatlar bilan yopiladi. Yog‘ochdan yasalgan qismlar kokos yong‘og‘i po‘stlog‘idan tayyorlangan iplar bilan bog‘lanadi<sup>47</sup>.




**4.1.7- rasm. Falening ko‘rinishi**

*Felidj* - arab ko‘chmanchi qavmlarining chodiridir. Ushbu chodir tuya, echki yoki qo‘y junidan to‘qilgan mato bilan qoplanib, uzun bir - biriga bog‘langan tirkaklardan iboratdir. Ushbu mato juda zinch to‘qilganligi sababli yomg‘irning o‘tishiga yo‘l qo‘ymaydi. Kun

<sup>46</sup><https://ru.wikipedia.org/wiki/%D0%94%D1%8F%D0%BE%D0%BB%D0%BE%D1%83>

<sup>47</sup>Shu yerda

davomida chodir ko'tarilib, turar - joy shamollatiladi, kechasi yoki kuchli shamol paytida esa pastga tushiriladi. Chodirning yeri namatlar bilan qoplanadi. Felidj o'rtadan parda bilan to'silib, erkak va ayollar qismiga bo'linadi. Har bir qismning o'z o'choqlari va kerakli jihozlari bo'ladi.<sup>48</sup>



**4.1.8- rasm. Felidjning ko'rinishi**

**Hanok** - devorlari loy va somondan yasalgan, plitkali tomi bo'lgan an'anaviy koreyscha uy. Uyning o'ziga xos xususiyati isitish tizimidir ya'ni, quvurlar yerning ostiga yotqizilgan bo'lib, u orqali o'choqdan issiq havo butun uyga tarqaladi. Hanok uchun ideal joy bu - uyning orqasida tepalikning yoki uyning oldida suv oqadigan joyning bo'lishi hisoblanadi<sup>49</sup>.

<sup>48</sup>Shu yerda

<sup>49</sup>Shu yerda



#### 4.1.9- rasm. Hanokning ko‘rinishi

*Iglu* - bu zich qorli bloklardan tashkil topgan Grenlandiyadan Alyaskagacha va Chukotkaning sharqiy hududlarida istiqomat qiluvchi eskimoslarning gumbazli uyi bo‘lib, yeri va ba’zan devorlari terilar bilan qoplanadi. Uning balandligi va diametri 3-4 metrni tashkil qiladi.

Igluga kirish uchun qor ichidan tunnel qaziladi va ichkariga kiriladi. Albatta to‘g‘ri keladigan qor uyumini topib kesib olish mumkin. Agar qor chuqur bo‘lmasa, qordan yasalgan bloklaridan kirish tunneli devorga o‘rnatiladi va yorug‘lik xonaga to‘g‘ridan - to‘g‘ri shu qorli devorlar orqali kiradi. Ba’zan devorlarda deraza tirkishlari o‘rnatiladi, ba’zan esa shishirilgan ichak yoki muz qatlami bilan ham yopilgan. Ko‘pincha bir nechta iglular bir - birlarini uzun qorli yo‘laklar bilan bog‘lab turadi. Qiziqarli tomoni shundan iboratki, tashqarida  $-40^{\circ}\text{C}$  sovuq bo‘lganda, ichkaridagi harorat  $+20^{\circ}\text{C}$  ni tashkil etadi. Bu esa qordan yasalgan devorlarning erib ketmasligiga va uyning ichki qismi doimo quruq bo‘lib turishiga sabab bo‘ladi<sup>50</sup>.

<sup>50</sup><https://ru.wikipedia.org/wiki/%D0%98%D0%B3%D0%BB%D1%83>



**4.1.10- rasm. Igluning ko‘rinishi**

**Kajim** - uzoq yil xizmat qiladigan va o‘nlab odamlarga mo‘ljallangan eskimoslarning katta umumiy uyi.



**4.1.11- rasm. Kajimning ko‘rinishi**

Uy qurush uchun tanlangan joyda to‘rtburchak chuqur qaziladi, uning burchaklarida baland qalin yog‘ochlar o‘rnataladi

(eskimoslarda o‘zlarining o‘rmonlari yo‘qligi sababli, qirg‘oqqa chiqib qolgan daraxtlar ishlatilgan). Uyning devorlari va piramida shaklidagi tomi yog‘och ustunlardan, kit suyaklaridan quriladi. Uy o‘rtasidagi teshikka shaffof qabariqli ramka joylashtiriladi. Tom hamda devorlarga o‘rnatilgan yotoq o‘rindiqlar ustunlar bilan tirab qo‘yiladi. Yer usti taxtalar va namatlar bilan qoplanadi. Uyga kirish uchun tor yer osti yo‘lagi orqali kiriladi<sup>51</sup>.

**Lepa-lepa** – Janubi - Sharqiy Osiyo xalqlarida bo‘lgan bajaoning qayiq uyi. Bajao bu - «dengiz lo‘lilari» deb nomlanib, butun umrini Tinch okeanining «Marjon uchburchagi»da Borneo, Filippin va Sulaymon orollari orasidagi qayiqlarda o‘tkazadi. Qayiqning bir qismida ular ovqat tayyorlashadi va saqlashadi, boshqa qismida esa uqlashadi. Quruqlikka ular faqat baliq sotish, guruch, suv va baliq ovlash uskunalarini sotib olish uchun, shuningdek, marhumlarni ko‘mish uchun chiqishadi.



**4.1.12- rasm. Lepa-lepaning ko‘rinishi**

---

<sup>51</sup>Shu yerda

**Minka** - bu yaponiyalik dehqonlar, hunarmandlar va savdogarlarning an'anaviy uyi. Minka oson topish mumkin bo'lgan materiallardan qurilib, bambuk, loy, o't va somonlardan yasaladi. Ichki devorlari o'rniga toyma yupqa devor yoki to'siqlar ishlatiladi. Bu esa uyda istiqomad qiluvchilarga o'z xohishiga ko'ra xonalarning joylashuvini o'zgartirishga imkon beradi. Tomlari juda baland qilib quriladi, bu esa qor va yomg'irning tez pastga sirpanib tushishi va tomiga qoplangan somonning ho'llanishiga yo'l qo'ymaydi. Yaponlarning bunday shakldagi uylarida jihozlar deyarli mavjud bo'lmaydi.



**4.1.13- rasm. Minkaning ko'rinishi**

**Tulou** - Fujian va Guangdong (Xitoy) provinsiyalaridagi mustahkam uy. Toshlardan aylana yoki to'rtburchak shaklda poydevor mustahkam qo'yiladi (qamal paytida dushman uchun qazishni qiyinlashtirgan) va qalinligi taxminan ikki metr bo'lgan devorning pastki qismi quriladi. Devorning tepasida loy, qum va ohak aralashmasi yotqiziladi. Yuqori qavatlarida tor teshiklar qoldiriladi. Qal'aning ichida yotoqxonalar, quduq va ovqat uchun

katta idishlar joylashtiriladi. Bitta tulouda bitta urug‘ga kiruvchi 500 kishi yashashi mumkin.



**4.1.14- rasm. Tulouning ko‘rinishi**


*Valkaran (chukotka tilida «kit jag‘idan yasalgan uy»)* - Bering dengizi qirg‘oqlari (Eskimos, Aleuts va Chukchi) xalqlari yashaydigan uy.



**4.1.15- rasm. Valkaranning ko‘rinishi**

Tuproq va torf bilan qoplangan hamda katta kit suyaklaridan yasalgan, yarimi yerga qazib o'rnatilgan chuqurdan iborat boshpana. Uning ikkita kirish joyi mavjud bo'lib, yozda - tomdagi tuynuk orqali, qishda - uzun yarim yer osti yo'lagi orqali ichkariga kirladi<sup>52</sup>.

**Yaodong** - Xitoyning shimoliy viloyatlaridagi Loess platosidagi g'or uyi. Loess - bu yumshoq, oson qayta ishlanadigan tog' jinsi bo'lib, mahalliy aholi buni ancha oldin kashf etishgan hamda qadimdan o'z uylarini tepalikning yon tomonida qurishgan. Bunday uyda yashash har qanday ob - havoda qulay hisoblanadi.



**4.1.16- rasm. Yaodongning ko'rinishi**

**Yaranga** - Sibirning shimoli - sharqidagi ba'zi xalqlarning ko'chma uyi. Birinchi bo'lib doira ichida ustunlar o'rnatilib, toshlar bilan mahkamlanadi. Ustunlarga yon devorning tirkaklari bog'lanib, gumbaz ramkasi tepaga o'rnatilgan bo'ladi. Butun tizim kiyik yoki morj terilari bilan qoplanadi. Shiftni tirab turish uchun o'rtada ikki yoki uchta ustunlar joylashtiriladi. Yaranga kigiz yoki matoli devorlar bilan bir necha xonaga bo'linadi<sup>53</sup>.

<sup>52</sup><https://dic.academic.ru/dic.nsf/ctno/89>

<sup>53</sup>Shu yerda



**4.1.17- rasm. Yaranganing ko‘rinishi**

**Chum** - qayin po‘stlog‘i, kigiz yoki kiyik terisi bilan qoplangan, konusli kulbaning keng tarqalgan nomidir. Ushbu chumlar bug‘ularni boquvchi xalqlar tomonidan qurilib, ko‘chma hayotga moslashtirilgan.



**4.1.18- rasm. Chumning ko‘rinishi**

Uy - joyning bu shakli Sibirda - Ural tizmasidan Tinch okeanining qirg‘oqlarigacha fin - ugor, turk va mo‘g‘ul xalqlari orasida keng tarqalgan. Uyning konussimon shakli qorning turib

qolmasligiga va shamolga bardosh berishiga sabab bo‘ladi. Chumning markazida o‘choq joylashtirilib, ham isitish ham ovqat tayyorlash vositasi sifatida xizmat qiladi. O‘choqdagi yuqori harorat sababli konusning tepasidagi teshikdan kirayotgan yog‘in bug‘lanib ketadi. Chumning pastki qismi teri va namat bilan qoplanib, uplashda qo‘y terisidan yasalgan yostiq va uyqu xaltalaridan foydalaniladi<sup>54</sup>.

**Chodir** - bu qoziq va arqonlarga mixlangan mato va teridan yasalgan vaqtinchalik engil bino uchun umumiyl nom. Qadim zamonlardan beri chodirlardan sharqiy ko‘chmanchi xalqlar foydalanishgan.

**O‘tov** - turkiy va mo‘g‘ul xalqlari ko‘chmanchilari orasida kigiz bilan qoplangan ko‘chma ramkali uyning umumiyl nomi. O‘tovni bir necha soat ichida ko‘pchilik yordamida osongina yig‘ish va qismlarga ajratish mumkin. Uning kigiz qoplami haroratni yaxshi saqlaydi. Ushbu turdag‘i uylar shunchalik qadimiysi, ular hatto g‘or rasmlarida ham tasvirlangan. O‘tov ichidagi buyumlar yon - atrofda, o‘choq esa markazda joylashtiriladi.




**4.1.19- rasm. O‘tovning ko‘rinishi**

<sup>54</sup>Shu yerda

O'choq uchun mo'ljallangan toshlar doimiy ravishda o'zлari bilan olib yurishadi. Bugungi kunda o'tovlardan Qozog'iston, Qирг'изистон, Oltoy, Mug'улистон каби hududlarda muvaffaqiyatli foydalanilmoqda.

#### **4.2. Yevropa mintaqasida mavjud mahalliy aholining turar joylari**

**Barabora** - bu Aleut orollarining tub aholisi bo'lgan aleutlarning yarim qazilgan uy - joyi. Ramka kit suyaklari va sohilga chiqarilgan daraxt qoldiqlardan yasaladi. Tom qismi maysa, torf va terilar bilan izolyatsiya qilinadi. Tomda kirish va yoritish uchun tuynuk qo'yiladi va ichkariga kesilgan yog'och zinapoyali ustun orqali kiriladi. Dengiz qирг'ог'идаги tepaliklarda qurilgan baraboralar dengiz hayvonlari va dushmanlarning yaqinlashishini kuzatish uchun qulay bo'lgan<sup>55</sup>.



**4.2.1- rasm. Baraboraning ko'rinishi**

<sup>55</sup><https://ru.wikipedia.org/wiki/%D0%91%D0%B0%D1%80%D0%B0%D0%B1%D0%BE%D1%80%D0%B0>

**Bordey** - Ruminiya va Moldovada uchraydigan qalin somon yoki qamish bilan qoplangan an'anaviy yer osti uychasi. Bunday turar joy kun davomida haroratning pasayishidan, shuningdek, kuchli shamoldan saqlaydi. Bu Yevropaning ushbu qismida uylarning eng qadimgi turlaridan biridir<sup>56</sup>.



#### **4.2.2- rasm. Bordeyning ko‘rinishi**

**Kolib** - Karpatning tog'li hududlarida keng tarqalgan cho'ponlar va o'rmonchilarining yozgi uyi. Bu derazasiz, ikki tomonlama yuqa yog'och bilan qoplangan tomi mavjud bo'lgan yog'ochli uy. Devorlari bo'ylab yog'och taxta o'rindiqlari va tokchalari mavjud. O'rtada o'choq joylashtirilib, tutun tomdagi mo'ridan tashqariga chiqadi<sup>57</sup>.

<sup>56</sup><https://ru.wikipedia.org/wiki/%D0%9F%D0%BE%D0%BB%D1%83%D0%B7%D0%B5%D0%BC%D0%BB%D1%8F%D0%BD%D0%BA%D0%B0>

<sup>57</sup><https://makemone.ru/montazh-h-remont-i-otdelka-potolka/nazvanie-zhilishch-tradicionnye-zhilishcha-slavyanskikh-narodov-iz-bytovoy.html>



**4.2.3- rasm. Kolibaning ko‘rinishi**

**Kajun** - Istriyadagi (Adriatik dengizidagi yarim orol, Xorvatiyaning shimoliy qismida) toshdan qurilgan an'anaviy uy. Kajun silindrsimon shakldagi konussimon tomi bo‘lgan derazalari yo‘q inshoot. Dastlab uy sifatida xizmat qilgan bo‘lib, keyinchalik xo‘jalik ehtiyojlari uchun qo‘llanila boshlandi<sup>58</sup>.



**4.2.4- rasm. Kajunning ko‘rinishi**

---

<sup>58</sup>Shu yerdan

**Konak** - bu Turkiya, Yugoslaviya, Bolgariya, Ruminiyada uchraydigan ikki yoki uch qavatli tosh uy. «Г» harfini eslatuvchi strukturali ulkan plitkali tom bilan qoplangan. Har bir yotoqxonasida yopiq balkon va hammomi mavjud. Ko‘p sonli turli xil xonalar uy egalarining barcha ehtiyojlarini qondiradi va hovlida qo‘srimcha binolarga ehtiyoj qoldirmaydi<sup>59</sup>.



**4.2.5- rasm. Konakning ko‘rinishi**

**Kula** - ikki yoki uch qavatli mustahkam devor va kichik bo‘shliqli derazalar bilan jihozlangan toshdan qurilgan inshoot. Kulani Albaniyaning tog‘li hududlarida uchratish mumkin. Bunday mustahkam uylarni qurish an'anasi juda qadimiy bo‘lib, Kavkaz, Sardiniya, Korsika va Irlandiyada ham uchratish mumkin<sup>60</sup>.

---

<sup>59</sup>Shu yerda

<sup>60</sup>Shu yerda



**4.2.6- rasm. Kulaning ko‘rinishi**

**Kuren** («tutun» so‘zidan kelib chiqqan) - Dneper, Don, Yaik, Volganing quyi qismida joylashgan Rus qirolligining «erkin qo‘shinlari» hisoblangan kazaklarning uyi.



**4.2.7- rasm. Kurenning ko‘rinishi**

Kazaklarning birinchi aholi turar joylari daryo qamishlari o'sadigan hududlarda paydo bo'lgan. Uylar yog'och ustunlarda turib, devorlari tuproq bilan to'ldirilgan va loy bilan qoplangan. Uy tutun chiqadigan teshik mavjud bo'lgan qamishli tomiga ega<sup>61</sup>.

**Mazanka** - bu Ukrainianing cho'l va o'rmonli dashtining qishloq uyi. Kulba o'z nomini qadimgi qurilish texnologiyasidan olgan, ya'ni somon va loy bilan aralashtirilib, qamish qatlami bilan mustahkamlangan va daraxt shoxlaridan ramka yasalgan. Uyga yaxshi ko'rinish berish maqsadida devorlari doimiy ravishda ichkaridan va tashqaridan oqlangan. To'rt qirrali poydevorli tomda yomg'irda nam bo'lishiga yo'l qo'ymaslik uchun katta qoplamlalar o'rnatilgan. Mazankalar poydevorga ega bo'lmasada, 100 yilgacha saqlanishi mumkin<sup>62</sup>.



**4.2.8- rasm. Mazankaning ko'rinishi**

**Odag** - G'arbiy Sibirning janubi - sharqiy qismida yashovchi xalqlardan biri bo'lgan shorslarning to'y kulbasi. To'qqizta ingichka barglari bo'lgan yosh qayinlar yuqoridan bog'lanib, qayin po'stlog'i

<sup>61</sup>Shu yerda

<sup>62</sup><https://makemone.ru/montazh-remont-i-otdelka-potolka/nazvanie-zhilishch-tradicionnye-zhilishcha-slavyanskih-narodov-i-by-haty-i.html>

bilan qoplanadi. Kuyov kulbaning ichiga o‘t yoqadi. Kelin – kuyov besh kun odagda qoladi va shundan so‘nggina doimiy uyga ko‘chib o‘tishadi<sup>63</sup>.



**4.2.9- rasm. Odagning ko‘rinishi**

**Pallyaso** - Galisiyadagi (Pireney yarim orolining shimoli - g‘arbiy qismida) turar-joy turi. Diametri 10-20 metr bo‘lgan doirada old eshik va kichkina derazalar uchun teshiklari bo‘lgan tosh devor yotqiziladi. Deraza umuman bo‘lmasligi yoki nomiga bittagina quyilishi ham mumkin. Yog‘och ramkaning ustiga konus shaklidagi somon tom qo‘yiladi. Ba’zan pallyasoda ikkita xona ajratiladi: biri yashash uchun, ikkinchisi chorva mollari uchun. Pallyaso 1970 - yillarga qadar Galisiyada uy - joy sifatida foydalanilgan<sup>64</sup>.

---

<sup>63</sup>Shu yerda

<sup>64</sup>Shu yerda



**4.2.10- rasm. Pallyasoning ko‘rinishi**

*Paleyro* - Madeyra orolining sharqidagi Santana qishlog‘idagi an’anaviy dehqonlar uyi. Bu toshdan yasalgan katta bo‘limgan konstruksiya bo‘lib, u yergacha boradigan egri tom bilan yopiladi. Uylar oq, qizil va ko‘k ranglarga bo‘yaladi. Paleyra orolning birinchi kolonizatorlari tomonidan qurila boshlangan<sup>65</sup>.



**4.2.11- rasm. Paleyroning ko‘rinishi**

<sup>65</sup>Shu yerda

*Riga* - bu estoniyalik dehqonlarning baland qirrali yoki qamishli tomi bilan qoplangan uyi. Ko‘mir yoki o‘tin bilan isitiladigan markaziy xonada yashab, pichan ham quritiladi. Qo‘shni xonada («gumno» deb nomlangan) ular bug‘doyni yanchib, asbob - uskuna va pichanlar saqlanadi, qishda esa chorva mollari boqiladi. Issiq paytlarda turar joy sifatida, qishda esa ombor sifatida ishlataladigan isitilmaydigan xonalar («xonalar») ham mavjud bo‘ladi<sup>66</sup>.



**4.2.12- rasm. Riganing ko‘rinishi**

*Trullo* - Italiyaning Apulia viloyatidagi konussimon tomi bo‘lgan o‘ziga xos uydir. Trullo devorlari juda qalin bo‘lib, shuning uchun issiq havoda salqin, qishda esa unchalik sovuq bo‘lmaydi. Trullo ikki qavatli bo‘lib, ikkinchi qavatiga tirdama zinapoyadan chiqish mumkin. Ko‘pincha trullo bir nechta konussimon tomga ega bo‘lib, ularning har biri tagida alohida xona joylashadi<sup>67</sup>.

---

<sup>66</sup>Shu yerda

<sup>67</sup>Shu yerda



**4.2.13- rasm. Trulloning ko‘rinishi**


### **4.3. Amerika mintaqasida mavjud mahalliy aholining turar joylari**

**Izba** – Rossiyaning o‘rmonli hududlarida yog‘och xodalardan yasalgan uy. X -asrgacha izba yer yarmigacha ko‘milgan kulba shakliga ega bo‘lgan. Eshiklar o‘rniga ularning vazifasini maxsus matodan tayyorlangan yopinchiq bajargan. Izbaning ichida toshdan yasalgan o‘choq joylashtirilib, odamlar uy hayvonlari bilan bir joyda yerga to‘shalgan yupqa to‘shaklarda uplashgan. Asrlar davomida izbada pechka, tomda tutun uchun teshik, keyinchalik esa mo‘riga ega bo‘lgan. Devorlarda derazalar paydo bo‘lib, buqa pufagi bilan yopilgan. Fundamenti bo‘lмаган izbalarning devorlariga somon va tezak bilan aralashtirilgan loy shuvoq qilingan. Vaqt o‘tishi bilan izba ikki qismga bo‘lingan. Shu tarzda «besh devorli» izba paydo bo‘ldi. Rossiyaning shimolida izbalar ikki qavat qilib quriladi. Yuqori qavati turar joy sifatida, pastki qavati xo‘jalik ehtiyojlari uchun ishlatiladi.



#### **4.3.2- rasm. Izbaning ko‘rinishi**

**Bahareke** - Gvatemaladagi hindulari kulbasi. Devorlari loy bilan qoplangan shoxlar va novdalardan yasalgan. Tomi quruq o‘t yoki somondan, pastki qismi zichlashtirilgan tuproqdan qilingan. Bahareke Markaziy Amerikada ro‘y beradigan kuchli zilzilalarga chidamli uy<sup>68</sup>.



#### **4.3.1- rasm. Baharekening ko‘rinishi**

<sup>68</sup><http://xn----stb8d.xn--p1ai/baxareke/>

**Kabaniya** – Ekvador tub aholisining kichik uyi (Janubiy Amerikaning shimoli-g‘arbiy qismida joylashgan davlat). Uning ramkasi tok novdasidan to‘qilib, qisman loy va somon bilan qoplangan. Bu nom, shuningdek, dam olish va texnik ehtiyojlar uchun plyajlar va hovuzlarda o‘rnatilgan besetkalarga berilgan<sup>69</sup>.




**4.3.3- rasm. Kabaniyaning ko‘rinishi**

**Pueblo** - zamonaviy Amerika Qo‘shma Shtatlarining janubi - g‘arbiy qismidagi hindu xalqlari guruhi bo‘lgan Pueblo hindularining qadimgi manzilgohlari. Qal'a shaklida qumtosh yoki xom g‘ishtdan qurilgan yopiq inshoot. Turar joy binolari bir necha qavatdan iborat bo‘lib, pastki qavatining tomi yuqori qavatlar uchun hovli vazifasini bajaradi. Yuqori qavatlarga tirkama zinapoyalar orqali tomlardagi teshiklardan ko‘tariladi. Ba’zi pueblalarda, masalan, Taos Pueblo da (ming yildan buyon mavjud bo‘lgan shaharcha) hindular hanuzgacha yashamoqdalar<sup>70</sup>.

<sup>69</sup><http://xn----stb8d.xn--p1ai/kabanya/>

<sup>70</sup>Shu yerda



**4.3.4- rasm. Puebloning ko‘rinishi**

**Pueblito** - AQShning Nyu-Meksiko shtatining shimoli - g‘arbida joylashgan kichik qal'a uyi. 300 yil oldin, ispanlarga shuningdek, Yuta va Komancha qabilalariga qarshi o‘zlarini himoya qilgan Navaxo va Pueblo qabilalari tomonidan qurilgan.



**4.3.5- rasm. Pueblitoning ko‘rinishi**

Devorlari toshdan yasaladi. Ichki va tashqi tomoni loy bilan qoplanib, mahkamlanadi. Shiftlari qarag‘ay yoki archa to‘sinlaridan yasalgan bo‘lib, ularning ustiga novdalar yotqiziladi. Pueblito shaharlararo aloqa imkoniyatini ta’minlash uchun baland joylarda joylashtiriladi<sup>71</sup>.

*Tipi* - Amerikaning Buyuk tekisliklaridagi ko‘chmanchi hindularning ko‘chma uyi. Tipining balandligi sakkiz metrgacha bo‘lgan konus shaklidagi uy. Ramka yog‘och bolordan (qarag‘ay - shimoliy va markaziy tekislikda va archa - janubda) yig‘iladi. Tepasida tutun uchun teshik bo‘ladi. Ustki qoplamasi bizon terisidan tikiladi. Kuchli shamol bo‘lganda, tipi kamar bilan maxsus qoziqqa bog‘lab qo‘yiladi. Bu uy tezlikda yig‘ilib o‘rnatilishi va olib yurishi uchun qulayligi bilan boshqalardan ajralib turadi. Tipini vigvam bilan aralashtirib yubormaslik kerak<sup>72</sup>.



**4.3.6- rasm. Tipining ko‘rinishi**

<sup>71</sup>Shu yerda

<sup>72</sup><http://xn----stb8d.xn--p1ai/Portfolio/88/>

**Vigvam** - Shimoliy Amerikadagi o'rmon hindularining keng tarqalgan turar joy nomi. Ko'pincha bu tutun chiqadigan teshigi bo'lган gumbaz shaklidagi kulba. Vigvam ramkasi yupqa va egri yog'ochlardan, usti po'stloq va qamishdan yasalib, uy teri yoki mato qismlari bilan qoplanadi. Tashqi tomonidan qoplama qo'shimcha ravishda tirkaklar bilan bositgan. Vigvam kattaroq hamda bir nechta tutun chiqadigan teshigi bo'lган «uzun uy» ko'rinishida ham bo'lishi mumkin. Ko'pincha vigvamlarda unchalik katta bo'lмаган, ammo eng kattalarida 25 - 30 nafar kishilar yashashi uchun sharoitlar mavjud bo'ladi. Ovqat odatda vigvamdan tashqarida tayyorlanadi. Hozirgi kunda vigvamlar ba'zi urf - odatlarni bajarishda qo'llanilib kelinmoqda.



**4.3.7- rasm. Vigvamning ko'rinishi**

**Xogan** - Shimoliy Amerikadagi tub xalqlardan biri Navaxo hindularining qadimgi uyi. Yerga 45°C burchak ostida o'rnatilgan tirkak novdalar bilan bog'lanadi va loy bilan qoplanadi. Ko'pincha ushbu oddiy uyga «yulakcha» biriktiriladi. Kirish parda bilan yopiladi. Birinchi temiryo'l Navaxo hududidan o'tganidan so'ng, xoganning qurilishi o'zgardi<sup>73</sup>.

<sup>73</sup>Shu yerda



**4.3.8- rasm. Xoganning ko‘rinishi**

***Shabono*** - Venesuela va Braziliya chegarasidagi Amazoniya yomg‘irli o‘rmonlarida yo‘qolgan Yanomamo hindularining jamoaviy uyidir. Katta oila (50 dan 400 kishigacha) o‘rmon ichida mos keladigan ochiq hududni tanlaydi va uni barglar bilan yopib, ustunlarni uzun tom bilan o‘rab oladi. Bunday o‘ziga xos to‘sinq uy ishlari va marosimlar uchun qulay hisoblanadi



**4.3.9- rasm. Shabononing ko‘rinishi**

#### **4.4. Afrika mintaqasida mavjud mahalliy aholining turar joylari<sup>74</sup>**

***Ikukvane*** - zuluslarning katta gumbazli qamish uyi (Janubiy Afrika). U uzun ingichka novdalardan, uzun bo‘yli maysalardan, qamishlardan quriladi. Bularning barchasi bir - biriga arqonlar bilan bog‘lanib mustahkamlanadi. Kulbaga kirish maxsus qalqon bilan yopiladi. Sayohatchilar Ikukvana atrofidagi landshaftga juda mos keladi deb hisoblashadi.



**4.4.2- rasm. Ikukvanening ko‘rinishi**

***Rondavel*** - bantu xalqlarining aylanasimon uyi (Janubiy Afrika). Devorlari toshdan qilinadi. Qotiruvchi qorishma tarkibida qum, tuproq va tezakdan iborat bo‘lib, peshtoqlari - novdalardan yasalgan, qamish bog‘lamlari o‘t arqonlar bilan bog‘lanadi<sup>75</sup>.

<sup>74</sup><https://planetofhotels.com/blog/tradicionnyc-jctnicheskic-doma-i-otclia>

<sup>75</sup>Shu yerda



**4.4.3- rasm. Rondavelning ko‘rinishi**

**Tokul** - Sudan xalqlarining dumaloq uyi (Sharqiy Afrika). Egiluvchan novdalardan halqa qilib, somon bilan yopiladi<sup>76</sup>.



**4.4.4- rasm. Tokulning ko‘rinishi**

<sup>76</sup>Shu yerda

Ushbu ma'lumotlardan ko'rinish turibdiki, barcha mintaqalarning o'ziga xos etnik turar joylari mavjud bo'lib, ular turistlarning qiziqishlariga sabab bo'lmoqda. Bu qiziqishlari esa mahalliy byudjetlarga katta daromad manbaiga aylanib bo'gan. Ammo Markaziy Osiyo hududida faqat ko'chmanchi halqning o'tovlariga e'tibor qaratilib, o'troq aholining pahsali, g'ishtli va shu kabi uylariga esa e'tibor biroz kamroq. Bunga assosiy sabab sifatida marketing faoliyatining so'stligi, reklama-targ'ibot ishlarining qilinmaganligi, ma'lumot topish imkoniyatining cheklanganligini ko'rsatish mumkin.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. Ўзбекистон Республикасининг 2019 йил 18 июлдаги «Туризм тўғрисида» ги Қонуни
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2016 йил 2 декабрдаги ПФ-4861-сон «Ўзбекистон Республикасининг туризм соҳасини жадал ривожлантиришни таъминлаш чора-тадбирлари тўғрисида» ги Фармони
3. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2017 йил 15 мартдаги «Ўзбекистон Республикасида туризм соҳасини янада қўллаб-қувватлаш ва ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида» ги 137-сон Қарори
4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 3 февралдаги ПФ-5326-сон «Ўзбекистон Республикаси туризм салоҳиятини ривожлантириш учун кулай шароитлар яратиш бўйича қўшимча ташкилий чора-тадбирлар тўғрисида» ги Фармони
5. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2018 йил 24 ноябрдаги «Ўзбекистон Республикасида меҳмонхона бизнесини жадал ривожлантиришга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида» ги 954-сон Қарори
6. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 5 январдаги ПҚ-4095-сон «Туризм тармоғини жадал ривожлантиришга оид чора-тадбирлар тўғрисида» ги Қарори
7. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2019 йил 21 сентябрдаги «Йўлбўйи ва туристик инфратузилмани янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида» ги Қарори
8. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 19 июндаги ПҚ-4755-сон «Туризм соҳасини санитария -

эпидемиологик хавфсизликнинг кучайтирилган режими талабларига қатъий риоя қилган ҳолда ривожлантиришга доир қўшимча чора - тадбирлар тўғрисида” ги Қарори

9. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2020 йил 10 июлдаги «Ўзбекистон Республикасида туризм соҳасини тиклаш ва ривожлантириш учун қулай шарт - шароитларни яратиш чора-тадбирлари тўғрисида” ги 433-сон Қарори
10. O‘z DSt 3220:2017. Turizm xizmatlari. Joylashtirish vositalari. Umumiy talablar. «O‘zstandart» agentligi. Toshkent 2017
11. O‘z DST ISO 182513:2017. Turizm xizmatlari. Mehmonxona va turistlarni joylashtirish vositalarining boshqa turlari. Atamashunoslik. O‘zbekiston Respubliksi Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi. Toshkent.
12. Turistik xizmatlar. Joylashtirish vositalari. Bolalar va yoshlar oromgohlari klassifikatsiyasi. Samarqand. O‘zstandart agentligi. 2016
13. Turistik xizmatlar. Joylashuv vositalari. Sanatoriy va dam olish uylari xizmatlariga umumiy talablar. Samarqand. «O‘zstandart» MK. 2016
14. Tuxliyev I.S., Hayitboyev R., Safarov B.Sh., Tursunova G.R.. Turizm asoslari.Darslik. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va O‘rta Maxsus Ta’lim Vazirligi. Samarqand iqtisodiyot va servis instituti.-Toshkent, 2014, -362b.

### **Interet saytlari:**

1. <http://www.tourism.ru>
2. <https://www.Gazeta.ru>
3. <https://www.extremeworld.ru>
4. <https://www.uniqhotel.com>

5. <https://www.tripadvisor.com>
6. <https://www.34travel.me/post/10>
7. <https://uzbektourism.uz/uz/newnews/view?id=875>
8. [https://www.google.com/search?biw=1093&bih=490&tbsm=isch&sa=1&ei=HwzvWozJLcOuswG5x7XQCQ&q=Richard+Schirrmann+hostels&oq=Richard+Schirrmann+hostels&gs\\_l=img.3...10202.14567.0.14638.8.8.0.0.0.195.1068.0j7.7.0....0...1c.1.64.img..1.1.163...0i30k1j0i5i30k1j0i24k1.0.aKP2NokA-Zw#imgdii=wZbZdQM757n9YM:&imgrc=GZXX1A25ta93FM](https://www.google.com/search?biw=1093&bih=490&tbsm=isch&sa=1&ei=HwzvWozJLcOuswG5x7XQCQ&q=Richard+Schirrmann+hostels&oq=Richard+Schirrmann+hostels&gs_l=img.3...10202.14567.0.14638.8.8.0.0.0.195.1068.0j7.7.0....0...1c.1.64.img..1.1.163...0i30k1j0i5i30k1j0i24k1.0.aKP2NokA-Zw#imgdii=wZbZdQM757n9YM:&imgrc=GZXX1A25ta93FM): murojat sanasi 20.05.2018
9. [https://www.google.com/search?biw=1093&bih=530&tbsm=isch&sa=1&ei=HgsLW6jsH4Xa6ASl45rgCw&q=hi+iceland+hostels+map&oq=hi+iceland+hostels+map&gs\\_l=img.3...10301.11018.0.11742.4.4.0.0.0.181.615.0j4.4.0....0...1c.1.64.img..0.0.0....0.5vCSfDH4a8A#imgrc=VQKqhis5KPv9RM](https://www.google.com/search?biw=1093&bih=530&tbsm=isch&sa=1&ei=HgsLW6jsH4Xa6ASl45rgCw&q=hi+iceland+hostels+map&oq=hi+iceland+hostels+map&gs_l=img.3...10301.11018.0.11742.4.4.0.0.0.181.615.0j4.4.0....0...1c.1.64.img..0.0.0....0.5vCSfDH4a8A#imgrc=VQKqhis5KPv9RM): (murojat sanasi 20.04.2018)
10. <https://www.hihostels.com/pages/about-hi> (murojat sanasi 20.05.2018)
11. [https://upload.wikimedia.org/wikipedia/commons/e/e6/JH\\_Altena.jpg](https://upload.wikimedia.org/wikipedia/commons/e/e6/JH_Altena.jpg) murojat sanasi 15.05.2018
12. [https://www.google.com/search?biw=1366&bih=613&tbsm=isch&sa=1&ei=akLW5jBDuGB6QST7JnQCw&q=1st+hostel+Altena&oq=1st+hostel+Altena&gs\\_l=img.3..34484.39957.0.40305.9.8.1.0.0.0.438.1455.0j7j4-1.8.0....0...1c.1.64.img..0.0.0....0.Xy60WtOsYQg#imgrc=5PWs1uj-rQIM3M](https://www.google.com/search?biw=1366&bih=613&tbsm=isch&sa=1&ei=akLW5jBDuGB6QST7JnQCw&q=1st+hostel+Altena&oq=1st+hostel+Altena&gs_l=img.3..34484.39957.0.40305.9.8.1.0.0.0.438.1455.0j7j4-1.8.0....0...1c.1.64.img..0.0.0....0.Xy60WtOsYQg#imgrc=5PWs1uj-rQIM3M):
13. <https://www.trustpilot.com/review/hihostels.com> murojat sanasi 20.05.2018
14. <https://www.hihostels.com/pages/yha> (murojat sanasi 20.05.2018)
15. <https://www.biletik.aero/handbook/blog/oteli/samye-udivitelnye-i-neobychnye-otelo-mira/>

16. [https://www.hl.iue.fh-kiel.de/EUJP2017/wp-content/uploads/2017/03/HI\\_Impact-of-Tourism-Sustainability.bl.pdf](https://www.hl.iue.fh-kiel.de/EUJP2017/wp-content/uploads/2017/03/HI_Impact-of-Tourism-Sustainability.bl.pdf)
17. <https://www.hostel.is/files/pdf/travel-agencies/hi-iceland-hostels-contact-details-2018.pdf>
18. <https://www.hostel.is/files/pdf/travel-agencies/reykjavik-loft-hi-hostel-accessability.pdf> (murojat sanasi 25.04.2018)
19. [https://www.google.com/search?biw=1093&bih=530&tbs=isch&sa=1&ei=HgsLW6jsH4Xa6AS145rgCw&q=hi+iceland+hostels+map&oq=hi+iceland+hostels+map&gs\\_l=img.3...10301.11018.0.11742.4.4.0.0.0.0.181.615.0j4.4.0....0...1c.1.64.img..0.0.0....0.5vCSfDH4a8A#imgrc=VQKqhis5KPv9RM](https://www.google.com/search?biw=1093&bih=530&tbs=isch&sa=1&ei=HgsLW6jsH4Xa6AS145rgCw&q=hi+iceland+hostels+map&oq=hi+iceland+hostels+map&gs_l=img.3...10301.11018.0.11742.4.4.0.0.0.0.181.615.0j4.4.0....0...1c.1.64.img..0.0.0....0.5vCSfDH4a8A#imgrc=VQKqhis5KPv9RM)
20. <https://www.lofthostel.is>
21. <https://www.yha.org.uk/about-yha/history>(murojat sanasi 10.04.2018)
22. <https://www.yha.org.uk/affiliate-programme>(murojat sanasi 20.04.2018)
23. [https://www.ferdamalastofa.is/static/files/ferdamalastofa/tolur\\_utgafur/fundir/sjalfbaerni14/brianda\\_lopez.pdf](https://www.ferdamalastofa.is/static/files/ferdamalastofa/tolur_utgafur/fundir/sjalfbaerni14/brianda_lopez.pdf) (murojat sanasi 20.04.2018)
24. Hostelling and youth tourism, 2017 year, Greg Richards <https://independent.academia.edu/gregrichards> (murojat sanasi 20.04.2018)
25. [https://msltravel.com/form/yha\\_form.pdf](https://msltravel.com/form/yha_form.pdf)
26. <https://www.hotelresearch.ru/hotels/library-hotel-new-york-city>
27. <https://redigo.ru/hotels/USA/9527/1099924>
28. <https://www.unusualhotelloftheworld.com/CraneHotel>
29. <https://redigo.ru/geo/Europe/Netherlands/poi/13558>
30. <https://xn----stb8d.xn--p1ai/abylajsha/>
31. [https://ru.wikipedia.org › wiki › Ail\\_\(znacheniya\)](https://ru.wikipedia.org › wiki › Ail_(znacheniya))
32. <https://ru.wikipedia.org › wiki › Arish>



Joylashtirish vositalariga doir talablar<sup>77</sup>

№	Talablar	Joylashtirish vositalari			
		Mehmonxonalar va shunga 'xshash	Ixtisoslashtirilgan	Individual	Xostellar va yotoqxonalar
<b>I Bino va unga tutash hudud <sup>7</sup></b>					
1	Tutash hudud:				
	- qulay va shinam;	+	+ <sup>3</sup>	+ <sup>6, 10</sup>	+ <sup>6</sup>
	- kunning qorong'i vaqtida yoritiladi;	+	+	+	+
	- borish yo'li va yo'laklarda qattiq qoplama;	+	+ <sup>3</sup>	+ <sup>10,</sup>	+
	- tosh yotqazilgan yo'lovchi yo'lkalari;	+	+ <sup>2, 3</sup>	-	-
2	- erigan suvlar va yomg'ir suvlari uchun ariqlar bo'lgan qattiq qoplama, maydonchalar va yo'lovchi yo'lkalari	+	+ <sup>3</sup>	+ <sup>5, 6, 10</sup>	+ <sup>6</sup>
	Atrofi o'ralgan va qo'riqlanadigan hudud	-	+ <sup>2, 3</sup>	-	-
3	Alovida turgan binoda (binolarda) joylashish yoki alovida kirishi bo'lgan binoning bir qismini egallah	+	+ <sup>3</sup>	-	-
4	Ma'lumotlar taxtasi:				
	- joylashtirish vositasining nomi bilan;	+	+ <sup>2, 3</sup>	-	+
	- yoritadigan va nur sochadigan	+	+ <sup>2, 3</sup>	-	-
5	Tashrif buyuruvchilar uchun kirish:	+	+ <sup>2, 3</sup>	-	-

<sup>77</sup> O'z DSt 3220:2017. Turizm xizmatlari. Joylashtirish vositalari. Umumiyl talablar. «O'zstandart» agentligi. Toshkent 2017

	havo-issiqlik pardasi yoki tambur		4		
6	Avtoturargohning mavjudligi (to'xtash joyi): - joy soni – nomer fondi miqdoridan 20% dan kam emas. Motellar uchun joy soni - nomer fondi miqdoridan 40% dan kam emas;	+ +	+ <sup>2,3</sup> + <sup>2,3</sup>	- -	- -
	- nogironlar uchun belgilangan joylarning mavjudligi	+ +	+ <sup>2,3</sup> + <sup>2,3</sup>	- -	- -
7	Erkin yo'nalishni aniqlashni ta'minlash uchun axborot ko'rsatkichlari: - chiqishlardagi (evakuatsion, avariya) «CHIQISH», «VIXOD», «EXIT» yoki boshqa ko'rsatkichlar;	+ +	+ +	+ +	+ +
	- joylar va nomerlar/xonalarning nomlari yozilgan taxtachalar/ko'rsatkichlar;	+ +	+ +	- -	- -
Izoh:					
1 »+» belgisi talabning bajarilishi majburiyligini bildiradi, «-» belgisi talablar qo'yilmasligini bildiradi.					
2 «+*» indekslar uchun izohlar jadvalning oxirida keltirilgan.					
	- joylashtirish vositalarining nomerlari va qavatlarida favqulotda holatlarda evakuatsiya rejalar;	+ +	+ +	+ +	+ +
	- evakuatsiya, avariya va b. chiqishlarni to'sib qo'yishga ruxsat etilmaydi.	+ +	+ +	+ +	+ +
<b>II Texnik jihozlar va asbob-uskunalar<sup>7</sup></b>					
8	Elektr energiyasi bilan ta'minlash	+ +	+ <sup>3</sup> +	+ <sup>10</sup> +	+ +
9	Avariya holatida yoritish va energiya ta'minoti: turg'un generator yoki akkumulyatorlar va fonuslar	+ +	+ +	+ +	+ +
10	Tabiiy va sun'iy yoritish (yo'nalishni qulay va erkin aniqlash uchun yetarli):				

	- yashash joylarida;	+	+ <sup>3</sup>	+ <sup>10</sup>	+ <sup>17</sup>
	- jamoat joylarida; <sup>17</sup>	+	+ <sup>3</sup>	+ <sup>10</sup>	+
	- tunu-kun yo'laklar va zinalarda;	+	+ <sup>3</sup>	-	+ <sup>17</sup>
Suv ta'minoti:					
11	- tunu-kun issiq suv;	+	+ <sup>3</sup>	+ <sup>10</sup>	+
11	- tunu-kun sovuq suv;	+	+	+	+
11.1	- 50 litr/joy hisobidan minimal suv zahirasili idishning mavjudligi	+	+ <sup>9</sup>	-	-
12	Jamoat va yashash joylarida issiqlik qulayligini ta'minlovchi isitish tizimi	+	+ <sup>3, 21</sup>	+ <sup>10,</sup> <sub>21</sub>	+
12	Kanalizatsiya (suv chiqarish) yoki mahalliy tozalash inshootlari (markazlashgan tarmoqlarga ulanish imkoniyati bo'lmasganda)	+	+	+	+
13	Shamollatish (tabiiy yoki majburiy) yoki havoning normal sirkulyatsiyasini ta'minlaydigan va yashash xonalariga (nomerlarga) begona hidrlarning kirishiga yo'l qo'ymaydigan havo haroratini bir xilda saqlash	+	+	+	+ <sup>19</sup>
14	Besh qavatdan yuqori bo'lgan binoda lift	+	+	-	-
15	Liftning kunu-tun ishlashi (mavjud bo'lmasganda)	+	+	-	-
16	Jamoa foydalanishi uchun telefon aloqasi (shahar, mobil yoki sun'iy yo'ldoshli)	+	+	+	+
17	Tashrif buyuruvchilarining qimmatbaho mulkini saqlash uchun seyf yoki individual seyf yacheyskalari (foydalanish qoidalari bilan)	+	+	-	+
<b>III Nomer fondi</b> <sup>7, 8, 20</sup>					
18	Tashrif buyuruvchilarining yashashi va ularni joylashtirish uchun sokol	+	+	+	+

	qavatlari va yerto‘lalardan foydalanish mumkin emas				
19	Nomer maydoni (sanuzel, peshayvon, balkon, ayvonnarni hisobga olmaganda): - bir o‘rinli - 9 m <sup>2</sup> dan kam emas; - ikki o‘rinli - 12 m <sup>2</sup> dan kam emas	+	+ <sup>3</sup>	+ <sup>10</sup>	-
20	Ikkitadan ko‘p tashrif buyuruvchilarni joylashtirish uchun mo‘ljallangan nomerlar har bir tashrif buyuruvchini hisoblagan holda quyidagidan kam bo‘lmagan maydonga ega bo‘lishi kerak: - 6 m <sup>2</sup> – yil bo‘yi ishlaydigan joylashtirish vositalari uchun; - 4,5 m <sup>2</sup> – mavsumiy ishlaydigan joylashtirish vositalari uchun	+	+	-	-
21	Maydoni 3 m <sup>2</sup> dan kam bo‘lmagan to‘liq sanuzel	+	+ <sup>3, 4</sup>	+ <sup>5, 10</sup>	-
22	Sanitariya xonalarini dezinfeksiyaga bardoshli va namga chidamli materiallar bilan qoplash (devorlar va pollarni qoplash)	+	+ <sup>3, 4</sup>	+ <sup>5, 10</sup>	-
23	Devorlar, to‘sqliqlar, jihozlar va mebellarning jarohatlanishdan xavfsiz qoplamlari va yuzalari (o‘tkir burchaklar va qirralarsiz)	+	+	+	+
24	Pollar: tekis; yoriqlar va nuqsonlarsiz; devorlar va polga zinch tutashgan plintuslar	+	+ <sup>3</sup>	+ <sup>5, 10</sup>	+
<b>IV Nomerlarning texnik jihozlanishi <sup>7</sup></b>					
25	Ichki saqlagich yoki ilgaklari bo‘lgan eshiklar va qulflar	+	+	+	-
26	Yoritish (yo‘nalishni qulay, erkin va to‘g‘ri aniqlash uchun yetarli): - tabiiy; - sun’iy	+	+	+	-
27	Sovutgich (nomerda yoki umumiyl foydalanish uchun)	+	+	+	+
28	Milliy telekompaniyalarning assosiy	+ <sup>1</sup>	+ <sup>3, 4</sup>	-	-

	dasturlarini translyatsiya qiladigan televizor					
<b>V Nomerni mebel va inventarlar bilan jihozlanishi <sup>7</sup></b>						
	Krovat (minimal o'lchamlar): <sup>3, 10, 13</sup>					
29	- bir kishilik 80x190 cm;	+	+	+	+	
	- ikki kishilik 160x190 cm	+	+	+	-	
30	Krovat oldidagi javoncha (stolcha): har bir yotish joyida	+	+ <sup>2, 3,</sup> 4	-	-	
31	Xonani qorong'i qilishni ta'minlaydigan, derazalardagi qalin (yorug'lik o'tkazmaydigan) pardalar (darpardalar, jalyuzilar)	+	+ <sup>2, 3,</sup> 4	-	-	
	Krovatlar/ joylar soni bo'yicha ko'rpa-to'shaklar va choyshab-jildlar majmui:					
32	- usti qobiqli matras, yostiq va yostiqjild (har bir tashrif buyuruvchiga), ko'rpa, choyshab va ko'rpa jild;	+	+	+	+	
	- krovat uchun yopinchiq	+	+ <sup>2, 3,</sup> 4	-	-	
	Shkaf (yasalganiga ruxsat etiladi):					
33	- tokchali (qutili javon bor bo'lganda tokchasiz shkaflarga ruxsat etiladi);	+	+ <sup>3, 4</sup>	+ <sup>10</sup>	-	
	- ilgaklari bor (har bir tashrif buyuruvchiga kamida 2 ta)	+ 1	+ <sup>3, 4</sup>	+ <sup>5, 10</sup>	-	
34	Kirish yo'lagi va/ yoki xonada bo'y baravar yoki katta o'lchamdagи ko'zgu	+	+ <sup>3, 4</sup>	+ <sup>5, 10</sup>	-	
35	Bagaj uchun tokcha (taglik)	+ 1	+ <sup>2, 3,</sup> 4	-	-	
36	Qog'oz chiqindi uchun savatcha	+	+	+ <sup>5</sup>	+	
	Diniy inventar: <sup>1</sup>					
37	- nomer fondining 10%dan kam bo'lmagan diniy kitoblar (Qur'on, Bibliya va rasmiy dinlarning boshqa kitoblari);	+	-	-	-	

	- nomer fondining 10%dan kam bo‘lмаган ibodat uchun gilamchalar;	+	-	-	-
	- nomer fondining 30%dan kam bo‘lмаган Makka yo‘nalishini ko‘rsatgich	+	-	-	-

#### **VI Nomerlarni sanitariya-gigiyenik jihozlanishi** <sup>2, 3, 4, 7</sup>

